


International
Journal

Intellectual and Cultural Heritage



State Museum of
History of Uzbekistan

O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEVI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI**

Interscience-service MCHJ



«INTELLEKTUAL VA MADANIY MEROS XALQARO JURNALI»

**«INTERNATIONAL JOURNAL OF INTELLECTUAL AND CULTURAL
HERITAGE»**

**«МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И
КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ»**

Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy jurnal

2024, Volume 4, Issue 5



TOSHKENT - 2024

TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir

Ismailova Jannat Xamidovna – tarix fanlari doktori (DSc), professor. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi.

Bosh muharrir o'rinbosari –

Rasulova Durdona Baxronovna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib

Kushanova Dilfuza Ubaydullayevna – tahririy nashriyot bo'limi rahbari.

“TURKSOY muzeylari assotsiatsiyasi”

Jovid Movsumlu – “TURKSOY muzeylar assotsiatsiyasi” bosh koordinatori.

Ismailova Jannat – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. Muzey direktori.

Malikova Shirin - Ozarbayjon milliy san'at muzeyi. Muzey direktori.

Rashida Haripova – Qozog'iston Markaziy davlat muzeyi. Muzey direktori.

Bakashova Jildiz – Qirg'iziston Respublikasi Davlat muzeyi. Muzey direktori.

Ali Haydar Otalar - 15 iyul nomli Demokratiya muzeyi. Muzey direktori.

Meretgeldi Charyev - Turkmaniston Milliy muzeyi. Muzey direktori.

Emine Emel - Kipr tarix, madaniyat va Turkiya milliy kurash muzeyi. Muzey direktori.

Lyudmila Marin - Gagauz milliy tarixiy-etnografiya muzeyi. Muzey direktori.

“TARIX FANLARI – 07.00.00”

Namazova Alla Sergeyevna – tarix fanlari doktori (DSc), professor. Rossiya Fanlar akademiyasi Umumiy tarix instituti bosh ilmiy xodimi (Rossiya).

Zaotov Ismet Ablyatfovich, san'atshunoslik fanlari nomzodi, Xazar universitetining Madaniy antropologiya instituti bosh ilmiy xodimi (Boku, Ozarbayjon);

G'ulomrizo Amirxoni – tarix fanlari doktori, dotsent, Eron Respublikasi Milliy kutubxonasi va arxivi.

Xalikova Raxbar Ergashevna – tarix fanlari doktori (DSc), professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Rasulova Durdona Baxronovna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi.

Qodirova Lutfiya Batirovna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

“IQTISODIYOT FANLARI – 08.00.00”

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich - texnika fanlari doktori (DSc), professor. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Christo Ananth – Injinerlik bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor. Samarqand davlat universiteti (Hindiston).

Teshaboyev To'lqin Zokirovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor. Toshkent moliya instituti.

Richard Vun – moliya va bank ishi bo'yicha ekspert, SixClouds Pte Ltd bosh ijrochi direktori va ta'sischi (Singapur).

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor. “Ipak Yo'li” Xalqaro Turizm va Madaniy meros universiteti.

Qodirova Zulayxo Abduxalimovna – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Summera Xalid - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, (Hindiston).

Omirtay Amalbek – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Qozog'iston Respublikasi Milliy tarix davlat muzeyi (Qozog'iston).

“FALSAFA FANLARI – 09.00.00”

Nargis Nurulla-Xodjayeva – falsafa fanlari doktori (DSc), professor, “Ipak Yo'li” Xalqaro Turizm va Madaniy meros universiteti.

Nazarov Qiyom Normirzayevich – falsafa fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligi melioratorlari injenerlari instituti.

Ro'zmatzoda Qodirqul Ro'zmat o'g'li – falsafa fanlari doktori (DSc), professor, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti.

Haydarov Komil Donaboyevich - falsafa fanlari doktori (DSc), professor. O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti.

Samadov Aktam Rafiqovich - falsafa fanlari doktori (DSc), professor. Samarqand davlat universiteti.

Nurmatova Umida Jaloliddinova – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti.

“FILOLOGIYA FANLARI - 10.00.00”

Ibrohimi Xudoyor – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent. Tehron Tarbiyat Modares universiteti (TMU) (Eron).

Sirojiddinov Shuxrat Samariddinovich - filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Nyu York va Kaliforniya fanlar akademiyasi akademigi. A.Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Namatov Mirlan Amanovich –Sharq adabiyoti doktori, poliglot. G'arbiy Yevropa va Yaqin Sharq bo'yicha rus geografiya jamiyati raisi.

O'rinbayeva Dilbar Bazarovna - filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Samarkand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi.

Maxmudov Fayzodja Muzaffarovich - filolog-sharqshunos (sharq mamlakatlari tarixi), arabografik matnshunos. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Tarix instituti.

“PEDAGOGIKA FANLARI – 13.00.00”

Ibragimov Xolboy Ibragimovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti.

Musurmanova Oynisa - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti.

Yekaterina Vladimirovna Fedosenko - psixologiya fanlari doktori, dotsent. “Boltiq gumanitar instituti” xususiy oliy ta'lim muassasasi (Rossiya).

Riskulova Kamola Djummayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Puchyon universiteti.

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Samarqand viloyat pedagogika markazi.

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti prorektori.

Mamarajabova Zulfiya Norboyevna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Xaitov Oybek Eshboyevich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Abdurahimova Farida Yo'ldoshevna - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti

Narzikulova Firuza Batirovna - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor. Samarqand Davlat Universiteti.

“SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI – 17.00.00”

Gil Dj. Steyn - Chikago madaniy merosni saqlash markazi (C3HP) direktori, Chikago universitetining Yaqin Sharq arxeologiyasi professori, Qadimgi madaniyatlarni o'rganish instituti (ISAC) (AQSh).

Karimova Nigora Ganiyevna – san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti.

Ruslanova Rida Raisovna - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent, Boshqirdiston Respublikasi Milliy muzeyi.

Axmedova Nigora Komilevna - san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor. O'zbekiston davlat san'atshunoslik instituti.

Li Kon-Uk – Moskva davlat universiteti antropologiya va etnografiya fanlari nomzodi (PhD). Koreya Respublikasi milliy etnografiya muzeyi, (Koreya).

Aripdjanov Otabek Yusupdjanovich – San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi

Sidikova Mastura Xakberdiyevna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. “Ipak Yo'li” Xalqaro Turizm va Madaniy meros universiteti.

Muxamedova Munisa Sabirovna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

“ARXITEKTURA – 18.00.00”

Ibroximzoda Zafarsho Safo – san’atshunos, muzeyshunos. Tojikiston Respublikasi Milliy tarix davlat muzeyi direktori, (Tojikiston).

Nasimov Abdullo Murodovich – texnika fanlari doktori (DSc), professor. Samarqand davlat universiteti.

Yusupova Mavlyuda Amindjanovna – arxitektura fanlari doktori (DSc), professor. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, San’atshunoslik instituti Arxitektura bo‘limi.

Mamatmusayev Toxir Shaydulloyevich – san’atshunos, arxitektura fanlari doktori (DSc), dotsent. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi.

Ziyayev Abdumannon Abduraximovich – arxitektura fanlari doktori (DSc), professor. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti.

Nurmuxammedova Shoira Zaxidovna – arxitektura fanlari doktori (DSc), professor. Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti.

Xolnazarova Latofat Samiyevna – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

“SOTSIOLOGIYA FANLARI – 22.00.00”

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich – sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi.

Maxkamov Otabek Muxtarovich - yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent. Toshkent davlat Transport universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida.

Umarov Abdusalom Odilovich – sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor. O‘zbekiston davlat madaniyat va san’at instituti.

Sodiqova Shoxida Marxabayevna – sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor. O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi.

Otamurodov Sarvar Sa’dulloevich – sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor. Toshkent moliya instituti.

“SIYOSIY FANLAR – 23.00.00”

Omonov Baxtiyor Axtamovich – siyosiy fanlar doktori (DSc), professor. O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Dadasheva Aqida Abdujabbarovna - yuridik fanlar doktori (DSc), professor. Toshkent davlat Transport universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida mudiri.

Ravshanov Fazliddin Ravshanovich - siyosiy fanlar doktori (DSc), professor. Renessans ta’lim universiteti.

Musayev Mansur Tursunpulatovich – siyosiy fanlar doktori (DSc), professor. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti.

G‘afurov Sarvar Abdurasulovich - siyosiy fanlari doktori (DSc), professor. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti.

Ulug‘ov Abduraim Xamzayevich – Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali.

“ISLOMSHUNOSLIK FANLARI - 24.00.00”

Roshdi Rashed – CNRS faxriy doktori, Tokio va Didro nomidagi Fransiya universitetlarining faxriy professori.

Valter Tega – faxriy professor, Bolonya adabiyot va madaniy meros Maktabi vise-prezidenti.

Islamov Zoxidjon Mahmudovich – islomshunos, filologiya fanlari doktori (DSc), professor, O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi.

Ziyodov Shovosil Yunusovich - islomshunos, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi.

Muxammedov Ne‘matilla – tarix fanlari doktori (DSc), professor. O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi.

Tahririyat manzili: 140100, O‘zbekiston Respublikasi,

Toshkent shahri, Sharof Rashidov 3 uy.

Tel.: (+998 97) 928-09-99.; (+998 97) 393-85-08

E-mail: info@iscience.uz.

Internet tarmog‘ining manzili: <http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich>

ISSN: P –2181-2306, E –2181-2314

EDITORIAL BOARD

Chief Editor

Ismailova Jannat Khamidovna – Doctor of Science in History (DSc), professor. State Museum of History of Uzbekistan Academy Sciences Republic of Uzbekistan

Deputy Chief Editor

Rasulova Durdona Bakhronovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor

Executive Secretary

Kushanova Dilfuza Ubaydullaevna – Head of the editorial and publishing department

“TURKSOY Museum Association”

Javid Movsumlu - “TURKSOY Museums Union” General Coordinator.

Ismailova Jannat – State Museum of History Uzbekistan of the Academy Sciences Republic of Uzbekistan. Museum Director.

Shirin Malikova – National Art Museum of Azerbaijan. Museum Director.

Rashida Haripova - Central State Museum of Kazakhstan. Museum Director.

Bakashova Jildiz – State Museum Republic of Kyrgyzstan. Museum Director.

Ali Haydar Atalar - 15 July Democracy Museum. Museum Director.

Meretgeldi Chariev - National Museum of Turkmenistan. Museum Director.

Emine Emel - Cyprus Turkish History, Culture and National Struggle Museum. Museum Director.

Liudmila Marin - National Gagauz History and Ethnography Museum. Museum Director.

“HISTORICAL SCIENCES – 07.00.00”

Namazova Alla Sergeevna – Doctor of Historical Sciences (DSc), professor. Chief Researcher, Institute of General History of the Russian Academy of Sciences (Russia).

Zaotov Ismet Ablyatifovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, chief researcher of the Institute of Cultural Anthropology, Khazar University (Baku, Azerbaijan).

Gholamriza Amirkhani – Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor. National Library and Archives of the Republic of Iran (Iran).

Khalikova Rakhbar Ergashevna – Doctor of Historical Sciences (DSc), professor. Tashkent State Technical University named after Islam Karimov.

Rasulova Durdona Bakhronovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate professor. State Museum History Uzbekistan Academy Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Qodirova Lutfiya Batirovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate professor. Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan.

“ECONOMIC SCIENCES – 08.00.00”

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich - Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor. Tashkent State University of Economics.

Christo Ananth – Doctor of Philosophy (PhD) in the subject Engineering. Samarkand State University (India).

Teshaboev To'lg'in Zokirovich - Doctor of Sciences in Economics (DSc), professor. Tashkent Institute of Finance.

Richard Woon - Finance and banking expert, Chief Executive Officer & Founder Six Clouds Pte Ltd (Singapore).

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich - Doctor of Sciences in Economics (DSc), Professor. International University of Tourism and Cultural Heritage "Silk Road".

Kadirova Zulaykho Abdukhalimovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor. Tashkent State University of Oriental Studies.

Summera Khalid – Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor. Tashkent State University of Oriental Studies, (India).

Omirtay Amalbek – Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, State Museum of National History of the Republic of Kazakhstan (Kazakhstan).

“PHILOSOPHICAL SCIENCES – 09.00.00”

Nurulla-Khodjaeva Nargis Talatovna – Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), Professor. International University of Tourism and Cultural Heritage "Silk Road".

Nazarov Kiyom Normirzaevich – Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), Professor, Tashkent Institute of Irrigation and Agromelioration Engineers.

Rozmatzoda Qodirqul Ro'zmat o'gli – Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), professor, Fergana Medical Institute of Public Health.

Khaydarov Komil Donaboevich – Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), professor. Uzbek-Finnish Pedagogical Institute.

Samadov Aktam Rafikovich – Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), professor. Samarkand State University.

Nurmatova Umida Jaloliddinova – Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor. Institute of Pedagogy Uzbekistan-Finland.

“PHILOLOGICAL SCIENCES - 10.00.00”

Ibrohimi Khudoyor – Associate Professor, PhD, Department of Persian Language and Literature, Tarbiat Modares University (TMU), Tehran, (Iran).

Sirojiddinov Shukhrat Samariddinovich – Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor. Academician of the New York and California Academy of Sciences. Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after A. Navoi.

Namatov Mirlan Amanovich - Doctor of Oriental Literature, polyglot. Chairman of the Russian Geographical Society of Western Europe and the Middle East (France)

Urinbaeva Dilbar Bazarovna - Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor. Samarkand Regional Centre for Training of Teachers in New Methods.

Makhmudov Fayzkhodja Muzaffarovich - Arabist, orientalist philologist (history of eastern countries), Arabographic textual criticism. Institute of History under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

“PEDAGOGICAL SCIENCES – 13.00.00”

Ibragimov Kholboy Ibragimovich – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor. Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan named after T.N. Kori Niyoz.

Musurmonova Oynisa - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor. The Research Institute ‘Family and Gender’ under the Republican Committee of Family and Women.

Ekaterina Vladimirovna Fedosenko - Doctor of Psychological Sciences, Associate Professor. Private Educational Institution of Higher Education ‘Baltic Humanitarian Institute’ (Russian).

Riskulova Kamola Jummaevna - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor. University of Puchon.

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich - Doctor of Sciences in Pedagogics (DSc), Professor. Samarkand Centre of Pedagogical Excellence.

Abdullaeva Barno Sayfutdinovna - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi.

Mamarajabova Zulfiya Norboevna – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Khaitov Oybek Eshboevich – Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor of the Department of Pedagogy and Psychology at the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports.

Yakubjanova Dilobar Batirovna - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Abdurakhimova Farida Yuldoshevna – PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Research Institute ‘Family and Gender’ under the Republican Committee for Family and Women.

Narzikulova Firusa Batirovna – Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor. Samarkand State University.

“ART SCIENCES – 17.00.00”

Gil J. Stein - Director of the Chicago Center for Cultural Heritage Preservation (C3HP), Professor of Near Eastern Archeology, University of Chicago, Institute for the Study of Ancient Cultures (ISAC)

Karimova Nigora Ganievna - Doctor of Sciences in Art Sciences (DSc), professor. Institute of Art History, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Ruslanova Rida Raisovna - Doctor of Philosophy (PhD) in History, associate professor, National Museum of the Republic of Bashkortostan.

Akhmedova Nigora Komilevna - Doctor of Sciences in Art Sciences (DSc), professor. Leading researcher at the State Institute of Art History of Uzbekistan.

Lee Kun-Wook - PhD in anthropology and ethnography, Moscow State University. National Museum of Ethnography of the Republic of Korea, (Korea).

Aripdjanov Otabek Yusupdjanovich – Doctor of Sciences (PhD) in Art sciences, Senior Scientific researcher. Institute of Art History, Academy of Sciences of Uzbekistan

Sidikova Mastura Khakberdievna – Doctor of Philosophy (PhD) in History, associate professor. International University of Tourism and Cultural Heritage "Silk Road".

Mukhamedova Munisa Sabirovna – Doctor of Philosophy (PhD) in History, associate professor, Kamoliddin Behzod National Institute of Painting and Design.

“ARCHITECTURE – 18.00.00”

Ibrohimzoda Zafarsho Safo – Art historian and museologist. Director of the State Museum of National History of the Republic of Tajikistan.

Nasimov Abdulla Murodovich – Doctor of Technical Sciences (DSc), professor. Samarkand State University.

Yusupova Mavlyuda Aminjanovna – Doctor of Sciences in Architecture (DSc), professor. Academy of Sciences of Uzbekistan, Department of Architecture, Institute of Art History.

Mamatmusaev Takhir Shaydullaevich – Art critic, Doctor of Sciences in Architecture (DSc), associate Professor. Higher Certification Commission of the Republic of Uzbekistan.

Ziyaev Abdumannon Abdurakhimovich - Doctor of Sciences in Architecture (DSc), professor. Academy of Sciences of Uzbekistan, Institute of Art History.

Nurmukhammedova Shoir Zakhidovna – Doctor of Sciences in Architecture (DSc), associate professor. Tashkent University of Architecture and Civil Engineering.

Kholnazarova Latofat Samievna – Doctor of Philosophy (PhD) in History, associate professor. Tashkent State Technical University named after Islam Karimov.

“SOCIOLOGICAL SCIENCES – 22.00.00”

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich – Doctor of Sociological Sciences (DSc), Professor. Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan.

Makhkamov Otabek Mukhtarovich – Doctor of sciences in Law (DSc), Associate Professor. Department of International Public Law, Tashkent State University of Transport.

Umarov Abdusalom Odilovich – Doctor of Sociological Sciences (DSc), Professor. State Institute of Culture and Art of Uzbekistan.

Sodikova Shokhida Markhabaevna – Doctor of Sociological Sciences (DSc), Professor. International Islamic Academy of Uzbekistan.

Otamurodov Sarvar Sadulloevich – Doctor of Sociological Sciences (DSc), Professor. Tashkent Institute of Finance.

“POLITICAL SCIENCES - 23.00.00”

Omonov Bakhtiyor Akhtamovich - Doctor of Sciences in Political Sciences (DSc), Professor. Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan.

Dadasheva Akida Abdujabbarovna – Doctor of sciences in Law (DSc), Professor. Head of the Department of International Public Law, Tashkent State University of Transport.

Ravshanov Fazliddin Ravshanovich - Doctor of Sciences in Political Sciences (DSc), Professor. Renaissance Educational University.

Musaev Mansur Tursunpulatovich - Doctor of Sciences in Political Sciences (DSc), Professor. Institute of Social and Spiritual Studies at the Republican Centre for Spirituality and Enlightenment.

Gafurov Sarvar Abdurasulovich - Doctor of Sciences in Political Sciences (DSc), Professor. Institute of Socio-Spiritual Studies at the Republican Centre for Spirituality and Enlightenment.

Ulugov Abduraim Khamzaevich - Doctor of Philosophy in Political Science (PhD), Termez branch of Tashkent Medical Academy.

“ISLAMIC SCIENCES – 24.00.00”

Roshdi Rashed - an Honorary Doctor of CNRS and Professor Emeritus at the University of Tokyo, Mansoura University and Diderot University of France.

Walter Tega - Professor Emeritus and Vice-President of the Bologna School of Literature and Cultural Heritage.

Islamov Zakhidjan Makhmudovich - Islamic scholar, Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor. International Islamic Academy of Uzbekistan.

Ziyodov Shovosil Yunusovich - Islamic scholar, Doctor of Sciences in History (DSc), Associate Professor, Imam Bukhari International Research Centre under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

Mukhamedov Nematilla – Doctor of Sciences in History (DSc), Professor. Professor. International Islamic Academy of Uzbekistan.

Editorial address: Avenue Sh. Rashidov 3,
Tashkent city, 100029, Republic of Uzbekistan,
Tel.: (+998 97) 928-09-99.; (+998 97) 393-85-08
Email: info@iscience.uz

Internet address: <http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich>
ISSN: P-2181-2306, E-2181-2314.

«International Journal of Intellectual and Cultural Heritage»			
ISSN-E: 2181-2314, ISSN-P: 2181-2306			
Table of Content - Volume 4 No 5 (2024)			
№	Paper Title	Author name	Page number
1.	IMPROVEMENT OF NATIONAL VALUES - A FACTOR IN THE RENEWAL OF SPIRITUAL LIFE	Haydarov Komil Donabaevich, Ochilova Shoiray Sayfiyevna	1-9
2.	NEW HORIZONS OF CO-OPERATION	Hayitov Shodmon Axmadovich, Fayziyeva Feruza Ismatillayevna	10-15
3.	HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS IN NEW UZBEKISTAN-HIGH VALUE	Khairullaeva Dildora Saydullaevna	16-18
4.	THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TRANSPORT LAW OF UZBEKISTAN IN ENSURING STABILITY IN CENTRAL ASIA	Jumaboyev Sapaboy Maksudbekovich	19-22
5.	POETS OF TASHKENT (second half of the 19th - late 20th century)	Peremkulov Jamshid	23-28
6.	METHODOLOGY EDUCATION OF NATIONAL VALUES AND TRADITIONS TO PUPILS THROUGH HISTORY LESSONS	Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	29-32
7.	EMBROIDERY TRADITIONS OF THE NURATA OASIS	Toshmurodov Ravshan Suvanovich	33-37
8.	PURCHASE OF MANUSCRIPTS BY THE POLITICAL AGENT OF THE RUSSIAN EMPIRE	Kholnazarova Latofat Samievna	38-41
9.	PUBLIC YOUTH POLICY AS THE BASIS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT	Saidkulov Nuriddin Akramkulovich	42-45
10.	THE ISSUE OF WOMEN AND GIRLS IN THE MODERN UZBEKISTAN PRESS	Durdimurodova Dilnoza	46-50
11.	SOCIO-POLITICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF THE JADIDS	Kurakhmedov Azamat Erkinovich	51-55
12.	POETIC SCOPE OF PROSODIC MEANS	Khamrakulova Guluzra Dilmuradovna	56-60
13.	THE INFLUENCE OF A CREATIVE PERSONALITY ON AN ASPIRING CREATOR	Ikromitdin Ostonaqulov	61-65
14.	THE HISTORY OF THE PROCESSES OF SYSTEMATIC DESIGN AND USE OF MUSEUM TOURISM FACILITIES IN THE ACTIVITIES OF MUSEUM RESERVES IN UZBEKISTAN (the second half of the XX century)	Mukhamedova Munisa Sabirovna	66-73
15.	STUDY OF SOURCES RELATING TO CENTRAL ASIA IN EUROPE	Durdona Bakhronovna Rasulova	74-79

Haydarov Komil Donabaevich,

Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), professor

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

komilhaydar58@gmail.com

Ochilova Shoiray Sayfiyevna,

Doctor of Science in History (PhD), Associate Professor

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

IMPROVEMENT OF NATIONAL VALUES - A FACTOR IN THE RENEWAL OF SPIRITUAL LIFE

Abstract. This article traces the place of national values in the spiritual life of society as one of the important factors of its renewal, the essence and necessity of improving national values, the interpretation of spiritual values in the work of Eastern thinkers such as Imam al-Bukhari, Hakim at-Termizi, Abu Nasr Farabi, Abu Ali Ibn Sina, Alisher Navoi, and also the relevant conclusions on the topic are outlined.

Keywords. New Uzbekistan, spiritual heritage, national values, spiritual values, improvement of spiritual values, spiritual life of society.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – МАЪНАВИЙ ҲАЁТНИ ЯНГИЛАШ ОМИЛИ

Аннотация. Мазкур мақолада миллий қадриятларнинг жамият маънавий ҳаётидаги ўрни, уни янгилашнинг энг муҳим омилларидан бири эканлиги, миллий қадриятларни такомиллаштиришнинг моҳияти ва зарурати, Имом ал-Бухорий, Ҳаким Термизий, Абу Наср Форобий, Абу Али Ибн Сино, Алишер Навоий каби Шарқ мутафаккирлари ижодида маънавий қадриятлар талқини ҳақида мушоҳада юритилган ҳамда мавзу юзасидан тегишли хулосалар баён қилинган.

Калит сўзлар. Янги Ўзбекистон, маънавий мерос, миллий қадриятлар, диний қадриятлар, миллий қадриятларни такомиллаштириш, жамиятнинг маънавий ҳаёти.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ – ФАКТОР ОБНОВЛЕНИЯ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье прослеживается место национальных ценностей в духовной жизни общества как один из важных факторов ее обновления, сущность и необходимость совершенствования национальных ценностей, трактовка духовных ценностей в творчестве мыслителей Востока как Имам ал-Бухари, Хаким ат-Термизи, Абу Наср Фараби, Абу Али Ибн Сина, Алишера Навои, а также изложены соответствующие выводы по теме.

Ключевые слова. Новый Узбекистан, духовное наследие, национальные ценности, духовные ценности, совершенствование духовных ценностей, духовная жизнь общества.

Кириш (Introduction)

Ўзбекистон ўзининг серқуёш иқлими ва серҳосил заминидан ташқари бой ва бетакрор маънавий мероси билан ҳам фахрлана оладиган ва дунёга машҳур мамлакат. Бундай гўзал мероснинг бардавомлигини таъминлаш, уни келгуси авлодларга етказиш, маънавий тараққиётни жадаллаштириш бугун янги Ўзбекистонни барпо этишнинг ғоят муҳим ва долзарб вазифасига айланди.

Ушбу жараёнда маънавий меросни ўрганиш, кенг тарғиб қилиш ҳамда бугунги авлод – ёшларда унга эҳтиром ва қизиқишни ошириш маънавий эҳтиёжгина эмас, балки долзарб илмий муаммо сифатида юзага келди. Маънавий мероснинг мазмун-моҳиятини белгилайдиган ва жамиятнинг маънавий ҳаётини янгилайдиган асосий омил сифатида миллий қадриятларни такомиллаштириш, унинг илмий-назарий муаммоларини ишлаб чиқиш, ушбу масалага бағишланган илмий тадқиқотлар олиб бориш имкониятларини яратишга алоҳида аҳамият қаратилди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review)

Ўзбекистонни янгилаш ва ривожлантиришнинг маънавий-ахлоқий негизлари ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу негизлар миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро узвий боғланишда, доимо биргаликда, уйғунлашган, муштарақ ҳолда намоён бўлишига асосланган. Уларнинг ҳар иккаласи доимий ўзаро алоқадорликда, ўзаро таъсир жараёнида бўлиб, бири-бирини ҳам мазмунан, ҳам шаклан бойитиб боради. Ушбу тенденция кейинги йилларда илмий-фалсафий адабиётларда тадқиқот объектига айланиб бораётгани бежиз эмас.

Таъкидлаш керакки, мамлакатимизда миллий-маънавий меросни ўрганиш, уни кенг халқ оммаси онги ва қалбига сингдириш борасида кўп ишлар қилинди – кенг кўламда илмий тадқиқот ишлари олиб борилди, бадиий ва илмий, санъат асарлари яратилди, нашрлар йўлга қўйилди, дарслик ва қўлланмаларнинг янги авлоди яратилди, халқаро форумлар ва анжуманлар ўтказиш борасида муайян тажриба тўпланди ва ҳ.к. Бундай эзгу тадбирлар халқаро миқёсда ҳам эътироф этилмоқда. Масалан, ЮНЕСКО Бош директори Одри Азуле хоним таъкидлаганидек, “Маданий мерос – бу авлодлар ва замонларни боғлаб турадиган мустаҳкам ришта. Уни келажак авлодларга етказиш баробарида, бутун дунё аҳли билан ҳам баҳам кўриш мумкин. Шу маънода, Ўзбекистоннинг бу бебаҳо меросни асраш борасида бор имкониятларини ишга солаётгани нафақат шу мамлакат учун, балки бутун жаҳон учун катта аҳамиятга эга”[10.2].

Лекин, шунга қарамадан маънавий меросимизни тарғиб қилишда муаммолар мавжудлиги сезилиб қолмоқда. Ачинарлиси, ёшлар ўртасида бу иш талаб даражасида ташкил этилмаган. Ўқувчи-ёшлар ўртасида олиб борилган кузатишлардан маълум бўлдики, уларнинг муайян қисми маданий меросимизнинг нодир намуналари, миллий давлатчилигимиз тарихига доир воқеалар, халқ ижоди намуналари, миллий ва диний қадриятларимиз тўғрисида етарли тасаввурга эга эмаслар. Бу эса мавзуга доир илмий тадқиқот ва маънавий тарғибот ишлари кўламини янада кенгайтиришга асос бўлади.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Мавзуга доир тадқиқот ишлари илмий билишнинг кузатиш, қиёслаш, анализ, синтез, тарихийлик ва мантиқийлик бирлиги каби усуллари таянган ҳолда олиб борилди. Шунингдек, буюк мутафаккир аждодларимиз меросига доир маълумотларни баён қилишда умумлаштириш усулидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and result)

Миллий тикланиш даврида Ўзбекистонда умуммиллий манфаатларга мос келадиган миллий ва диний қадриятлар ўртасидаги муносабат тамомила янги мазмунга эга бўлди – улар халқимизнинг эҳтиёжлари ва орзу умидларини ифодалади. Агар 1990 йилда Ўзбекистонда 119 та диний ташкилот мавжуд бўлган бўлса [6.57], айти пайтда уларнинг сони 2243 тага етди.

Диний ўқув юртларини кўпайтиришга эътибор қаратилди: истиқлолгача республикада атиги 2 та диний ўқув юрти бор эди, ҳозир улар 15 тага етди. Ҳофизи Қуръонлар сони ҳам кўпайди, юртимизда ҳар йили қорила мусобақасини ўтказиш анъанаси қарор топди. Имом-хатибларнинг билим ва салоҳиятини оширишга алоҳида аҳамият берилди: 1997 йилда уларнинг 4,2 фоизи олий ёки ўрта махсус маълумотга эга бўлса [6.57], ҳозир бу кўрсаткич 85 фоиздан ошди. Янги Ўзбекистоннинг маънавий пойдевори яратилаётган бугунги кунда бундай имкониятларни юзага чиқариш, XXI аср кишисини камол топтиришда улардан самарали фойдаланиш маънавий тарбия жараёнининг муҳим йўналиши ҳисобланади.

“Миллий қадриятларни такомиллаштириш” деган ибора бугун илмий ва оммабоп адабиётларда, кундалик лексиконимизда кенг қўлланиладиган тушунчага айланди ва тобора илмий-фалсафий мазмун ва аҳамият касб этиб бормоқда. Аммо ҳозиргача унга илмий таъриф берилмаган. Бизнингча, ушбу тушунчага шундай таъриф бериш ўринли: “Миллий қадриятларни такомиллаштириш” - жамиятнинг маънавий ҳаёти, унинг табиий-тарихий ривожланиши, ҳаёт шароитлари таъсирида муайян ҳудудда шаклланидиган, халқнинг ўтмиши, маданий мероси, миллий руҳ, миллий тил ва муомала, яшаш тарзи каби умумий жиҳатлар билан тавсифланадиган ва ўзига хос тарзда намоён бўладиган ижтимоий-тарихий мазмун ва моҳиятга эга бўлган жараёндир.

Ушбу тушунча, *биринчидан*, жамият аъзолари онгига турлича тарзда, ўзига хос реаллик сифатида таъсир қилади, *иккинчидан*, жамиятдошларнинг ўзаро муносабатларида, ижтимоий фаолиятида кўзга ташланиб туради, *учинчидан*, бу муносабат, фаолият, мақсад, эҳтиёж ва интилишлар учун маънавий асос бўлиб хизмат қилади.

Миллий қадриятларни такомиллаштириш жамиятни ўзгартиришга хизмат қилибгина қолмай, балки унинг аъзоларини умумбашарий қадриятларга монанд тарбиялашда ҳам ғоят муҳимдир. Инсониятнинг неча асрлик бой тажрибаси мустақил бўлган халқлар ўз “қобигида”, яъни биқик доирада қолиб кетмасдан, ўзга халқларнинг қадриятларидан, илғор тажрибасидан баҳраманд бўлиб, ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйгандагина тараққий этиши мумкинлигини исботлаган. Ушбу ҳақиқатни Ўзбекистоннинг мустақилликка эришгандан кейинги тараққиёт йўлида яққол кўришимиз мумкин.

Мамлакатимизда баркамол авлод тарбияси маънавий тарбиянинг пировард мақсади сифатида белгиланган. Ёшларимизни гўзал хулқли, юксак маънавиятли, ҳам жисмонан, ҳам ақлан, ҳам руҳан соғлом қилиб тарбиялаш уларнинг онги ва қалбига миллий ва умуминсоний қадриятларни қанчалик чуқур ва теран сингдиришга боғлиқ. Бугунги куннинг талаб ва эҳтиёжидан келиб чиқиб, улар Аҳмад Фарғоний, Муҳаммад ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Ибн Сино, Алишер Навоий, Мирзо Улуғбек каби улуғ аждодларимиз меросини ҳам, Шекспир ва Данте, Пушкин ва Сервантес, Гёте ва Байрон, Лев Толстой ва Гюго меросини ҳам ўрганишлари, улардан баҳра олишлари, замонага муносиб, фидойи, баркамол инсонлар бўлиб етишишлари зарур.

Бугун биз халқимиз орзу қилган янги жамиятни барпо этмоқдамиз. “Янги Ўзбекистонни барпо этиш – яқин ва олис тарихимиз, бетакрор ва ноёб маданий бойликларимизни янада чуқур ўрганиб, уларга таяниб, мустақил миллий тараққиёт йўлимизни янги босқичда давом эттириш демакдир”[2.31]. Ҳар қандай янги жамиятнинг пойдевори эскининг бағридан вужудга келади, бу – фалсафий ҳақиқат.

Айни пайтда ўзбек халқининг маънавий ўтмишига тегишли бўлган обидаларини излаб топиш, уларни илмий асосда ўрганиш ва оммалаштириш борасида муайян қийинчиликлар борлигини ҳам эътироф этиш жоиз, албатта. Аввало халқимизнинг маънавий меросига тегишли бўлган сон-саноксиз обидалар Шарқ ва Ғарб мамлакатлари кутубхоналарида, илмий

муассасаларида сақланиб келинмоқда. Буюк мутафаккир аждодларимизнинг бир талай асарлари ҳам шулар жумласидандир.

Илк ўрта асрлар ренессанси даври ҳамда ундан кейинроқ яшаб, ижод этган мутафаккир алломаларнинг мероси билан бир вақтда Юсуф Сарёмий, Абдулҳамид Чўлпон, Абдурауф Фитрат, Ғулом Зафарий, Элбек, Муҳаммадшариф Сўфизода, Хуршид, Сафо Муғанний, Комил Девоний, Носир Саидий, Миёнбузрук Солиҳов, Ғози Юнусов, Саид Ризо Ализода, Маҳмудхўжа Бехбудий каби жаид маърифатпарварларнинг ҳам ижоди кенг ўрганилиб, халққа етказилиши лозим. Ўзбекистонда мустақиллик туфайли вужудга келган эҳтиёж – маънавий меросга муносабат, уни ўрганиш масалалари комплекс тарзда ҳал этилаётгани эътирофга лойиқдир.

Тарихий ва фалсафий адабиётлардан маълумки, Марказий Осиё заминида яшаб, ижод этган мутафаккир алломалар дунё маънавий-маърифий тараққиётига қўшган бебаҳо ҳиссаси билан инсоният тарихида чуқур из қолдирдилар [12.9-13]. Ҳозирги кунда ҳам уларнинг ўзига хос тарихий силсиласида илк ўрта асрларда яшаб ўтган, Шарқ дунёсида биринчи Уйғониш даврининг ёрқин намояндалари бўлган улў мутафаккир аждодларимиз зотлар ўша давр маънавиятининг юлдузлари бўлиб, IX-XII асрлар маданий тамаддунида муҳим ўрин тутганлари, улар Шарқда биринчи Ренессанс даврига асос солганлари жаҳон халқлари томонидан эътироф этилмоқда. Ушбу жараёнда диний ва дунёвий илмларнинг узвий алоқадорликда ривожланиб борганлиги жаҳон миқёсида илмий-фалсафий тадқиқотларнинг муҳим объекти бўлиб қолмоқда.

Шу ўринда ўша даврнинг буюк олими бўлиш билан бирга ўзининг гўзал хулқ-атвори, одамохунлиги, мурувватпарварлиги ва саховатлилиги билан ном қозонган **Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий** (810-870)нинг мероси ҳақида тўхталиш жоиз. У ўз илмий-ижодий фаолияти давомида йигирмадан ортиқ асар яратди [8.15], ўзининг “Ал-жомеъ ас-саҳиҳ”, “Ал-адаб ал-муфрат”, “Ат-тарих ас-сағий” ва бошқа асарларида инсоний фазилатларни улуғлади. Энг ишончли ҳадисларни ажратиб ва табақалаштириб, ал-Бухорий алоҳида китоб яратди. Унинг тўпламига киритилган 7275 та ҳадис фақат мусулмончилик қоидалари ва ислом арконларини ифода этиш билан чекланмайди. Ҳадислар асрлар давомида халқимиз томонидан ардоқлаб келинган кадрятлар – меҳрибонлик, ҳамжихатлик, меҳр-муҳаббат, самимийлик, садоқат, катталар ва аёлларни ҳурмат қилиш, футувват, мурувват, ҳожатбарорлик, ватанпарварлик, ҳалоллик, поклик, меҳнатсеварлик каби инсоний фазилатларни улуғлашнинг бетакрор намунасидир. Китобда яхши билан ёмонни, ҳалол билан ҳаромни фарқ қилиш, ёмон хулқ ва ҳаракатлардан тийилиш каби қимматли панд-насихатлар баён этилганки, улардан фойдаланиш тарбиявий ишимизда ғоят муҳимдир.

Имом ал-Бухорий бобомизнинг бетакрор мероси мусулмон дунёсининг барча мадрасаю дорилфунунларида асосий қўлланма сифатида ўқитилаётганлиги бежиз эмас. Исломшунос олим Убайдулла Уватов таъкидлаганидек, “Дунёнинг қай бурчагига бормайлик, биз - ўзбекистонликларга Имом ал-Бухорийнинг ватандошлари, унинг авлодлари, набиралари - бухорийлар деб катта ҳурмат, алоҳида эҳтиром билан қарайдилар. Бамисоли биз Маккаи мукаррамани зиёрат қилишга интилганимиздек, жумлаи-жаҳонда мўмин-мусулмонлар Имом ал-Бухорийнинг табаррук қабрларини зиёрат қилишга орзумандлар” [9.17].

Ҳадисларни ривоят этиш – юксак шараф бўлиб, ҳар ким ҳам бунга муяссар бўлавермайди. Бу - энг пок, юксак фазилатли инсонларнинг иши. Муҳаддислар ичида энг машҳури бўлган Имом ал-Бухорий бобомиз мероси мусулмон дунёсининг катта мадраса-ю дорилфунунларида ўрганилишига сабаб – айнан унинг бетакрорлигидадир.

Қомусий билим эгаси, ҳакимийа тариқатининг асосчиси **Ҳаким ат-Термизий** (тахаллуси. Асли исми-шарифи Абу Абдуллоҳ ибн Али ибн Ҳасан ибн Башир, тахминан 820-

932, Термиз шаҳри) 28 ёшида ҳаж сафарига зиёратга борган, Балх, Нишопур шаҳарларида Қутайба бинни Саид ал-Балхий, Хизравайх ибн Жалом, Шақиқ ал-Балхий ва бошқалардан таълим олган. Ҳаким Термизийнинг тасаввуфга бағишланган асарларида инсон руҳининг ҳолатлари ва ҳаракати ҳақидаги ғоялар, инстинктларнинг ўз-ўзидан такомиллашуви, риёзат ва қалб покланиши билан боғлиқ фикрлар илгари сурилди ва улар тасаввуфнинг кейинги равнакига таъсир кўрсатган.

Ҳаким Термизий билим чўққисини маърифат ва ҳикмат деб уни қалбдаги “илоҳий нур” билан айнанлаштиради. Илм шариат қоидаларини изоҳлашдан иборат, ирфон эса нарсаларнинг сирли моҳиятини очиб беради ва, натижада, “илоҳий моҳият”га эга бўлади. “Турфа илмларни ўқиб-ўрганиш жараёнида уни эгаллаш мумкин, аммо асл маърифат Аллоҳнинг ўзи ярлакаган зотларгагина насиб бўлади” [5.471]. Термизий ислом оламида биринчи бўлиб авлиёлар ҳақидаги тасаввурни назарий асослаб берди. Авлиёларга ваҳий келмаса ҳамки, улар “илоҳий моҳият”дан воқифдирлар. Бу нуқтаи назар кейинчалик Ибн Арабий томонидан ривожлантирилди.

Термизий валийлиги, доноликка йўғрилган ҳикматлари билан ном қозонгани боис халқ уни “Ҳаким ул-авлиё” деб улуғлаган, тасаввуф илмида обрў қозонган, таълимоти Термиз ҳамда Балхда халқ орасида кенг тарқалган [7.27].

Марксча назарияга кўра фалсафанинг вазифаси оламни ўзгартиришдан иборат. Аслида дунёни ўзгартириш файласуфларнинг иши эмас. Улар оламни тушунтириб беришлари, фозил, адолатли жамиятни барпо қилиш йўллари назарий асослаб беришлари мумкин, холос. Заминимиздан етишиб чиққан мутафаккир аждодимиз Абу Наср Форобий ҳам худди шу йўлни тутган. Абу Райхон Берунийнинг “Ёдгорликлар”и, Ибн Синонинг “Донишнома”си, Хожа Аҳмад Яссавийнинг “Девони ҳикмат”и, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” каби асарларини мутолаа қилган киши демократик жамиятнинг чинакам тамойиллари аслида бизнинг юртимизда яратилганлигига ишонч ҳосил қилиши табиий.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев юртимиздан етишиб чиққан азиз-авлиёлар, буюк мутафаккирлар ҳақида тўхталиб, “Мана кўрдингизми, улуғ боболаримизнинг шарофати, ўлмас номлари, уларнинг руҳи поклари бугун ҳам бизни қандай кўллаб-қувватлаяпти, бизга қандай мадад берапти. Биз мана шундай улуғ алломаларимиз билан, уларни камолга етказган она заминимиз билан ҳар қанча фахрлансак, арзийди”[1.146], деб таъкидлагани фикримизнинг исботидир.

Арасту бир пайтлар юнонларни фалсафий тафаккури юксак бўлгани учун буюк халқ деб атаган эди. Ҳақиқатан ҳам буюк халқ ўзининг мустақил фалсафий тафаккурига, фалсафий маданиятига эга бўлади, ожиз халқ эса бошқаларнинг фалсафий таълимотига эргашади. Тарих ушбу ҳикматнинг нақадар тўғри эканлигини кўп марта тасдиқлаган. Бизнинг юртимизда юз йиллаб ҳукмронлик қилган ёт ғоялар буюк аждодларимиз яратиб кетган фалсафий қадриятларини йўққа чиқара олмади.

Қомусий билим эгаси **Абу Наср Муҳаммад ибн Ўзлуғ ибн Тархон Форобий** (873-950) нафақат Шарқда, балки дунё фалсафа илми тарихида ўчмас из қолдирди. Шарқда “иккинчи муаллим” номи билан машҳур бўлган Форобий фаннинг турли соҳалари бўйича бир юз олтидан зиёд рисоалар яратди. Арифметика, фалакиёт, физика, оптика, кимё, биология, тиббиёт, тилшунослик, мусиқа илмлари билан шуғулланди. Аммо унинг асосий асарлари фалсафа масалаларига бағишланган.

Буюк файласуф Абу Наср Форобий юнон фалсафаси, фани ва маданиятининг чуқур билимдони бўлган. У Афлотун, Арасту, Эпикур, Зенон, Евклид, Птоломей, Порфирий сингари юнон донишмандларининг асарларини таржима қилиб, уларга шарҳлар ёзган. Айниқса

Арастуниги табиат фалсафасига доир ғояларини тарғиб қилишда Форобийнинг хизматлари жуда салмоқлидир.

Ривоят қилишларича, Форобийдан “Кимнинг билими кучлироқ: сеникими ё Арастуники?” – деб сўрашганда, у “Мен ўша замонда яшаб, у билан учрашганимда ва унинг кўлида таҳсил олганимда эди, унинг энг яхши шогирдлари сафидан жой олган бўлардим” [15.188], деб жавоб берган экан. Камтарлик, самимийлик, устозга ҳурмат сингари қадриятлар ўша даврларда ҳам юртимизда улуғланган.

Фозилликни улуғлаган мутафаккирларнинг энг йирик вакили эса Абу Наср Форобий эди. Унинг “Аъроу аҳли мадинат-ул фозила”, яъни “Фозил шаҳар аҳли қарашлари ҳақида китоб” деган машҳур асари жамиятни демократик бошқариш усули, ижтимоий тараққиётда илму урфоннинг ўрни масалаларига бағишланган. Асарда бахт-саодатга эришиш фақат фазилатли жамоа фуқароларига хосдир деб ўқтирилади. Бундай фозил ва баркамол жамиятни фозил ҳукмдор бошқаради. Ҳар қандай одам ҳам ҳукмдор бўла олмайди. Ўн иккита фазилатни ўзида мужассамлаштирган шох бундай жамиятни бошқара олади.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Арасту фалсафасида ҳам ҳукмдорлар олдида ўн иккита талаб қўйилган. Бундай талаблар фақат Форобий ижодидагина эмас, балки улуғ аждодимиз, соҳибқирон Амир Темурнинг “Тузуқлар”ида ҳам учраши эзгу ғоялар тараққиётида ўзига хос тарихий силсила мавжудлигидан далолат беради.

Фозил шаҳар ҳукмдори ғоят етук ва барчага намуна бўладиган, жисмонан ва маънан мукаммал, қобилиятли, сезги органлари тараққий этган, руҳи баланд, фикри соғлом ва теран, сўзга бой бўлиши керак. Етук шаҳар бошлиғи ҳақиқатни севувчи ва унинг учун курашувчи, ёлғоннинг ашаддий душмани, табиатан адолатни яхши кўрувчи ва унинг учун курашувчи, адолатсизлик ва зулмга нафрат билан қаровчи, шижоатли, қаибиятли, мард, бир сўзли, жасур, узоқни кўзлаб қарор қабул қилувчи, доно бўлиши, ҳадик ва иккиланишларга йўл қўймаслиги зарур [4.160]. Мутафаккирнинг фикрича, бирданига шунча кўп фазилатга эга бўлган шахснинг топилиши қийин бўлса, унда шаҳар турли ижобий сифатларга эга бўлган бир неча шахслар ёрдамида идора қилиниши мумкин [4.161].

Бахт-саодатни ҳеч ким ташқаридан тақдим этмайди. У фазилатли шаҳар аҳолисининг ўзига боғлиқдир. Бахтга эришиш учун барча шаҳарларга ўзаро ёрдам берувчи халқ фазилатли, етук халқдир. Барча халқлар бахтга эришиш йўлида бир-бирларига ёрдам берсалар, бутун ер юзи фазилатли бўлади, етук бўлади. Алломанинг бундай фикрлари толерантлик, яъни бағрикенглик фалсафасининг чинакам намунаси.

Форобий фалсафасининг ўзига хослиги шундаки, унинг адолатли, фозил жамият тўғрисидаги фикрлари ахлоқий қарашлари билан уйғунлашиб кетади. У халқларнинг озод ва эркин яшашини, уларнинг ҳаёти зулм ва зўрликдан холи бўлишини, адолатга асосланишини орзу қилади. Инсоннинг маънавий озодлигини асослашга қаратилган бундай гуманистик ғоялар илғор ижтимоий тафаккур тараққиётига буюк ҳисса бўлиб қўшилди. Ўзининг “Фозил шаҳар аҳолисининг қарашлари”, “Бахт саодатга эришув ҳақида рисола” номли асарларида бутун инсонларни ўзаро ҳамкорликка, халқларни тинчликка чақирди, ягона адолатли жамият тузишни орзу қилди. Доимий босқинчиликлар ва урушларга асосланган жамият адолатсиз, жоҳил жамият, деб атади.

Форобийнинг ижтимоий-фалсафий таълимоти кейинчалик ал-Беруний, Ибн Сино, Ибн Рушд, Бахманёр, Низомий, Саъдий, Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Мирзо Абдулқодир Бедил, Иқбол, Аҳмад Дониш ва бошқа улуғ мутафаккирлар ижодида ҳар томонлама ривожлантирилгани, бир сўз билан айтганда, Шарқ фалсафаси хазинасига бебаҳо жавоҳир бўлиб қўшилгани айтиш ҳақиқатдир.

Аслида инсон ҳақида қайғуриш, миллат дардига дармон бўлиш, мурувват кўрсатиш халқимизга азал-азалдан хос бўлган хусусиятдир. Бунга илк Ренессанс даврида буюк аждодларимиз, хусусан машҳур табиб, шоир, аллома, файласуф **Абу Али Ибн Сино** (980-1037) ижодий мероси орқали ишонч ҳосил қилиш мумкин. Улуғ мутафаккир аждодимиз Ибн Синонинг ғоят улкан илмий мероси жами 450 дан ортиқ асарлардан иборат бўлиб, бизгача улардан 160 га яқини етиб келган [3.67]. Кўплаб асарлари шаҳарма шаҳар кўчиб юриш, феодал уруш, турли фалокатлар туфайли йўқолиб кетган. Лекин “Китоб ал-қонун фитт-тиб” (Тиб қонунлари), “Китоб уш-шифо” (Даволаш китоби), “Китоб ул-инсоф” (Инсоф китоби), “Донишнома” ва бошқа асарлари орқали инсоний муносабатлар равнақига катта таъсир кўрсатди. Унинг илмий мероси бўйича бутун дунёда кенг қўламда илмий тадқиқот ишлари олиб борилади, буюк мутафаккир алломанинг асарлари дунё ҳакимлари ва табиблари учун қўлланма бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Қомусий билим эгаси бўлган Ибн Сино фанларнинг жуда кўп соҳалари билан шуғулланди. Айниқса табобат унинг илмий соҳалари ичида энг муҳимидир. Тиббиётнинг асосий вазифаси, унингча, инсон соғлигини сақлаш, агар касаллик пайдо бўлган бўлса, уни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш ва уларни йўқотиш орқали соғлиқни тиклашдан иборат. Тиб илмида, унинг фикрича, назарий билимлар билан амалиёт ўзаро боғлиқ бўлиши, бир-бирига асосланмоғи зарур, акс ҳолда у ривож топмайди, ўз мақсадига эриша олмайди. Ибн Сино касалликни ўрганиш ва уни даволашда объектив шароит катта аҳамиятга эга эканлиги, муҳитдаги турли табиий нарсалар, сув, ҳаво орқали касаллик тарқатувчи “майда ҳайвонлар” ҳақида фикрларини илгари сурди.

Инсон ақлу заковати, унинг билимдонлигини юксак қадрлаган аллома “Ақл тарозисида ўлчанмаган ҳар қандай билим чин бўлолмайди, демак у ҳақиқий эмас”, деб таъкидлайди [15.197]. Дунёни билиш, илм билан шуғулланиш фақат инсонгагина хос. Инсон ақли нарсаларни ўрганиш, уларнинг моҳиятини билиш жараёнида тобора тиниклашиб, сайқаллашиб боради. Илм ўрганиш жараёнида ақл ҳам бойиб боради.

Жамиятда одамлар бир-бирларига ўзаро ёрдам бериб яшашлари зарур. Жамият кишиларнинг ўзаро келишуви асосида қабул қилинадиган адолатли қонунлар ёрдамида бошқарилиши лозим. Ҳамма бундай қонунларга итоат этишлари, қоидабузарлар эса жазоланиши зарур.

Ўз даврида Шарқ ва Ғарбда “Шайх ур-раис”, “Олимлар бошлиғи”, “Табиблар подшоҳи” номи билан машҳур бўлиб келган Ибн Сино халқ орасида катта обрўга эга бўлди. Унинг ҳақида турли асарлар, ривоятлар, ҳикоялар пайдо бўлди. Айни пайтда Ибн Сино ҳақида дунёда деярли барча тилларда асарлар яратилди.

Инсонпарварлик, инсонлар ўртасида меҳр-муҳаббат ва эзгу ахлоқ талқини кўплаб буюк аждодларимиз, хусусан, **Алишер Навоий** (1441-1501) ижодида ўзининг тақомилига эришди. Навоий асарларидаги асосий эзгу ғоялар шундаки, инсоннинг қар-қиммати унинг мол-мулки билан эмас, балки маънавий қиёфаси, ахлоқий сифатлари билан ўлчанади:

Элга шараф бўлмади жоҳу насаф,

Лек шараф келди ҳаёву адаб.

Шоир нақшбандийа тариқатининг амалий томонларига кўпроқ эътибор берди. Тариқатдаги ҳалоллик, поклик, меҳнатсеварлик, касб-ҳунар эгаллаш, меҳр-шафқат, жавонмардлик, саҳийлик, сабр-қаноат, софдиллик каби қадриятларни ривожлантирди.

Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” (Қалблар севгилиси) асари том маънода кишининг ўз-ўзини тарбиялаш дастуридир. Тавба, қаноат, сабр, камтарлик, одоб Навоий талқинида ўз-ўзини тарбиялаш усуллари. Тавба – инсоннинг нафс қуллигини тарқ этиши, унинг учун

тўғри ҳаётнинг бошланишидир. Қаноат кишининг кўнглига равшанлик олиб киради. Қаноатга одатланган фақирнинг ёвғон умочи олғир бойнинг новвоту ҳолвасидан тотлироқдир.

Навоий иродавий сифатларни ўзида тарбияламай туриб комилликка эришиб бўлмаслигини таъкидлади: сабр – табиб, бадхўр дори, бемор ундан азоб тортади, аммо сўнгида соғлиққа эришади. Тавозеъ ва одоб эгаларига ҳамма таъзим қилади ва ҳурмат билдиради. Одоб уруғини эккан одамнинг ҳосили жавоҳир бўлади. Инсон ўзининг гўзал хулқи ва одоби билан эл ичра обрў топади, бундай одамлар қанча кўпайса, халқлар дўстлиги, уларнинг бир-бирига бўлган меҳр-муҳаббати ҳам борган сари ривож топаверди. Манманлик, ўзига бино қўйиш бахтсизлик белгисидир.

Ҳазрат Навоий таълимотида ҳалоллик, тўғрилиқ, мардлик, мурувват, саховат, сабрлиқ, хокисорлик, садоқат, ҳаё, ибод, тавозеъ каби маънавий қадриятлар улуғланди, улар худбинлик, иккиюзламачилиқ, мактанчоқлик, ҳасадгўйлик, тамагирлик, кибр, шаҳвоний нафсга банда бўлиш, маишатпарастлик, фисқи-фасод каби иллатларга қарши қўйилди.

Ҳазрат Алишер Навоийнинг вазир сифатида ўз ижтимоий идеалини ҳаётга татбиқ этишга ҳаракат қилганлиги тарихдан маълум. Унинг ташаббуси билан кўплаб бинолар, хонақоҳлар, масжидлар қурилганлиги, ариқ, зовур ва ҳовузлар қазилганлиги, кенг кўламда ободончилик ишлари олиб борилганлиги, унинг илм-фан ва адабиёт аҳлига ҳомийлик қилганлиги, фақирлар, бева-бечораларга меҳрибонлик кўрсатганлиги саховат ва меҳр-оқибатнинг чинакам намунасидир. Бугунги кунда юксак маънавий фазилатларга эга бўлган инсонларни камол топтиришда Ҳазрат Алишер Навоийдек мутафаккир аجدодларимиз ижоди ва фаолияти ғоят муҳим аҳамият касб этади.

Миллий қадриятларни такомиллаштириш – жамият маънавий ҳаётини янгилаш омили эканлигини баён қилиш асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

Биринчидан, мустақиллик даври Ўзбекистонда миллий қадриятлар билан бирга буюк аждодларимизнинг муборак номлари ва бетакрор маънавий мероси ҳаётга қайтганлиги, халқимиз, айниқса ёш авлод улардан баҳраманд бўлиш имкониятига эга бўлганлиги билан аҳамиятлидир.

Иккинчидан, асрлар давом этган мафкуравий тазйиқларга қарамай, ўзбек халқи ўзининг тарихий ва маънавий қадриятларини сақлаб қолди ва бугунги кунда улар бардавомдир. Мустақиллик йилларида аждодларимиз томонидан ўтмишда, хусусан, биринчи ва иккинчи Ренессанс давларида яратилган маданий ва маънавий меросни тиклаш, уни ҳар томонлама ўрганишни йўлга қўйиш давлат сиёсатига айланди.

Учинчидан, миллий қадриятларни такомиллаштириш - маънавий тараққиётда бой берилган имкониятлардан фойдаланиш, маънавий мерос ва барча моддий бойликларни миллий ривожланишга йўналтириш жараёнининг таркибий қисми сифатида мустабид тузум даврида ўзининг маънавий қадриятларидан мосуво бўлган халқнинг мустақил тараққиётга бўлган умуммиллий ҳаракати сифатида тушуниш мумкин.

Мустақилликни қўлга киритган ҳар қандай халқ, мамлакат алоҳида ҳолда тараққий этмаслиги, балки бошқа халқлар билан ўзаро алоқадорлик ва ҳамкорликда ривожланиши, улар томонидан тўпланган қадриятлардан, илғор тажрибалардан оқилона фойдаланган тақдирдагина тараққий этиши мумкинлиги маънавий ҳаётни бойитувчи муҳим омилдир. Мамлакатимиз маънавий янгилинишида ушбу омилнинг устувор аҳамияти янада ортиб бориши лозим.

Библиография

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.146.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. - Т.: O'qituvchi MU MCHJ, 2021. – Б.31.
3. Абу Али ибн Сино. Мен англаган дунё. - Т.: “Шарк”, 2015. Б.5; Буюк юрт алломалари / тузувчи ва нашрга тайёрловчи У.Уватов. - Т.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – Б.67.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.160.
5. Ислон. Энциклопедия. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. - Т.: 2017. – Б.471.
6. Йўлдошхўжаев Ҳ., Қаямова М. Ўзбекистон уламолари / Масъул муҳаррирлар У.Алимов, Б.Бобожонов. - Т.: “Movarounnahr”, 2015. – Б.57.
7. Караматов Х. Аскетические и суфийские течения в Хорасане. – Т.: “Фан”, 1991. – С.27.
8. Уватов У. Имом ал-Бухорий // Буюк юрт алломалари - Т.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – Б.15.
9. Уватов У. Ҳадис илмининг султони // Имом ал-Бухорий. Илмий-маърифий тўплам. «Имом ал-Бухорий халқаро хайрия жамғармаси» нашри. - Самарқанд, 1998. – Б.17.
10. Халқимизнинг маданий мероси бизга доимо куч-қувват ва илҳом бағишлайди // “Халқ сўзи”, 2020 йил 15 декабрь.
11. Haydarov, Komil. "Master–student Relations, Importance of Reading Culture and Creative Environment in the Development of Education." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 5, 2020, pp. 4-7, doi:[10.31149/ijie.v3i5.367](https://doi.org/10.31149/ijie.v3i5.367).
12. KOMIL DONABOYEVICH HAYDAROV. (2021). THE IMPACT OF THE NAQSHBANDI PHILOSOPHY ON THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL VALUES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 9–14. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/13>
13. Donabaevich, Haydarov K. "The Role of Continuous Education in the Spiritual Development of the Person." *JournalNX*, 2020, pp. 920-922.
14. Donabayevich, Haydarov K. "Development of Pedagogical Skills is an Important Factor in the Formation of the Cognitive Characteristics of the Teacher." *JournalNX*, 2021, pp. 186-188.
15. Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф (тўпловчи С.Жўраева). - Т.: “Янги аср авлоди”, 2002. – Б.188.

Hayitov Shodmon Axmadovich

Bukhara State University,
Doctor of historical sciences, Professor

Fayziyeva Feruza Ismatillayevna

Centre for pedagogical excellence of the Navoi region,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences, Associate Professor
feruzafayziyeva01@mail.ru

NEW HORIZONS OF CO-OPERATION

Abstract: In this article, practical actions to establish patriotism relations with Uzbeks living abroad in a new historical stage, and the measures taken by the state and the government are observed. Also, an attempt is made to analyze the successful results and some problems in friendly and kinship relations with compatriots abroad.

Keywords: New Uzbekistan, abroad, Uzbek, native, national language, identity, education, study abroad, Compatriots Fund, transformation, return to the country, conception, patriot, immigrant, cooperation, national association.

НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические действия по налаживанию патриотических отношений с узбеками, проживающими за рубежом, на новом историческом этапе, а также меры, принимаемые государством и правительством. Также предпринята попытка проанализировать успешные результаты и некоторые проблемы в дружеских и родственных отношениях с соотечественниками за рубежом.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, зарубежье, узбекский, родной, национальный язык, идентичность, образование, обучение за рубежом, Фонд соотечественников, трансформация, возвращение в страну, концепция, патриот, иммигрант, сотрудничество, национальное Ассоциация.

ҲАМКОРЛИКНИНГ ЯНГИ УФҚЛАРИ

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi tarixiy bosqichda chet ellarda istiqomat qilayotgan o'zbeklar bilan vatandoshlik aloqalarini o'rnatish yo'lidagi amaliy harakatlar, davlat va hukumat doirasida belgilangan chora-tadbirlar haqida mushohada yuritiladi. Shuningdek, xorijdagi millatdoshlar bilan do'stona va qavm-qarindoshlik aloqalaridagi yutuqli natijalar hamda ayrim muammolarni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, xorij, o'zbek, vatandosh, milliy til, o'zlikni anglash, ta'lim, xorijda ta'lim, vatandoshlar jamg'armasi, transformasiya, yurtga qaytish, konsepsiya, vatanparvar, muhojir, hamkorlik, milliy uyushma.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida tarixning turli davrlarida bir qator sabab va omillar tufayli dunyoning o‘nlab mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketgan o‘zbek millatdoshlarimiz vatandoshlik va qavm-qarindoshlik aloqalarini o‘rnatish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida (1991-1992 yillar) sovet hokimiyati davrida “sotqin”, “Vatan xoini” kabi tavqi-la‘natga uchragan, aslida millatparvar bo‘lgan ayrim shaxslar (Boymirza Hayit, Ro‘zi Nazar) O‘zbekiston zaminiga tashrif buyurdilar. Ularni asl Vatani O‘zbekistonda aholi va qarindosh-urug‘lari ehtirom bilan kutib oldi. Hatto germaniyalik o‘zbek muhojiri, taniqli jamiyatshunos, tarixchi olim Boymirza Xayit (1917-2006) O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zoliciga qabul qilindi. 1992-yilda Toshkentda “Yosh vatandoshlarning xalqaro anjumani” [Ёш ватандошларнинг халқаро анжумани қатнашчиларига // “Маърифат” газетаси; 1992.4.11. Ёш ватандошларнинг халқаро анжумани қатнашчиларининг Президент И.А.Каримовга мактуби // “Туркистон” г, 1992. 10.11.] uyushtirilib, xorijdagi o‘zbeklarning tijorat, ilm-fan sohasida yutuqlarga erishgan farzandlari ota-bobolari yurtida yuz ko‘rishdilar. O‘zaro uchrashuv va mulqotlarda do‘stlik, hamdardlik, qavm-qarindoshlik aloqalari borasida dadil qadamlar qo‘yildi. O‘zbek vatandoshlarining O‘zbekiston bilan iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan “El” xalqaro uyushmasi bir muddat faoliyat yuritdi. Ayrim muhojir o‘zbeklar O‘zbekistonga bir yilda uch-to‘rt bor kelib ketish baxtiga muyassar bo‘ldilar. Mustaqil O‘zbekiston tashkil topgan kun ya‘ni 1 sentyabr – Mustaqillik bayrami tantanalarida o‘nlab o‘zbek vatandoshlar ishtirok etishi an‘anaga aylandi. 1976-1992 yillarda faoliyat yuritgan Xorijdagi o‘zbeklar bilan aloqa bog‘lash “Vatan” jamiyati, O‘zbekiston chet ellar bilan do‘stlik va madaniy aloqalar ahamiyati (UzoDKS – 1958-1992 yillar) birlashtirilib, 1992-2017 yillar davomida faoliyat yuritgan “Chet ellar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalar Do‘stlik jamiyatlari Assotsatsiyasi” faoliyat yuritdi. Mazkur assotsatsiyaning “Vatandoshlar bilan aloqa bo‘limi” 25 yil davomida xorijdagi vatandoshlar bilan o‘zaro hamkorlikning ijodiy kechalar uyushtirish, chet ellardagi o‘zbek milliy uyushmalari manzillariga o‘zbek tilidagi ilmiy, publitsistik, badiiy kitoblar yetkazish, san‘at ustalari gastrollarini tashkil etish, teleko‘prik, radioko‘prik ko‘rsatuv va eshittirishlari uyushtirish, o‘zbek milliy kiyim, musiqa asboblari, o‘zbek tilidagi qo‘shiqlar guldastasi to‘plangan gramplastika, videokassetalar taqdim etish kabi ish usullarini doimo takomillashtirib bordilar. [O‘zM.A., M-2-fond, 1-ro‘yxat, 167-yig‘ma jild, 1, 2, 3, 4, 5, 6-varaqlar, 268- yig‘ma jild, 17, 18, 19, 20, 21- varaqlar. O‘z XAMAning joriy arxivi, 2005-yil hisoboti; 3, 4- v, 2011 –yil hisoboti; 11-; 2014-yil hisoboti, 15, 16-va.] Xullas, 2017-2018 yillarga qadar xorijdagi o‘zbeklar bilan o‘zaro aloqalar yo‘nalishida boy tajriba to‘plandi. Biroq o‘zaro munosabatlar spiralsimon tus olib, bu borada goh qizg‘in, goh sokin jarayonlar kelib turdi.

Maqolaning asosiy qismi. O‘zbekistonda demokratik jarayonlarning kuchayishi, inson huquq va manfaatlari yo‘lida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, qonunlarning liberallasuvi, xorij bilan munosabatlardagi yangi tamoyillar xorijdagi vatandoshlar bilan munosabatlarga davlat siyosati darajasida qarash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, yangi O‘zbekiston sharoitida

2017-2018 yillardan boshlab xorijdagi o‘zbeklar bilan o‘zaro munosabatlardagi yangi bosqich boshlandi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi” tashkil etilib, ushbu qo‘mitaning huzuridagi o‘zbek vatandoshlari bilan aloqa deportamenti o‘z faoliyatini yangicha tarixiy sharoitda yo‘lga qo‘ydi. Mazkur qo‘mita 2017-2023 yillarda ibratli ishlarni olib borib, yetarlicha tajriba to‘pladi [Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022 hisobotlari; -B. 15. 16; -B. 17-19, -B. 21-28; -B. 20-22.].

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisga murojaatlarida (2019, 2020, 2022 yillar) xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni

mustahkamlash, ularning intellektual salohiyatidan foydalanish, chet el o'zbeklari diqqatini O'zbekistonga qaratish, muhojirlikdagi o'zbeklarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash kabi masalalarni dolzarb qilib qo'ygani alohida e'tiborga loyiqdir.

Bu yo'nalishdagi vazifa va muammolarni optimal hal etish, davlat siyosati asoslarini yaratish maqsadida: "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktyabr PQ-3982-sonli qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo'ldi. 9 banddan iborat ushbu qarorda istiqbolda xorijdagi vatandosh o'zbeklar bilan amalga oshirishi kerak bo'lgan dolzarb maqsadli strategik jihatlar belgilab berildi [Xalq so'zi, 2018.27.10].

Prezident qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat Konsepsiyasi" qabul qilindi. Olti bobdan iborat "Konsepsiya"da O'zbekiston Respublikasining o'zbek vatandoshlar bilan hamkorligining asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari, iqtisodiyot, madaniy-ma'rifiy, ilmiy, axborot almashish yo'nalishlaridagi aloqalari, ularni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish choralari aniq qilib belgilab qo'yildi [https://lex.uz/docs/4022649]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakat tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlariga to'xtalib o'tar ekan: "Yettinchidan, dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarimizni yanada mustahkamlash maqsadida "Vatandoshlar" jamg'armasini tuzishimizni taklif etaman" [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi/ Xalq so'zi, 2022.29.12.] – degan edi Oliy Majlisga murojaatida.

Prezident taklifi va tashabbusi bilan ko'p o'tmay "Vatandoshlar" jamg'armasi tashkil etilib, uning fondiga 300 mlrd so'm miqdorida mablag' ajratildi. 2021-yil 11-avgustda Prezidentning tegishli qarori bilan "Vatandoshlar" jamoat fondi tashkil etilgandi.

Xorijda istiqomat qilayotgan o'zbeklar ikki guruhga bo'linib, ular orasida o'zi istiqomat qilib turgan mamlakat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mavjud. Ayrim tarixiy raqamlar murojaat qilsak, bu boradagi fikrlarimiz yanada aniqlanadi.

Xorijda yashab, umrguzarolik qilib yurgan O'zbekiston fuqarolarining soni taxminan 2,5 mlndan ortiq bo'lib, jumladan, Rossiya Federatsiyasida – 1,5 mln, AQShda – 300 ming (ayrim ma'lumotlarda 100 ming), Qozog'istonda – 140 ming, Evropa davlatlarida – 50 ming, Janubiy Koreyada – 70 ming, Qirg'izistonda – 13 ming, Tojikistonda – 5 ming, Yaponiyada esa – 4 ming nafarni tashkil etadi [Xalq so'zi, 10.07.2020]. Xorijiy davlatlarga o'zbeklar mehnat migrantlari, grin-karta yutish, yaxshi hayot izlab, sayyoh, talaba bo'lish kabi omillar orqali borib qolganlar. Ularning ko'p sonlisi mehnat migrantlari hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda o'zbekistonlik talabalar ham oz sonli emas. 2021-2022 o'quv yilida O'zbekistonning xorijdagi talabalari 49 ming nafardan ortiq edi. Mamlakatlar bo'yicha o'quvchi va talabalar nufuzi taqsimlanadigan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida – 17 ming 488 ta, Qozog'istonda – 17 mingta, Janubiy Koreyada – 100 mingta, Evropa davlatlarida – 1000 ta, Polshada – 1600 ta, Yaponiyada – 700 tani tashkil etgan [Xalq so'zi, 10.07.2020]. Bundan tashqari ayrim Sharq mamlakatlarida ham O'zbekiston fuqarolari talaba sifatida tahsil olib kelayotganligini nazardan qochirmaslik kerak. 2018-yildan boshlab O'zbekiston xorijdagi o'zbeklar bilan aloqalarni mustahkamlash bilan bog'liq yo'nalishlardan keng foydalanish choralarini ko'rib kelmoqda, yangi ish uslublari shakllanmoqda.

Ayniqsa, chet ellardagi O'zbekiston elchixona va vakolatxonalar orqali munosabatlar yangi tarixiy bosqichga ko'tarildi. 2018-2021 yillarda elchixona va vakolatxonalar xorijda o'zbeklar ishtirok etgan 700 dan ortiq tadbirlar tashkil etdi. Ushbu tadbirlar turli tuman shakllarda bo'lib, uchrashuvlar, davra muloqotlari, O'zbekiston tarixi, madaniyati haqidagi taqdimot va ko'rgazmalar, brifinglar, videokonferensiyalar, konsert, teatr tomoshalari sifatida o'zbek vatandoshlarning jipslashuviga

xizmat qildi. Albatta vakolatxonalarning tadbirlari xorijdagi o'zbeklarning milliy-madaniy uyushmalari va jamiyatlari, turli markazlari orqali tashkil etildi. O'zbek vatandoshlarning G'arb va Sharq davlatlarida, qo'shni Markaziy Osiyo mamlakatlarida 100 dan ortiq milliy uyushmalari mavjud bo'lib, birgina Evropaning 17 ta mamlakatlarida 30 dan ortiq jamoat birlashmalari faoliyat yuritib kelmoqda [<https://www.xabar.uz/uz>]. AQShdagi Abdulla Xo'ja raislik qilayotgan Turkiston Amerika Assotsiyasi (TAA, 1958-yilda tuzilgan); Istanbul (Turkiya)dagi Akbar Yassa boshqarayotgan "O'zbeklar jamiyati" kabilarning ta'sir doirasi keng. Ushbu uyushmalar O'zbekistonning AQSh va Turkiyadagi elchixonalari bilan yaqin aloqa o'rnatganlar.

O'zbeklar zich bo'lib istiqomat qilayotgan davlatlarning o'nlab shaharlarida o'zbekiston Respublikasi diplomatik va konsullik vakolatxonalari ochish ham vatandoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, vatandosh Janubiy Koreya davlati o'zbek mehnat migrantlari ko'p sonli bo'lgan mamlakat hisoblanadi. O'zbeklar oqimining aynan Janubiy Koreyaga kuchayishida ushbu mamlakat bilan O'zbekiston o'rtasidagi ko'p tomonlama iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalarida shartnomalar tuzilganligi va bitimlarning izchil amalga tadbiriq qilib borish omili muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, Janubiy Koreya bilan do'stona aloqalar yuqori bosqichga ko'tarilgan bo'lib, mehnat migrantlari ishlashlari uchun nisbatan qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Uchinchidan, mehnatga to'lanadigan ish haqining yuqoriligi kabi omilni ham e'tibordan qochirmaslik kerak. To'rtinchidan, mamlakatlararo munosabatlarning umuminsoniy tamoyillari asosidagi qonun-qoidalarga amal qilish bilan bog'liq jihatni hisobga olish kerak. Shu sababli J.Koreyada O'zbekistonning "Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi" vakolatxonasi faoliyat yuritadi. Rossiyada elchilik, konsullik muassasalari huzurida "maslahat kengashlari" tashkil etilgan holda, bu borada Turkiya Respublikasi, Latviya va Fillandiya bilan olib borilayotgan muzokaralar hal qiluvchi bosqichga kirgan.

Xorijdagi vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga ularga keng imkoniyatlar yaratish, O'zbekistonda bo'lish, mol-mulkka egalik qilish kabi imtiyozlar ham berilmoqda. 2018-2022 yillarda xorijdagi o'zbeklarni moddiy qo'llash maqsadida 200 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi. Shuningdek, ularga O'zbekistonga kelib-ketish uchun 2-3 yillik ya'ni uzoq muddatli viza (chaqiruv) ruxsati berish, viza to'lovlarini 3 barobar kamaytirish choralari ko'rildi va bu borada ishlar davom ettirilmogda. Hukumat tomonidan "Vatandosh guvohnomasi" joriy etilib, bunday guvohnomaga ega bo'lganlar O'zbekistondan ko'chmas mulk xarid qilish, mulkini sotish va sotib olish huquqini qo'lga kiritadi. "Vatandosh guvohnomasi" sohiblari O'zbekistonda ta'lim va tibbiyot sohalaridan foydalanishda o'zbekistonliklar bilan birdek huquqni hamda vakolatga ega bo'lishlari muhimdir [<https://daryo.uz/2023/06/23>].

Xorijdagi vatandoshlar orasida O'zbekiston o'zbeklari bilan chet el o'zbeklari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash yo'lida fidokorona harakat qilayotgan, xorijiy o'zbeklarning milliy o'zligi, milliy birligi yo'lida o'z salohiyatini ayamayotgan, vatandoshlik, milliy til an'analariga sodiq qolgan yurtsevar shaxslar soni ham anchagina salmoqni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev AQSh, Turkiya, Germaniya safarlarida ushbu mamlakatlardagi o'zbek vatandoshlarning jamoalari bilan uchrashuvlarida ajdodlar vatani O'zbekistonga xayrixoh, mehr-oqibatli o'nlab yurtdoshlarimiz bilan sidqidildan muloqotlar tashkil etib kelmoqda. Bu kabi o'zbeklarning milliy til, milliy qadriyatlarimizni asrab avaylash, o'zbek jamoalarini jipslashtirish, himoyaga muhtojlarga moddiy yordam ko'rsatish, ma'naviy darddoshlik ko'rsatishdagi xizmatlari ham Prezident va hukumatimiz tomonidan taqdirlanganini qayd etish o'rinli bo'lardi. 2018-yil 11-dekabrda AQShdagi Turkiston Amerika Assosiasiyasi (TAA) Prezidenti Abdulla Xo'ja Amerika o'zbeklarini jipslashtirishdagi xizmatlari uchun Prezident farmoni bilan "Do'stlik" ordeni egasiga aylandi. 2018-yildan 2023-yilgacha AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy kabi mamlakatlarda istiqomat qiluvchi 20 nafar o'zbek vatandoshlar O'zbekistonning yuksak davlat

mukofotlari bo'lgan "Do'stlik" ordeni, shuningdek, "Shuhrat", "Kelajak bunyodkori" medallari bilan taqdirlandi [https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/xorijdagi_vatandosh].

Xorijdagi o'zbek vatandoshlar bilan ma'daniy-ma'rifiy aloqalarni, do'stona munosabatlarni yuksalishida 2017-yildan boshlab faoliyat yuritib kelayotgan "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi" faoliyati ham muhim bo'lmoqda. 2018-2023 yillarda mazkur qo'mita tomonidan xorijdagi o'zbeklarning milliy-madaniy markazlarga 30 mingtadan ortiq kitob, darslik, o'quv-qo'llanma, gazeta va jurnallar yetkazib berildi [https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/xorijdagi_vatandosh]. Vatandoshlarning milliy uyushmalari, ular yo'l boshchi va boshqaruvchilari bilan delegatsiya almashuvlari, xorij o'zbek jamiyatlariga o'zbek milliy kiyimlari, milliy musiqa asboblari, ilmostrativ jurnal, O'zbekiston haqida xabar beruvchi rangli, albom-kitoblar yetkazib berish kabi an'anaviy ish usullari davom ettirilmoqda. Biroq qo'mitaning faoliyati davrning tez kechayotgan jarayonlardan ortda qolayotganligi, ish uslublarini tashkillashtirishda tashabbuskorlik yetishmayotganligi ko'zga tashlanadi. Qo'mita a'zolari va xodimlarni xorijdagi o'zbek vatandoshlar ichiga faol kirib borishi, tashviqot va targ'ibotni kuchaytirishni zarur deb hisoblaymiz.

Xorijdagi O'zbekiston fuqarolari, ayniqsa, intellektual salohiyatga ega bo'lgan, iqtisodiyot, muhandislik agro-sanoat, ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalaridagi yetakchi mutaxassislarning diqqat-e'tiborini O'zbekistonga qaratish borasida sezilarli siljishlar mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2020- yilda O'zbekistonda rahbarlik va mas'ul vazifalarda xalq xo'jaligi turli sohalarida 130 nafar xorijdan kelgan o'zbek vatandoshlar faoliyat yuritishgan. Turli davrlarda xorij mamlakatlarida faoliyat yuritgan 10 nafardan ortiq malakali shifokorlar o'zbek vatandoshlar O'zbekistonga qaytishdi. Ular asosan poytaxt Toshkent shahri va viloyatlardagi ayrim shaharlarda aholi salomatligini saqlashda xizmat qilib kelmoqda [Xalq so'zi, 10.07.2020].

Har bir millatning qaysidir millatga mansubligi uning milliy tili, milliy o'zlik, milliy urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarni qay darajada saqlab qolishga bog'liq. O'tgan asrning dastlabki o'n yilliklarida ko'zda yosh va alam bilan asl vatani O'zbekistonni tark etgan vatandoshlar xorijda o'zlikni, o'zbekchilikni saqlab qolishga harakat qildilar. Ular jamoatchilik yo'li bilan mablag' to'plash orqali o'z farzandlari uchun o'zbek tili va yakshanbalik maktablari ochdilar, o'zlarining oralaridan ziyoli kishilarni milliy til maktablarida o'qituvchilikka yolladilar. Oilalarda o'zbek tilida muloqot qilish yozilmagan qonunga aylangan edi. Oila tutish, hatto hovli bunyod etishda ham "buxorocha", "samarqandcha", "marg'iloncha", "qo'qoncha", "xorazmcha" an'analar saqlanib qoldi. Ayniqsa, peshayvonli, so'ri (krovat)lar qo'yilgan hovlilar o'zbek xonadonini milliy an'anasini eslatib turgan. Vatandosh yo'li ayri tushgan keksa avlod va ularga ergashgan go'dak va o'smir farzandlar (chaqaloqdan 10-16 yoshgacha bo'lganlar) kindik qoni O'zbekistonda to'kilgani uchun "arablashuv", "forslashuv", "turklashuv", "yevropalashuv" xavfidan xushyor bo'lib umrguzaronlik qildilar. Har bir avlodning almashinuvi 25-30 yilda yuz berishini hisobga olsak, 1 va 2 avlod o'zbek tili hamda milliy o'zligini saqlab qoldi. O'zligini unutmastlik uchun millatdoshlar o'zbek tilida kitoblar chop etishdi, O'zbekistondan o'zbek tilidagi tashviqot-targ'ibot xarakteridagi materiallarni olib turishdi.

Uchinchi avlod o'zbeklar O'zbekistondan o'zga mamlakatlarda tavallud topishdi. Ular uchun endi O'zbekiston ota-bobolari yurti sifatida gavdalanadigan bo'ldi. Zamonaviy kasb, ilm, tijorat bilan shug'ullanish uchun "Keksa o'zbeklar"dan farqli o'laroq "yangi o'zbeklar" ingliz, fransuz, nemis, arab, pushtu, fors tillarini o'rgandilar. Ular uchun o'zbek tili faqat tor doiradagi oila tili bo'lib qoldi. Shunday transformatsiyalashuv jarayonida ham xorijdagi o'zbeklar o'zlikni saqlab qolish uchun turli mamlakatlarda istiqomat qilgan vatandoshlar bilan quda-anda tutindilar. Keksa avlod xorijda tavallud topgan nevara va farzandlariga: "Ona tillaringni hech qachon unutmanglar, ajdodlaringni yurti O'zbekiston ekanligini yodda tutinglar" deb nasiyat va vasiyat qilishdan hech qachon to'xtashmadi.

Biroq uchinchi avloddan keyin 4-5-avlodlar almashinuvi tufayli o'zbek vatandoshlar orasida o'zbek tilini yo'qotish, o'zbekona ma'naviyat va madaniyatdan uzoqlashish jarayoni kechdi. Mustaqillik yillarida xorijga chiqib ketgan o'zbeklar ya'ni O'zbekiston fuqarolari o'zbek tilini saqlab qolgan holda, tarixan tarkib topgan muhojir o'zbeklarning keyingi avlodlarida transformatsiyalashuv tez kechib ularning 90 foizi o'zbek tilini yo'qotish xavfi ostida qoldi. O'zbeklarning 4-5-halqa avlodlari turk, nemis, fors, arab, ingliz xonadonidagi ayollarga uylanib, aralash millatli xonadonlar vujudga kelganligini ham qayd etish mumkin. Shunday murakkab tarixiy vaziyatda ayrim o'zbeklar o'z xonadonlarida tavallud topgan farzandlariga ikkita masalan Erik (Erkin), Silviya (Zulfiya), Gadik (G'ayrat) deb qo'ydilar. Bu esa ularni ajdodlari O'zbekistondan ekanligini eslatuvchi birdan bir mujda bo'ldi. O'zbek vatandoshlar bilan hamkorlik aloqalaridagi muhim, dolzarb vazifa: o'zbeklar chet ellarda o'zliklarini asrab qola oladilarmi? Yoxud boshqa millatlarga assimillatsiya bo'lib ketadilarmi? degan savolga javob izlashdir. Chunki, xorijda o'zbek millati vakillari tomonidan yaratilgan madaniyat uchun o'zbek milliy madaniyatning ajralmas bir qismi deb, qaralishi kerak.

Xulosa. O'zbek muhojirligining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqalishi tarixan dalillangan. Muhojirlik ob'yektiv jarayonligi zaruratidan kelib chiqib, mustaqillik yillarida ham bir qator sabab va omillar tufayli 2,5 mlndan ortiq o'zbek vatandoshlar 20 dan ortiq mamlakatlarda istiqomat qilayaptilar. Yangi O'zbekiston sharoitida ko'p sonli xorijlik vatandoshlar bilan hamkorlikning yangi qirralari davlat siyosati darajasida konsepsiya ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan vatandoshlar bilan aloqa bog'lash "Konsepsiyasi" "Vatandoshlar jamoat fondi", "Vatandoshlar jamg'armasi, mehr loyihasi" kabilar joriy etildi. O'zbek vatandoshlar bilan munosabatlarni yanada takomillashtirish bu boradagi vazifalarni bajarish Vatan va millat ravnaqiga xizmat qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаати // Халқ сўзи, 2022 йил 29 декабр.
2. Ёш ватандошларнинг халқаро анжумани қатнашчиларига (Ўзбекистон Президенти И.А.Каримов мурожаати) // "Маърифат" газетаси; 1992 йил 4 ноябрь.
3. Ёш ватандошларнинг халқаро анжумани қатнашчиларининг Президент И.А.Каримовга мактуби // "Туркистон" газетаси, 1992 йил 10 ноябрь.
4. О'zbekiston Milliy arxivi, M-2-fond, 1-ro'yxat, 167-yig'ma jild, 1, 2, 3, 4, 5, 6-varaqlar, 268-yig'ma jild, 17, 18, 19, 20, 21- varaqlar.
5. О'zXAManing joriy arxivi, 2005-yil hisoboti; 3, 4- varaqlar, 2011 –yil hisoboti; 11-varaq; 2014-yil hisoboti, 15, 16- varaqlar.
6. Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитасининг 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022 йиллардаги ҳисоботлари; -Б. 15. 16; -Б. 17-19, -Б. 21-28; -Б. 20-22.
7. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil, 27-oktyabr, 10.07.2020 y,
8. <https://lex.uz/docs/4022649>.
9. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/vatandoshlar-jamoat-fondi-faoliyati-vazifalari-va-rejalar>.
10. <https://daryo.uz/2023/06/23/>.
11. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/xorijdagi_vatandoshlar.....

Khairullaeva Dildora Saydullaevna

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Department of Metrology, technical regulation, standardization and certification

*Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Latofat Kholnazarova*

HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS IN NEW UZBEKISTAN-HIGH VALUE

Abstract. In this article, the issue of human rights and freedoms is covered, which provides brief information about the reforms carried out in our state with the aim of stabilizing social life. In addition, the speech of the head of state at the session of the General Assembly of the United Nations and issues such as its essence and human dignity are covered.

Keywords: man, value, goodness, law, universal, national values, social, justice.

ПРАВА И СВОБОДЫ ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ - ВЫСОКАЯ ЦЕННОСТЬ

Аннотация. В данной статье освещается вопрос прав и свобод человека, в которой дается краткая информация о реформах, проводимых в нашем государстве с целью стабилизации общественной жизни. Кроме того, освещается выступление главы государства на сессии Генеральной Ассамблеи ООН и такие вопросы, как его сущность и человеческое достоинство.

Ключевые слова: человек, ценность, добро, закон, общечеловеческие, национальные ценности, социальное, справедливость.

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI – OILY QADRIYAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquq va erkinliklari masalasi yoritilgan bo'lib, unda davlatimizda jamiyat hayotini barqarorlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida so'zlagan nutqi, uning mohiyati, insoniy qadr-qimmatini kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, qadriyat, ezigulik, huquq, umuminsoniy, milliy qadriyatlar, ijtimoiy, adolat.

Introduction

Purpose of the study: In Uzbekistan, there was a study of the implementation of the principle of "State for man", in which the following tasks were established;

- highlighting the formation of human rights, the protection of the rights of the socially vulnerable segments of the population;

- to shape the view of providing a legally grounded answer to logical and problematic questions about human rights, the rights of the socially vulnerable segments of the population.

Methods: - it is illuminated on the basis of the principles of historicism, comparative analysis, objectivity.

Research results: collect information about human rights and freedoms and expand the scope of their case study and research.

Main part: The first radicalized document after the declaration of independence of the Republic of Uzbekistan is the "Universal Declaration of human rights". Every human life is dear and inimitable. Human rights and freedoms are being strengthened by their spiritual capabilities. International law and universal, national values are developing in our state. The fact that human rights in our country are valued not only by law, but also by moral experience in the field of self-realization, goodness, hospitality determines the relevance of the topic. In the current era, the interdependence of the world is increasing day by day. At the same time, in order to study and give a solution to universal problems, the head of our state noted that the principle "the state is for Man" is a criterion for our democratic reforms [1]. Man his interests are valued not only in our country, but all over the world. The general high value was also taken as the basis for the preparation and adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

Therefore, our Constitution is recognized by the international community as a document that meets universal humanitarian and democratic criteria. In it, human rights, all guarantees aimed at its protection, the fact that human interests are superior to the interests of the state, were visible from the first years of our independence. For this purpose, the establishment of a legal democratic state, the equality of all before the law, the service of all reforms to man, the system of social protection were well established. The second section of the New Uzbekistan Constitution, Chapter 5, Article 19 of the New Uzbekistan Constitution, recognizes and guarantees the rights and freedoms of a person in the Republic of Uzbekistan in accordance with the generally accepted norms of international law and in accordance with this Constitution. Human rights and freedoms will apply to everyone from birth.

In the Republic of Uzbekistan, all citizens have the same rights and freedoms and are equal before the law, regardless of gender, race, nationality, language, religion, social status. (old ed: article 18 states that all citizens in the Republic of Uzbekistan have the same rights and freedoms and are equal before the law, regardless of gender, race, nationality, language, religion, social status.

Benefits are established only by law and must comply with the principles of social justice [2].

Benefits are established only by law and must comply with the principles of social justice [3].)

At the moment, more than 80 international human rights documents have been added to Uzbekistan, including 7 main UN treaties and 4 Optional Protocols. The large – scale reforms carried out in our country are changing the lives of our people, they are confidently moving towards the goal of "building a new Uzbekistan together". Because it is important that the priorities of socio-economic

development developed by our president are focused on the guarantee of human rights and freedoms. It is not for nothing, of course, because in our country noble values have not lost their relevance.

From this, Burhonuddin Marghinani, one of the great jurists of the East, who lived more than 9 centuries ago, in his work “Hidoya”, the illumination of mental evidence among legal or illegal arguments in the process of interpreting legal issues is studied in the Muslim world, as the most important and perfect source of the Hanafi sect[4]. It is noted that Islam is a contributing factor in the development phase of ideological and ideological struggles in the world, peaceful resolution of religious fanaticism, a new view of Islamic Science, socio-legal relations between society and man. The head of our state, in front of the world community, noted that “Islam calls us to goodness and peace, to preserve the original human qualities”[5]. At the same time, it is no coincidence that the participants of the session were offered to adopt a special resolution of the UN General Assembly called “Enlightenment and religious tolerance” of course. The purpose of this is to determine tolerance and mutual respect, to ensure freedom of religion, to protect the right of believers, to prevent their discrimination. In this regard, the decree of the president of the Republic of Uzbekistan “on approval of the national strategy of the Republic of Uzbekistan on Human Rights”, adopted on June 22, 2020, takes work in this area to a new level. According to 13 decrees passed in recent years on the pardon of persons who committed crimes on the example of human rights protection work in our country, more than 4 thousand people were freed from their place of punishment. Also, the closure of the penal colony in the Jasliq fortress is a sign of how high humanity is being implemented in our state.

It is worth mentioning Uzbekistan-the main goal of the state to live a free, peaceful and prosperous life, regardless of the language, religion, every person living in our country with the aim of “leaving no one out of attention”, in view of the rights and interests of each person, even for the purpose of Sustainable Development, which was intended until 2030. National development on Sustainable Development has been positively evaluated even by the UN in 2022, 2023. Because the poverty rate rose from 34.4% to 14.1%, social benefit recipients from 0.8% to 1.7%, and the proportion of age pensioners from 7.2% to 8.7% to have new housing from 43.% to 86.5%. This is due to the superiority of humanitarian principles in our state.

In conclusion, the humanitarian principles implemented in our state regarding human rights and freedoms, people and citizens with a high legal culture in the construction of a new Uzbekistan will achieve high heights in the face of the world community in cooperation, without leaving anyone unnoticed.

Bibliography

1. Mirziyoev. Sh. M. New Uzbekistan development strategy. Uzbekistan.Tashkent.: 2022. 59-p.
2. Costitution Of The Republic Of Uzbekistan.Tashkent – “legal literature Publish” - 2023.12-p.
3. Costitution Of The Republic Of Uzbekistan. Tashkent: “Uzbekistan” -2019. 9-p.
4. Burhouddin Marghinani. “Hidoya” Sharh bidoyatil mubtadi (Uzbek explanatory-academic translation). Hilol. Tashkent-2022. 23-p.
5. President Of The Republic Of Uzbekistan Sh.Mirziyoev’s speech at the 72nd session of the UN General Assembly // “Ma’rifat”, 2017. September 20.

Jumaboyev Sapaboy Maksudbekovich

Tashkent State University of Railway Transport

Lecturer, Department of Public International Law

sapaboy.jumaboev@mail.ru

Published under peer review:

Doctor of sciences in Law (DSc), Professor

Dadasheva Akida Abdujabbarovna

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TRANSPORT LAW OF
UZBEKISTAN IN ENSURING STABILITY IN CENTRAL ASIA**

Annotation. This article highlights theoretical and legal ideas and proposals for improving regulatory documents related to the development of the transport sector during the reforms carried out in Uzbekistan. Issues related to the adaptation of the relevant infrastructure to international standards and the improvement of the legislative framework are described.

Keywords: Transport law, development of transport services, international transport corridors, geopolitical conditions, strategy, legal framework, legal documents.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТРАНСПОРТНОГО ПРАВА
УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

Аннотация. В данной статье освещены теоретико-правовые идеи и предложения по совершенствованию нормативно-правовых документов, связанных с развитием транспортной отрасли в ходе реформ, проводимых в Узбекистане. Описаны вопросы, связанные с адаптацией соответствующей инфраструктуры к международным стандартам и совершенствованием законодательной базы.

Ключевые слова: Транспортное право, развитие транспортных услуг, международные транспортные коридоры, геополитические условия, стратегия, правовая основа, правовые документы.

**MARKAZIY OSIYDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA O'ZBEKISTONNING
XALQARO TRANSPORT HUQUQINING O'RNI VA MUHIMLIGI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida transport sohasini rivojlantirishga bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarning takomillashtirishga oid nazariy va huquqiy g'oyalar, takliflar yoritilgan. Unga bog'liq infratuzilmaning xalqaro standartlarga mostlashish va huquqiy asoslarni takomillashtirishga bog'liq masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Transport huquqi, transport xizmatlarini rivojlantirish, xalqaro transport yo'laklari, geosiyosiy sharoit, strategiya, huquqiy asos, me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Kirish (Introduction)

Axborot asrida O'zbekistonda olib borilayotgan keng islohotlar jarayonida geosiyosiy sharoitlarda strategik xususiyatini ildam surish va transport kommunikatsiyasi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mahalliy va xalqaro transport xizmatlarini rivojlantirish, yangi transport yo'llaklarini shakllantirish va rivojlantirish, bu sohani ko'rsatadigan xizmatlar sifatini oshirish kelajakda talab etiladi. Mazkur yo'nalishda, xususan, xalqaro transport yo'laklarini tashkil etishda O'zbekistonning faol ishtiroki diqqatga sazovordir. Zero bu masala yuqorida ta'kidlangandek, hozirgi geosiyosiy sharoitlarda strategik xususiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqillikdan so'ng dengizga chiqish yo'lining mavjud emasligiga qaramasdan, Markaziy, Janubiy, Janubiy-G'arbiy Osiyo, Yevropa hamda Uzoq Sharqning keng hududlariga va bozoriga chiqishga muvaffaq tashkil etishdan ko'zlangan maqsad Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi savdo oqimining ma'lum qismini mahalliy bozorlarga yo'naltirish, mahsulot hajmini oshirish, mavjud soha negizda logistika markazlarini tashkil etish, minglab fuqarolarni ish bilan ta'minlash va bu sohani rivojlantirishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Bilishning aniq usullari yig'indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o'tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o'rganish uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyov shunday deydi: "Hozirgi kunda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog'laydigan Transafg'on transport yo'lagini barpo etish borasidagi dastlabki amaliy qadamlarni tashladik. Bu loyiha ro'yyobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga beqiyos xizmat qiladi".(1). Bu masalaga oid mavzuni avvalroq, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham gap borgan edi. (2)

O'zbekiston jahonning dengiz bandargohlariga chiqish, mahsulotlar raqobatdoshligini saqlab qolish uchun yangidan-yangi transport yo'laklarini barpo etishni tashqi siyosatdagi ustuvor vazifalaridan biri, deb biladi. (3)

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida O'zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish borasida o'rinli hamda kechiktirib bo'lmaydigan muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Shu munosabat bilan BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochishni taklif qildi.(4)

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonning okeanga to'g'ridan-to'g'ri chiqishga imkoni yo'q va dunyoda bunday davlatlar soni 44 tani tashkil qiladi. Ammo ularning 42 tasi bir mamlakat chegarasidan o'tsa, keyingisi okean. O'zbekiston esa buning uchun ikki mamlakat hududini bosib o'tishi lozim. Okeanga chiqish uchun esa eng yaqin yo'l, bu - Afg'oniston orqalidir. Shu ma'noda, bugungi kunda yaqin qo'shnimiz bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish, bu zaminda tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishidan O'zbekiston to'laqonli manfaatdordir.

E'tiborlisi, yuqorida ta'kidlangandek, O'zbekiston tomonidan sa'y-harakati bilan keyingi yillarda Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch, do'stlik hamda hurmat muhiti shakllandi. Maqsad - mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Bu boradagi amaliy ishlar

boshlanib, O'zbekiston mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlariga Afg'onistonni keng jalb etish maqsadida "Surxon - Puli-Xumri" elektr uzatish tarmog'i, Mozori - Sharifdan Hind okeani portlariga chiqadigan temir yo'l qurilishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishga kirishdi. "Bir makon - bir yo'l" loyihasi ham e'tirofqa loyiq. Afg'onistonda barqaror tinchlik o'rnatilishi keng xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni hamda savdo faoliyatini yanada yaxshilaydi. Mintaqa mamlakatlari, xususan, Pokiston va O'zbekiston Afg'onistonga muzokaralar, diplomatiya, muloqot hamda iqtisodiy rivojlanish orqali tinchlik o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda ushbu samarali hamkorlikni huquqiy asoslarini takomillashtirib borish muhimdir(9).

Darhaqiqat, Toshkentning Afg'onistondagi siyosati avval boshdan Kobul bilan "jadal iqtisodiy hamkorlik", transport huquqini va logistika loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, mamlakatning ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali afg'on fuqarolari qalbini zabt etadigan yechim topishga asoslangan edi.(5)

Yaqin tarixda ya'ni 2018-yil mart oyida Afg'oniston bo'yicha yirik xalqaro konferensiya Toshkentda o'tkazilgani afg'onlararo muzokaralarni qayta boshlash uchun platforma bo'ldi va muammolarni diplomatiya orqali hal qilishga undadi. O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan ta'lim hamda xalq diplomatiyasi sohasidagi sa'y-harakatlari ham alohida e'tiborga molik.

O'zbekiston faol tashqi siyosat tufayli mamlakatimiz barcha davlatlar bilan o'zaro manfaatli va do'stona aloqalar yo'lga qo'ymoqda. Jumladan – mazkur jarayonda O'zbekiston – Pokiston munosabatlari, ayniqsa, iqtisodiy, xalqaro huquqiy yo'nalishda yangi sur'at bilan rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin. O'zaro savdo-sotiq nuqtai nazaridan iqtisodiyotlarimiz raqobatchi emas, balki bir-birini to'ldiradi, bunda xalqaro huquqda strategik konsensiya qabul qilish muhim.(8)

Savdo yo'laklariga e'tibor bersak, Pokistonning jug'rofiy joylashuvi O'zbekistonga Arab dengiziga chiqish uchun qisqa yo'nalishni taqdim etadi. Pokiston orqali savdo qilish O'zbekiston uchun dengizga chiqishning eng samarali usuli hisoblanadi. Xuddi shunday, Markaziy Osiyo bozorlari bilan savdo munosabatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan aloqalarni o'rnatish Pokistonning ham asosiy maqsadlaridan biridir. Bu boradagi qator takliflar ikki taraflama faol ko'rib chiqilmoqda. Shu sababli yaqin kelajakda ikki mamlakatni bir-biriga bog'laydigan o'zaro foydali savdo yo'lagini amaliyotga tatbiq qilishga umid bog'lash mumkin. Bizning umumiy dinimiz, tariximiz, an'alarimiz va iqtisodiy manfaatlarimiz yaqin hamkorlikka chorlamoqda. Ajdodlari ming yillar davomida yonma-yon bo'lgan xalqlarni yana bir-biriga yaqinlashtirish, tarixiy aloqalarni tiklash va ularni XXI asrning geoiqtisodiy haqiqatlariga muvofiq tarzda yangilash va xalqaro hujjatlarni qabul qilish vaqti keldi.(6)

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 10-mayda o'rnatilgan va xalqaro huquqlarni rivojlantirishga ta'mal toshi qo'yilgan. Turli darajadagi siyosiy muloqotlar muntazamlilik kasb etgan. Uni izchil rivojlantirish, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar bo'yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirib borish imkonini bermoqda. O'zbekistonning ulkan iqtisodiy salohiyati, geostrategik o'rni, rivojlangan infratuzilmasi Pokiston uchun muhim ahamiyatga ega. Pokiston mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni, dengiz portlariga chiqish imkoniyati, yirik bozori bilan O'zbekiston kelajagi uchun istiqbollidir. Ikki mamlakat xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Shanxay hamkorlik tashkilotiga Pokistonning qabul qilinishi mamlakatlarimizning o'zaro va ko'p tomonlama hamkorligini kelajakda rivojlantirishda yana bir muhim omil bo'ladi. (7)

Xalqaro transport huquqi va shu soha kommunikatsiyasi to'g'risida gap ketar ekan, uning huquqiy asosini takomillashtirish va bu O'zbekiston uchun juda muhim va o'ylantiradigan dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidlash joiz. Shu bois O'zbekiston transport sanoati ravnaqiga strategik ahamiyat berib, milliy va mintaqaviy darajalarda transport infratuzilmasi taraqqiyotiga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, rivojlantirish, shuningdek, uni xalqaro transport

tizimiga huquqiy asoslari ham must bo'lish va rivojlantirish, samarali loyihalar bo'yicha izchil ishlarni olib bormoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xalqaro transport huquqida O'zbekistonning ishtiroki Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlashda va infratuzilmani rivojlantirishda uning iqtisodiy markazlashgan mintaqaga aylantirishda, eng muhimi transport-tranzit markazlaridan biri sifatida mintaqamizning jahon transport xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zamonaviy transport texnologiyalardan foydalanishni xisobga olgan holda universal transport turlaridan foydalangan holda O'zbekistonda amalga oshiriladigan tovarlar, yo'lovchilar va bagajlarni davlatlararo tashishni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishligini e'tiborga olish.

Xalqaro hujjatlarni milliy qonunchiligimizga implimentatsiya qilish va qabul qilish, takomillashtirish xalqaro transport yo'laklari tizimiga integratsiya qilishga doir yangi yondashuv va ustuvor strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish, Markaziy Osiyoning ishga solinmagan keng salohiyatini mamlakatlarimiz va xalqlarimizning umumiy manfaatlari yo'lida safarbar etish oldimizda turgan eng muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. – 2020 yil 29-dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Bir makon, bir yo'l” –manfaatlarimiz mushtarak. // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, T., “O'zbekiston”, 2018 y., 409-bet.
3. O'. Umurzoqov. Global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklari integratsiyasi O'zbekistonga nima beradi? 12.02. 2021 yil Xalq so'zi.
4. Irisbekova Mavluda Narinbayevna. Xalqaro logistik xizmatlar tizimi
5. “Xalq so'zi”, 2021 yil, 12-fevral.
6. “Xalq so'zi”, 2022 yil, 5-fevral.
7. O.Abdurahmonov. Transport yo'laklari – iqtisodiyotning qon tomiri. – “Xalq so'zi”, 2022 yil 26-fevral.
8. A. A. Dadasheva, . (2022). PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(01), 16–19. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume04Issue01-04>
9. A. A. Dadasheva. [Ўзбекистон Республикаси–конституциявий ислохотлар давр талаби](#). Academic research in educational sciences 3 (10), 288-291
10. A. A Dadasheva. [Fuqarolik Huquqi: O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi va xorijiy davlatlar Konstitutsiyalarida](#) . Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 305-311

Peremkulov Jamshid

Head of Department of the Tashkent branch of the State Museum of History of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD), senior researcher
e-mail: peremkulov.j@history-museum.uz

*Published under peer review:
Doctor of Sciences in History (DSc), Professor,
Ismailova Jannat Khamidovna*

**POETS OF TASHKENT
(SECOND HALF OF THE 19TH - LATE 20TH CENTURY)**

Annotation: The article examines the scientific and spiritual activities of Tashkent enlighteners in the late 19th - early 20th centuries, and their reforms in educating generations in the spirit of their traditions. In addition, the article includes scientific discussions about the first Uzbek alphabet put forward by the Jadids. The advanced ideas they put forward, aimed at improving social development and spiritual appearance, are of great importance today.

Key words: jadid, charity society, tutorial book, brochure, periodical, dramaturgy, theater, etc.

**ПОЭТЫ ТАШКЕНТА
(ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - КОНЕЦ XX ВЕКА)**

Аннотация: В статье рассматривается научная и духовная деятельность просветителей Ташкента в конце XIX - начале XX века, и их реформы в воспитании поколений в духе своих традиций. Кроме того, в статью включены научные дискуссии о первом узбекском алфавите, выдвинутые джадидами. Эти передовые идеи, направленные на улучшение общественного развития и духовного облика, имеют большое значение и сегодня.

Ключевые слова: джадид, общество благотворение, учебник, брошюра, периодическая печать, драматургия, театр и т.д.

**TOSHKENTLIK SHOIRLAR
(XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)**

Annotatsiya: Maqolada XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahrida yashab ijod qilgan ma'rifatparvarlarning ilmiy-ma'naviy faoliyati, avlodlarni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash borasidagi islohotlari tadqiq qilingan. Bundan tashqari, milliy taraqqiyparvarlar tomonidan ilgari surilgan dastlabki o'zbek alifbosi haqidagi ilmiy baxs va munozalar ham maqoladan o'rin olgan. Ular tomonidan ilgari surilgan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy qiyofasini yuksaltirishga qaratilgan ilg'or g'oyalari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: jadid, jamiyati xayriya, darslik, risola, matbuot, dramaturgiya, teatr va b.

1. Kirish (Introduction). Rossiya imperiyasi boshqaruvi davrida Turkiston o'lkasida mahalliy aholi orasida diniy va dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda adabiyot va san'at sohalari ham o'ziga xos tarzda shakllandi va rivojlandi. Bevosita o'lka markazi – Toshkent shahrida ushbu jarayonlar jadal tus oldi. Xususan, mahalliy taraqqiyparvarlar sifatida o'lka tarixidan o'rin olgan jadid namoyondalari bir tarafdin xalqni ma'rifatga yetaklash maqsadida yangi usul maktablari tashkil etish bilan cheklanmay, mahalliy davriy mutbuotni shakllantirda jonbozlik ko'rsatdilar. Bunda ular jamiyatdagi asl voqe'likni avom xalqqa ko'rsatish uchun nazmdan tashqari nasr usulidan ham foydalanganliklarini kuzatish mumkin.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bu izlanishlarni shartli ravishda sovet va mustaqillik davri tadqiqotlariga ajratish mumkin. Sovet davri tadqiqotlariga H. G'oziev, B. Qosimov kabi olimlar ilmiy ishlanmalarini qayd etsak, mustaqillik davri uchun H. Ziyoev, D. Alimova, U. Dolimov singari yirik mutaxassislarni e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari, har bir jadid namoyondasi faoliyati bilan bog'liq tadqiqotlar ham amalga oshirilib kelinmoqda.

3. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda qiyosiy, dinamik hamda germeneytik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Har bir tarixiy davrning o'ziga xos tasnifi bo'lib, u bevosita xalq harakatlari, buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari faoliyati bilan bog'liq. O'rganilayotgan tarixiy jarayonlar ham Turkiston mintaqasida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ilm-ma'rifatli ziyolilarning munosabati, ularning mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash usullari tahliliga bag'ishlangan ko'plab izlanishlar jalb etildi.

4. Tahlil va natijalar (Analysis and results). Toshkentda faoliyat olib borgan jadid namoyondalari qatorida A. Avloniy merosi diqqatga sazovor. Uning "Hijron" taxallusi bilan 1904-1905 yillarda davriy matbuot sahifalarida e'lon qilgan she'rlarida mahalliy aholini ilm-fan va ma'rifatga chorlash asosiy g'oya bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, u 1907 yilda "Shuhrat", 1914 yilda "Johil tilindan", "Muhoraba natijasi", 1917 yilda "Hurriyat sharafiga" singari she'rlarini matbuotda e'lon qilgan. Ular orqali muallif imperiya hukumatining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosatini ochib berishga harakat qilgan.

Muallif bu boradagi faoliyatini Turkistonda xususiy gazetalar tashkil etish jarayoni bilan uzviy davom ettirgan. Jumladan, u 1907 yilda o'z hovlisida «Shuhrat» gazetasini bosishni yo'lga qo'ydi. Ammo, gazetaning 10 ta soni chiqqach, imperiya hukumati tomonidan to'xtatilib, tahririyat asbobanjomlari, qog'ozlari musodara qilingan. Lekin A. Avloniy bu boradagi ishlarni sustlashtirmaslik maqsadida A. Bektemirov nomiga «Osiyo» nomli gazetani ro'yxatdan o'tkazishga musharraf bo'lgan. Bu o'zbek milliy matbuotining dastlabki namunalaridan edi.

Shuningdek, A. Avloniy tarbiyaviy ahamiyatga ega risolalar ham yozgan bo'lib, jumladan uning 1913 yilda chop etilgan "Turkiy guliston yoxud axloq", 1917 yilda nashr qilingan "Maktab gulistoni" asarlari [4] Markaziy Osiyoda shakllangan an'anaviy tarbiya usuliga oid Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", N. Xusraviyning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", A. Jomiyning "Bahoriston", A. Navoiyning "Mahbub ul-qulub", A. Donishning "Farzandlarga vasiyat" kabi durdona asarlar qatoridan o'rin olgan [5].

A. Avloniy 1909-1916 yillar davomida «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» deb nomlangan 6 qismdan iborat adabiyot darsligi ustida tadqiqot olib borgan [6]. Ushbu darslikning ahamiyatli jixati boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun sodda va ravon tilda yozilganligida edi.

A. Avloniy dramaturgiya sohasida ham ijod qilgan bo'lib, uning tashabbusi bilan Turkistonda "Turon" nomli ilk teatr truppasi tashkil qilgan [7]. Ushbu truppa tomonidan A. Avloniy qalamiga mansub "Advakatlik osonmi?" (1914), "Pinak" (1915) kabi p'esalari xalq e'tiboriga xavola qilingan. Shuningdek, A. Avloniy tarjimonlik sohasida ham ijod qilgan bo'lib, uning tatar va ozarbayjon tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilgan "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor

oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Xur-hur”, “Jaxolat”, “O‘liklar” kabi sahna asarlari Turkistonda dramaturgiyaning vujudga kelishi uchun tamal toshi vazifasini bajardi.

Shuningdek, bu davrda adabiyot namoyondalaridan Abdulla Qodiriy shaxsi ham e’tibor markazida bo‘lanligini e’tirof etish lozim. Uning “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etgan ijtimiy-iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan maqolalari diqqatga sazovor. Hususan, muallifning 1914-1915 yillarda nashr qilingan “To‘y”, “Fikr aylagil”, “Ahvolimiz”, “Millatimga” kabi she‘rlarida, “Baxtsiz kuyov”, “Xech kim bilmasin” kabi sahna asarlarida, “Juvonboz”, “Uloqda” singari hikoyalarida xalqning savodi, bilimi va ma’rifati kabi masalalar keskin tanqid qilingan.

Bundan tashqari, “Tavallo” taxallusi bilan ijod qilgan toshkentlik To‘lagan Xo‘jamiyorov she‘rlarida ham Rossiya imperiyasi Turkistonda olib borgan siyosati, mahalliy aholining jabr va zulum ostidagi hayoti aks etgan. Shoirning “Ravnaq ul-islom” nomi bilan chop etilgan yagona she‘riy to‘plami bizga ma’lum bo‘lib, uning tarkibidan 70 ga yaqin she‘rlar o‘rin olgan. Ushbu to‘plam 1916 yilda ilk bor, 1993 yilda esa qayta nashr qilingan. Bundan tashqari, Tavalloning mazkur to‘plamidan 1997-1998 yillarda Germaniyaning Bumberg univesiteti turkologiya bo‘limi darslik sifatida foydalanganligi, asarning qiymatini ko‘rsatishi shubhasiz. Mazur to‘plamdan muallifning “O‘z vijdon vujudima xitob”, “Qalamga xitob”, “Tomoshabog‘ xususida” “Yovrupolilar hunari birlan bizlarni(ng) hunarlarimizning farqi”, “Uyonmaz ersa millat”, “Xalqg‘a foydasi tegmaganlar haqinda”, “Jahon ayvonida...”, “Suyukli Vatan haqinda” kabi she‘rlari o‘rin olgan bo‘lib, ular orqali shoir o‘quvchini ma’rifatga, milliy ozodlikka chorlaydi.

Bundan tashqari, shoir u bilan zamondosh tatar, ozarbayjon, turk adiblari faoliyati bilan tanish ekanligini o‘z she‘rlarida namoyon qilgan. Hususan, Tavallo 1913 yilda matbuotda e’lon qilgan «Totor qardoshlarimizning mashhur shoiri marhum Abdulla Afandi To‘qaevning she‘rina tazmin» nomli asari tatar shoiri A.To‘qayning vafotiga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir ushbu asarni A.To‘qayning “Jumla fikrim kecha-kunduz Sizga oid millatim” she‘riga muxammas shaklida bayon qilgan.

Shuningek, Tavallo jadid mutafakkirlari bilan ham yaqin aloqada bo‘lgan. Jumladan, u 1914 yilda jadidlar tomonidan tashkil etilgan “Nashriyot” shirkati faoliyatida, 1915 yilda tuzilgan “Turon” jamiyatida jonbozlik ko‘rsatgan.

XIX asrda Turkistonda faoliyat olib borgan toshkentlik ma’rifatparvarlardan yana biri qori Fazlulloh Mirjalol o‘g‘li bo‘lib, u “Almai” taxallusi bilan ijod qilgan. Almaiy ijodining boshqa taraqqiyparvarlardan farqli tarafi, uning uch tilni (arab, fors va turkiy) mukammal bilganida edi. U dastlab ta’limni Toshkentdagi “Mo‘yi Muborak” madrasasida, so‘ngra Buxoroda davom ettirgan. Madrasa ta’limi asosida fors, arab, turkiy tillarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda falsafa, mantiq, huquq, tib, musiqa, xattotlik kabi o‘nlab bilimlarga ega bo‘lgan adib 1967 yilda Toshkentdagi Shukurxon madrasasiga mudarris sifatida xizmatga kirgan. Keskin fikrlashi tufayli, mahalliy diniy ulamolar bilan ko‘plab ixtilofga borgach, tez orada madrasadan ketishga majbur bo‘lgan. Adib faoliyatini Qo‘qondagi madrasada davom ettirgan, ammo ko‘p o‘tmay u yerda ham ulamolar bilan kelisha olmaganligi sababli, Toshkentga qaytib kelgan.

Shuningdek, Fazlulloh Almaiy arab tilini ham mukammal bilgan. Xatto, adib arab grammatikasiga oid “Sharxi Mullo” “Avzon ul-jumu” (Ko‘plik vaznlari) nomli kitoblar yozgan. Ba’zi arab mamlakatlarida ulardan darslik sifatida foydalanib kelingan.

Bundan tashqari, adib shoirlik sohasida ham qalam tebratgan bo‘lib, xususan uning “Hayot”, “Etti”, “Kelsangchi”, “Yarashur” singari she‘rlarida sevgi va vafo, sadoqat, yaxshilik va halollik kabi fazilatlar ulug‘langan.

Almai ijodining eng yorqin namunasi sifatida tarjimonlik sohasini e’tirof etish lozim. Jumladan, u hind xalqi oltin merosi qatoridan o‘rin olgan “Kalila va Dimna” dostonini fors tilidan

turkiy tilga tarjima qilishga musharraf bo'lgan. Uning tarjimasi "Kalila va Dimnai turkiy" nomi ostida 1898, 1901, 1913 yillarda 3 marotaba nashr etilgan.

Ushbu doston Kashmirda taxminan 1700 yil avval yozilgan bo'lib, qadimiy nomi "Panchatantra" (Besh kitob) edi. Ushbu kitob haqida o'rta asrlarda ijod qilgan Markaziy Osiyolik mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida to'xtalib o'tib, "*Hind xalqi ilmning juda ko'p tarmoqlariga va son-sanoqsiz kitoblarga ega. Ularning hammasini qamrab olish qiyin. Lekin shunga qaramay, bizda «Kalila va Dimna» nomi bilan yuritiladigan hindlarning «Panchatantra» kitobini tarjima qilishni juda xohlar edim. Bu kitobni hindchadan forschaga, forschadan arabchaga va undan so'ng boshqa juda ko'p tillarga tarjima qildilar*" degan ma'lumotni qayd etib o'tganligi asarning qiymatini ko'rsatishi shubhasiz.

Mazkur asar dunyo durdonalari sifatida qadrlanishi bois, tarixan bir necha bor turli tillarga o'girilgan. Hususan, asar VI asrda Eron shohi Anushervoni Odil (531-579) buyrug'i bilan Barzuya ismlik tabib tomonidan paxlaviy (qadimiy Eron) tiliga tarjima qilingan. VIII asr boshlariga kelib, arab tilmochi Abdulla ibn al-Muqaffa' Barzuya nushasi asosida arab tiliga tarjima qilgan. Keyingi davrlarda ushbu kitobning dunyoga tanilishida mazkur tarjimaning ahamiyati katta bo'lgan. Bundan tashqari, 932 yilda Rudakiy tomonidan "Kalila va Dimna" nomli doston yozilganligi turli adabiyotlarda qayd etib o'tilgan. Shuningdek, 1492 yilda ushbu asarning arab tilidan Xusayn Voiz Koshifiy tomonidan fors tiliga tarjima qilinib, "Anvori Suxayliy" nomi bilan amir Shayx Suxayliyg taqdim etgan nushasi ham fanga ma'lum. "Kalila va Dimna" turkiy tilga ilk bor XVIII asrda Muhammad Bakiriy tomonidan Sharqiy Turkistonda o'girilgan bo'lib, keyingi davrlarda qoshg'arlik Mulla Temur tomonidan 1718-1719 yillarda, xorazmlik Muhammadniyoz tomonidan esa, 1837-1838 yillarda bu boradagi ishlar davom ettirilgan. Shu asnoda, bugungi kunda "Kalila va Dimna" asarining Almaiy tarjimasi fanga ma'lum turkiy tildagi tarjimalar orasida to'rtinchisi sifatida e'tirof etilib kelinmoqda. Almaiy tarjimasining boshqa tildagi tarjimalardan farqli tomoni bu asarning yozilish tarixini berilishida edi. Shunga asosan, ushbu asar zotan 13 qismdan iborat bo'lsa-da, Almaiy tarjimasida u 19 qismni tashkil etdi.

Bu davrda ijod qilgan yana bir toshkentlik adabiyot namoyondalaridan biri Haybatullaxo'ja Orifxo'ja o'g'li bo'lib, u "Xislat" taxallusi ostida faoliyat olib borgan. Xislat 16-17 yoshlarida Toshkent shahri Kesaqqo'rg'on mahallasidagi madrasaga o'qishga kirib, arab va fors tillarini mukammal o'zlashtirgan. Shuningdek, u mustaqil ravishda o'zbek, ozarbayjon, turk, fors va arab adabiyotlarini puxta o'rgangan.

1908-1909 yillarda Navoiy ijodini mutolaa qilib, «Farhod va Shirin» hamda «Layli va Majnun» dostonlarining soddalashtirilgan nasriy nusxalarini tayyorlashga musharraf bo'lgan va o'z hisobidan nashr ettirgan. 1910-1914 yillarda madrasadoshi Sidqiy Xondayliqiy bilan hamkorlikda «Armug'oni Xislat», «Hidoyai Xislat», «Savg'oti Xislat», «Tuhfai Xislat» kabi bayozlarini nashr ettirgan.

Bu davrda yozilgan «Naylaram bog'u chaman sayrini jonon bo'lmasa...», «Qandoq qilay...», «Ey nigorim...», «Iqlimi devona qilgan bir pari savdosidur...», «O'ldim asiring, ey yor...», «Ey xublar sarosi...», «Orazingmu yo guli ra'nomidur...», «Ey parivash...» singari g'azallari Xislat qalamiga mansub bo'lib, uning badiiy qurilmasida ham, g'oyaviy yo'nalishida Bobur, Mashrab, ayniqsa, Navoiy ijodi yaqqol aks etgan.

Xislatning adabiy merosida tarjima asarlar ham katta o'rin egallagan. U Nizomiyning «Layli va Majnun», Firdavsiyning «Shohnoma» dostonlari asosida nasrlashtirilgan «Barzuyi sher», «Pahlavoni Ahmad», Ubayd Zokoniyning «Mushuk va sichqon» asarlarini fors tilidan tarjima qilgan. Bundan tashqari, adib arab va fors mumtoz adabiyotidagi kichik yoshdagi o'quvchilar uchun yozilgan rivoyatlar va masallarni she'riy tarjima qilib, «Non va halvo» nomi bilan majmua bitgan.

Rossiya imperiyasi boshqaruvi davrida Turkistonda Sirojiddin Sidqiy nomi bilan mashhur adib ilmiy merosi ham keng qamrovlik bo'lib, u 1884 yilda Toshkent uyezdi tarkibidan o'rin olgan Xondaliq qishlog'ida (hozirgi Bo'stonliq tumanidagi Iskandar shaharchasi) dunyoga kelgan.

Adabiyotlarda qayd etilishicha, muallifning oilasi qashshoq bo'lib, shunga qaramay, uning otasi Mirzohid oxund farzandining kamoli uchun uni Toshkentdagi madrasada o'qishiga barcha sharoitni yaratib bergan. Adib Toshkentdagi Majrasai Rahmatilloh, Beklarbegi, Ko'kaldosh madrasalarida taxsil olib, arab va fors tillarini mukammal o'rgangan.

Tarjimonlik sohasida samarali mehnat qilib, mashhur arab dostoni "Ming bir kecha", Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" singari asarlarni turkiy tilga o'giran.

Madrasa ta'limidan so'ng, adib Toshkentda qolishga axd qilgan. U o'z madrasadoshi Xislat bilan birgalikda ijod qilib, "Shavkat" "Shevan" (nola, fig'on) taxalluslari ostida 1910 yillarda chop etilgan «Bayozi Haziniy», «Bayozi muhallo», «Armug'oni Xislat» kabi ko'pgina to'plamlar yozilishida o'z g'azal va hajviyalari bilan ishtirok etgan. Ushbu g'azal va she'rlarini jamlab 1913 yilda "Tuhfai Shavkat", 1914 yilda "Savg'oti Shavkat" kitoblarini o'z hisobidan nashr qildirgan. Lekin, vaqt o'tgach, muallif barcha asarlarini "Sidqiy" taxallusi bilan qayta chop ettirgan. Xatto, "Devoni Sidqiy" deb nomlangan devon tuzishga ham musharraf bo'lgan.

Bundan tashqari, shoir "Muhoraba" (1914), "Rabo(t)chilar namoyishi yoxud vatan qahramonlari" (1917), "Toza hurriyat" (1917), "Rusiya inqilobi" (1917) singari asarlari orqali o'lkada Rossiya imperiyasi olib borgan mustamlakachilik siyosatini keskin tanqid qilgan. Shuningdek, Sidqiy asarlarining katta qismi xajviya yo'nalishida bo'lib, unda jamiyatda sodir bo'lgan noxaqliklar ustidan kulish orqali xalqning ko'zini ochishga harakat qilinganligi yaqqol aks etgan. Hususan, uning "Dar xajvi toy", "Nikolay yo'lig'a suv sepg'onlarg'a" kabi she'rlari shular jumlasidandir.

Ushbu asarlarida adib mahalliy qozi va ulamolarning poraxo'rliqi, tilyog'lamaligi ustidan xajv qilgani bois, ular 1910 yilda Sidqiyni ushlab rus hukumatiga topshirmoqchi bo'ladi. Ammo, shoir do'stlari yordami bilan Andijonga qochishga musharraf bo'ladi. 1912 yilga qadar S. Sidqiy Andijonda tarjimonlik bilan mashg'ul bo'ladi. Shuningdek, S. Sidqiy 1914-1916 yillardagi Jahon urushiga safarbar qilingan turkistonlik mardikorlik harakatini keskin tanqid ostiga olib, "Muhoraba" she'rini bitadi. Bundan tashqari, uning 1917 yilda yozilgan "Rabotchilar namoyishi", "Rabotchilar kelishi" kabi she'rlari 1916 yilgi qo'zg'olonlarga bag'ishlangan edi.

Bu davrda adabiyot ustalari bilan bir qatorda xajviya sohasida qalam tebratgan san'at namoyondalari ham XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni yoritishda katta xizmat qilganlar. Shunday soha vakillaridan biri, toshkentlik Abdulla fonus bo'lib, u asosan fonus yasab tirikchilik qilgan. Bundan tashqari, u turli yoshdagi kishilarga, qush va hayvonlarga taqlid qilishga ustasi farang bo'lgan. Uning taqlidlari ko'pincha Turkiston jamiyatidagi mustamlakachilik siyosatining achchiq taraflarini kulgi, hajv orqali xalqqa yetkazib berishdan iborat bo'lgan. Shu yo'l bilan u turmushdagi nohaqlik va qusurlarni, xurofotni hajv qilishga muyassar bo'lgan.

5. Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi mustamlakachilik siyosati bir tarafdin jadid ma'rifatparvarlari asarlarida keskin tanqid ostiga olingan bo'lsa, ikkinchi tarafdin o'lkada yetishib chiqqan turli adabiyot namoyondalari asarlarida bu mavzu dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, xajv yo'li bilan ham o'lkadagi ijtimoiy, siyosiy voqe'liklarga mahalliy aholi tomonidan munosabat bildirilganligini kuzatish mumkin.

Shuningdek, bu davrda o'lkada dunyo durdonalari qatoridan o'rin olgan adabiyot na'munalarini mahalliy aholiga yetkazish maqsadida ularni tarjima qilish orqali xalqni ma'rifat yo'liga chorlash borasida ham katta ishlar amalga oshirishga muvaffaq bo'lganliklarini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z MA, I-1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 934-yig'majild, 28-varaq. (National Archive of Uzbekistan (henceforth: NAUz) f. I-7, op. 31, d. 943, l. the other side of 28.)
2. O'z MA. 47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 561-yig'majild, 28-varaq. (NAUz f. I-47, op. 1, d. 561, l. 28)
3. Turkston vilotining gazet. 72-son. 1910. (The newspaper "Turkestan viloyatining gazet" No72, 1910.)
4. Qosimov B. Abdulla Avloniy (Adabiy-pedagogik portret). Toshkent; O'qituvchi, 1979. 10-bet. (Qosimov B. Abdulla Avloniy (Literary-pedagogical portrait). Tashkent: Oqituvchi (publisher). 1979. P.10.)
5. Jumaboyev M. Abdulla Avloniy. URL-adress: <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/abdulla-avloniy/?imlo=k>
6. Abdulla Avloniy (1878-1934). URL-adress: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/>
7. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) [Mas'ul muharrir: M.M. Hayrullaev]. – To'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. 365-bet. (Spiritual stars (famous figures, scholars, writers from Central Asia) [Responsible editor: M.M. Hayrullaev]. – Completed reprint. - Tashkent: A. Qadiri publishing house of the people's heritage, 1999. P. 365)
8. Alimova D. Jadidchilik mustaqillik davri tarixchisi talqinida. // O'zbekiston tarixi: yangi nigoh (Jadidlar haraatidan milliy mustaqillikka qadar) davra suhbat materiallari. Toshkent, 1998. 5-bet. (Alimova D. Jadidism in the interpretation of a historian of the period of independence. // The history of Uzbekistan: new view (From the jadidizm to national independence) the materials of discussion. Tashkent, 1998. P.5.)
9. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: "Sharq", 2005. (Khoji Imatullokh Abdullokh. Islamic civilization in Central Asia. Tashkent: "Sharq", 2005.)
10. Ulug'bek Dolimov. Millat muallimi // "Jahon adabiyoti", 12-son. 2016. (Ulugbek Dolimov. The teacher of the nation. // Journal "Jahon adabiyoti" (World literature). No.12, 2016.)

ISOKOV RAVSHANBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Researcher of Namangan State University

Published under peer review:

Doctor of Science in History, Associate Professor

A.To‘xtaboyev

METHODOLOGY EDUCATION OF NATIONAL VALUES AND TRADITIONS TO PUPILS THROUGH HISTORY LESSONS

Abstract. This article aims to develop a systematic methodology aimed at forming respect for national values and traditions in schoolchildren through history lessons. The article provides a comprehensive approach to increasing students' respect for cultural heritage, incorporating educational theories, innovative teaching practices, and practical examples. The methodology emphasizes interactive and experiential learning, critical thinking, and community participation. Problems and opportunities in the implementation of such a methodology, recommendations for teachers and politicians are discussed.

Keywords. National values, cultural heritage, school students, teaching methodology, curriculum development, integration, integrative.

МЕТОДОЛОГИЯ ВОСПИТАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ УЧЕНИКАМ ЧЕРЕЗ УРОКИ ИСТОРИИ

Аннотация. Целью данной статьи является разработка системной методики, направленной на формирование у школьников уважения к национальным ценностям и традициям посредством уроков истории. В статье представлен комплексный подход к повышению уважения учащихся к культурному наследию, включающий образовательные теории, инновационные методы преподавания и практические примеры. В методологии особое внимание уделяется интерактивному и экспериментальному обучению, критическому мышлению и участию сообщества. Обсуждаются проблемы и возможности внедрения такой методики, рекомендации для учителей и политиков.

Ключевые слова. Национальные ценности, культурное наследие, школьники, методика преподавания, разработка учебных программ, интеграция, интегратив.

TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA MILLIY QADRIYAT VA AN‘ANALARNI SINGDIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida tarix darslari orqali milliy qadriyatlar va an‘analarga hurmatni shakllantirishga qaratilgan tizimli metodologiyani ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilgan. Maqolada ta‘lim nazariyalari, innovatsion o‘qitish amaliyoti va amaliy misollarni o‘zida mujassamlashtirgan holda, o‘quvchilarning madaniy merosga bo‘lgan hurmatini oshirishga har tomonlama yondashish ko‘zda tutilgan. Metodologiya interfaol va tajribaviy o‘rganish, tanqidiy

fikrlash va jamoatchilik ishtirokiga urg'u beradi. Bunday metodologiyani tatbiq etishdagi muammolar va imkoniyatlar, o'qituvchilar va siyosatchilar uchun tavsiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Milliy qadriyatlar, madaniy meros, maktab o'quvchilari, o'qitish metodikasi, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, integratsiya, integrative.

Kirish. Milliy qadriyat va an'analarni e'zozlash har tomonlama barkamol tarbiyaning tamal toshi hisoblanadi. Tarix darslari maktab o'quvchilariga ushbu qadriyatlarni singdirish, ularning madaniy merosi va milliy o'ziga xosligini chuqurroq anglash uchun noyob imkoniyat yaratadi. Ushbu maqola tarix ta'limi orqali milliy qadriyatlar va an'analarga hurmatni kuchaytiruvchi tizimli metodologiyani ishlab chiqishga qaratilgan.[1]

Milliy qadriyat va an'analarning ta'limdagi ahamiyati. Milliy qadriyat va an'alar o'quvchining o'zligini, dunyoda tutgan o'rnini anglashining asosini tashkil qiladi:

Madaniy uzluksizlik: talabalarga o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi.

Mansublik tuyg'usi: o'quvchilarda hamjamiyat va tegishlilik tuyg'usini rivojlantiradi.

Fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik. Tarix ta'limi fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlikni targ'ib qiladi:

Axborotlangan fuqarolik: Talabalarni jamiyatda xabardor va faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Axloqiy va axloqiy saboqlar: tarixiy misollar orqali halollik, mas'uliyat va jamoatga foydali saboqlar beradi.

Nazariy asoslar. Konstruktiv yondashuv faol o'rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi:

O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim: o'quvchilarni izlanish va izlanish orqali o'z tushunchalarini shakllantirishga undaydi.

Hamkorlikda o'rganish: tarixni jamoaviy tushunishni shakllantirish uchun guruh ishlari va muhokamalarni rag'batlantiradi.

Tajribali ta'lim nazariyasi. Tajribali o'rganish tajriba orqali o'rganishga urg'u beradi:

Amaliy mashg'ulotlar: Ekskursiyalar, muzeylarga tashrif buyurish va tarixiy jonli tasvirlardan foydalanadi.

Reflektiv ta'lim: o'quvchilarni o'z tajribalari haqida fikr yuritishga va tarixiy voqealar bilan bog'lanishga undaydi.

Madaniy vositalar: tarixiy artefaktlar, hujjatlar va multimedia resurslaridan foydalanadi.

Ijtimoiy o'zaro ta'sir: Ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va jamoatchilik ishtiroki orqali o'rganishni rag'batlantiradi.

Tizimli metodologiyani ishlab chiqish

O'quv dasturlarini loyihalash. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv dasturi milliy qadriyatlar va an'analarga hurmatni oshirishda muhim ahamiyatga ega:

Inklyuziv tarkib: turli nuqtai nazarlar va rivoyatlarning kiritilishini ta'minlaydi.

Muhimligi: Tarixiy mazmunni zamonaviy muammolar va talabalar hayoti bilan bog'laydi.

Ta'lim strategiyalari

Samarali o'qitish strategiyalari talabalarni jalb qilish uchun zarur:

Hikoya qilish orqali ma'lumotlarni yetkazish: Tarixni o'zaro bog'lash va qiziqarli qilish uchun hikoyalardan foydalanadi.

Birlamchi manbalar: tarixiy hujjatlar, xatlar va fotosuratlarini tahlil qilishni rag'batlantiradi.

Interfaol va tajribali o'rganish. Tarix ta'limida interfaol va eksperimental o'rganish usullari samaralidir:

Rol o'ynash va simulyatsiya: talabalarga tarixiy voqealarni boshdan kechirish va turli nuqtai nazarlarni tushunish imkonini beradi.

Jamiyat loyihalari: Talabalarni mahalliy tarix loyihalariga va jamoa a'zolari bilan o'zaro munosabatlarga jalb qiladi.

Amalga oshirish muammolari

Balanslash istiqbollari. Asosiy muammolardan biri milliy rivoyatlarni tanqidiy nuqtai nazar bilan muvozanatlashdir:

Noto'g'rilik va ob'ektivlik: tarix ta'limi ob'ektiv va inklyuziv bo'lishini ta'minlaydi.

Tanqidiy fikrlash: talabalarni tarixiy manbalar va talqinlarni tanqidiy baholashga undaydi.

Resurs mavjudligi. Cheklangan resurslar tarixni samarali o'qitishga to'sqinlik qilishi mumkin:

Materiallarga kirish: maktablarning yuqori sifatli darsliklar, multimedia resurslari va asosiy manbalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'qituvchilar malakasini oshirish: o'qituvchilarning bilim va o'qituvchilik mahoratini oshirish uchun kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tarix ta'limini kengaytirish imkoniyatlari

Integratsiyalash texnologiyasi. Texnologiya tarixni o'qitish va o'rganishni yaxshilashi mumkin:

Raqamli arxivlar: onlayn ma'lumotlar bazalari, arxivlar va virtual muzeylarga kirishni ta'minlaydi.

Interaktiv asboblar: Immersiv o'rganish tajribasini yaratish uchun ta'lim dasturlari, ilovalar va simulyatsiyalardan foydalanadi.

Jamiyat ishtiroki. Jamiyatni jalb qilish tarix ta'limini boyitishi mumkin:

Mahalliy hududda faoliyat olib boruvchi tarixchilar tajribasidan foydalanish: mahalliy tarixchilar va jamoat rahbarlarini bilim va tajribalarini baham ko'rishga taklif qiladi.

Madaniy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashish: milliy merosni ulug'lash uchun madaniy tadbirlar, ko'rgazmalar va festivallar tashkil qiladi.

O'qituvchilar va boshqa ta'lim sohasi vakillari uchun tavsiyalar

O'quv dasturlarini ishlab chiqish. Milliy qadriyatlar va an'analarga urg'u beruvchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish:

Muntazam ko'rib chiqish: Zamonaviy ta'lim maqsadlari va jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun tarix bo'yicha o'quv dasturlarini muntazam ravishda ko'rib chiqing va yangilang.

Inklyuziv rivoyatlar: Tarixni har tomonlama tushunish uchun turli nuqtai nazar va hikoyalarni o'z ichiga oling.

O'qituvchilar tayyorlash. Tarix o'qituvchilarining malakasini oshirishga sarmoya kiritish:

Seminarlar va treninglar: Innovatsion o'qitish metodologiyalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha seminarlar va seminarlar taklif qiling.

Hamkorlik: eng yaxshi tajriba va resurslarni almashish uchun o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish.

Xulosa. Tarix darslari orqali maktab o'quvchilarining milliy qadriyat va an'analarga hurmatini oshirish bo'yicha tizimli metodika ishlab chiqish bilimli va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim nazariyalari, innovatsion o'qitish amaliyoti va jamoatchilikni jalb qilish orqali o'qituvchilar qiziqarli va mazmunli tarix darslarini yaratishi mumkin. Muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan foydalanish tarix fanidan ta'lim samaradorligini yanada oshirishi, har tomonlama rivojlangan va madaniyatli talabalar jamoasini rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzakarimovna D. G. ZAMONAVIY TA'LIMDA TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI //Scientific Impulse. – 2024. – T. 2. – №. 21. – C. 250-256.
2. Rahmatova M. TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODLARI //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – T. 2. – №. 6 Part 5. – C. 23-27.
3. No'monjonovich T. M. TARIX DARSLARIDA "SWOT" UNIVERSAL TAHLIL METODIDAN FOYDALANISH //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 12. – C. 227-230.
4. Ochilov I. TARIX DARSLARIDA TAFAKKUR, KO'NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 43-46.
5. Sodiqovna S. G. TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI //Journal of Integrated Education and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 16-19.
6. Mahmudxonovich M. K. TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 84-87.
7. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. "Maktab o'quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo'g'ini sifatida." Ta'lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.
8. Akbarali O'g'li S. F. Prospects for improving the technologies of developing legal thinking for schoolchildren (on the example of the province of Namangan) //Current research journal of pedagogics. – 2023. – T. 4. – №. 01. – C. 94-97.

Toshmurodov Ravshan Suvanovich

Islam Karimov Tashkent State University
Lecturer, History of Uzbekistan Department

*Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Latofat Kholnazarova*

EMBROIDERY TRADITIONS OF THE NURATA OASIS

Annotation. This article describes the information that the revival of folk crafts in the Nurota Oasis and one of the fields of fine and applied art, embroidery, is developing on the basis of long historical traditions. Historical embroidery focuses on the representation of battle plates and the place of Fine Arts in the developed states of embroidery. Also included is the information that the great artists of their time made templates for embroidery, and such embroidery was highly appreciated and elevated to the level of high art.

Key words: embroidery, wall embroidery, fabric, bershumi farangi threads, jiydoriy farangi threads, template, pattern.

ТРАДИЦИИ ВЫШИВКИ НУРОТИНСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. В данной статье излагается информация о том, что народные промыслы в Оазисе Нурата развивались как одна из отраслей декоративно-прикладного искусства с давними историческими традициями вышивки. Рассказывается о том, как историческая вышивка отражала боевые сцены, и о роли изобразительного искусства в странах, где была развита вышивка. Есть также информация о том, что великие художники своего времени делали шаблоны для вышивальщиц, и такие вышивки высоко ценились и поднимались до высокого уровня искусства.

Ключевые слова: вышивка, сузана, ткань, пряжа бершуми фаранги, пряжа джидари фаранги, шаблон, выкройка.

NUROTA VOHASI KASHTADO‘ZLIGI AN‘ANALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Nurota vohasida xalq hunarmandchiligi qayta tiklanib badiiy-amaliy san‘at sohalaridan biri kashtado‘zlik uzoq tarixiy ana‘nalarga asosida rivojlanib borayotganligi haqidagi ma‘lumotlar bayon etilgan. Tarixiy kashtalarda jang lavhalari aks etganligi va kashtachilik rivojlangan davlatlarda tasviriy san‘atning o‘rni haqida to‘xalgan. Shuningdek, o‘z davrining buyuk rassomlari kashtado‘zlar uchun andozalar tayyorlab berganliklari va bunday kashtalar yuqori baholanib, yuksak san‘at darajasiga ko‘tarilganligi haqidagi ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: kashtado‘zlik, so‘zana, mato, bershumi farangi iplar, jiydoriy farangi iplari, andoza, naqsh.

Kirish: Mamlakatimizda xalqimizning milliy, madaniy, tarixiy va intellektual merosimizni asrash, boyitish, yanada ko'paytirish masalalariga bo'lgan e'tibor tufayli yurtimizda amaliy san'at va xalq badiiy hunarmandchiligi izchil rivojlanib bormoqda. Ota-bobolarimizdan meros boqiy qadriyatlarning avlodlardan avlodga o'tib, alqimizning turmush tarziga hamoxang ravishda rivoj topayotganligini milliy hunarmandchilik ishlari barobarida ko'rishimiz mumkin. Navoiy viloyatining har bir hududi o'ziga xos hunarmandchiligiga hamda yo'nalishlariga ega. Respublikamizning Xiva, Buxoro va Samarqand naqqoshlik maktablari yaratgan an'anaviy hunarmandchilik turlari bir-biriga uyg'unlashgan holda rivojlanib borgan[1].

Nurota vohasida an'anaviy hunarmandchilik ko'p asrlik ana'nalarni davom ettirgan holda temirchilik, kulolchilik, tandirsozlik, etikdo'zlik, gilamdo'zlik, kashtado'zlik va do'ppido'zlik sohasidagi ijodiy ishlarni tarzda rivojlanib borishi natijasida kelgusi avlodga yetkazib borilgan. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020- yil 26 -iyundagi qarori[2] muhim ahamiyatga ega. Prezident qarori asosida hunarmandchilik buyum turlari, shakl va bezaklari, ishlab chiqarish an'analarini mukammal o'rganishni taqozo etmoqda.

Vatanimizning tarixiy-etnografik mintaqasi bo'lgan Nurota vohasida kashtado'zlik maktabining o'ziga xos an'anaviy ko'rinishini yoritib berish, o'rganish mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin yaratilgan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar majmuasi o'zbek xalqi moddiy-ma'naviy madaniyati tarixini yoritishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday tadqiqotlarda milliy merosimizni qadriyat sifatida baholash, ularni ilmiy, tarixiy, xolis yondashuvlar asosida yaratish bo'yicha ko'p ishlar qilingan va yanada chuqurroq o'rganishga talab ortib bormoqda. Shuning uchun o'zbek xalqi an'anaviy hunarmandchiligida gilamdo'zlik, kashtado'zlik, zardo'zlik san'ati sifatida tadqiqotlar natijasida to'plangan moddiy manbalarni ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Nurota vohasi an'anaviy hunarmandchiligida kashtado'zlik an'analarini o'rganish bo'lib unda quyidagi vazifalar belgilandi;

- Nurota vohasi kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyib rivojlanib borishini yoritib berish;

- Nurota an'anaviy kashtachiligida o'tmish va bugungi kun bilan uyg'unlashtirgan holda hunarmandlar orasidagi munosabatlar tadrijiy rivojlanishini yoritish;

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotning nazariy asoslarini masalaga umuminsoniy taraqqiyot hamda milliy ma'naviyat va mafkura nuqtai-nazaridan yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda qiyosiy, miqdoriy va kontent analiz usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Mustaqillik yillarida O'zbek hunarmandchiligi qayta tiklanib badiiy-amaliy san'at sohalaridan biri kashtado'zlik uzoq tarixiy ana'nalarga tayanib rivojlanib bormoqda. Qadimdan Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Surxondaryo va Farg'ona vodiylari kashtachilik san'atining markazi hisoblangan. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega ekanligini arxeologik topilmalar va yozma manbalar ham isbotlab bermoqda. Arxeologik topilmalarga ko'ra

kashtachilikni paydo bo'lishi, qadimda teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bog'liq. Qadimda toshlardan, suyaklardan tayyorlangan bigizlar yordamida to'qish, shuningdek mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar amalga oshirilgan.

Qadimiy manbalarda ko'rsatilishicha, asosan tarixiy kashtalarda jang lavhalari aks etgan. Kashtachilik rivojlangan davlatlarda tasviriy san'atning o'rni katta bo'lgan. O'z davrining buyuk rassomlari kashtado'zlar uchun andozalar tayyorlab berishgan va bunday kashtalar yuqori baholanib, yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, XIII-XIX asrlarda mansabdor shaxslarning liboslarini bezashda badiiy kashta bezaklaridan keng foydalanilgan[3].

XIX asrda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nurota, Shahrisabz, Jizzax, Farg'ona kabi katta-katta kashtachilik markazlari bo'lgan. Mazkur kashtachilik maktabida liboslarga tikilgan kashtalar alohida ahamiyatga ega. XIV – XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganligi haqida o'z kundaligida yozib qoldirgan. 1467-yili Kamoliddin Behzod "Zafarnoma" ga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlagan kashtani ham aks ettirgan[4]. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyib rivojlana boshladi. Kashtalarga nazar solsak, unda hind, xitoy, rus, afg'on, qozoq, qirg'iz, tojik kashtachiligi uslublarini ham uchratish mumkin. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, kashtalar mahalliy kosiblar tomonidan ishlab chiqarilgan karbos matolarga tikilgan. Bunday matolarning eni 25 sm bo'lgan. XX asrning ikkinchi yarmida kashtalar uchun alvon matosi ishlatila boshlagan. Keyinchalik turli ranglarga bo'yalgan las, tik kabi matolardan keng foydalanilgan. O'tgan asrning 80-90 yillarda esa kashtalar uchun shoyi, adras, baxmal matolari ishlatilgan.

Respublikamiz hududida mavjud kashtachilik maktablari juda boy tarixiy-ijtimoiy, falsafiy-ramziy hamda amaliy san'atning rang-barang ko'rinishi bilan alohida o'rin tutadi. Tarixi uzoq yillarga borib taqaladigan afsonaviy va sirli Nurotada ham an'anaviy xalq hunarmadchiligi qadimdan rivojlangan. Azaliy udumlarga ko'ra qizlarning birinchi tikkan kashtalari suvga oqizilarkan va ikkinchi ishlari esa qariyalarga berilib ulardan oq fotiha olinarkan. Yana bir qiziq tomoni shundaki, momolarimiz tikkan kashtaning ozgina qismi tikilmasdan atayin qoldirilgan, bunga sabab, "Farzandlarimiz biz boshlagan ishni davom ettirib, qiziqishi ortsin va kelajakda qimmatli san'atimizni avlodlarimizga yetkazsin", degan maqsadni ko'zlashgan.

Ushbu urf-odatlarimiz o'zbek halqining bebaho qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Har bir kashtada nafas olami aks etgan bo'lib, unda nafislik, husunkorlik va jimjimadorlikni o'zida jam etgan holda did bilan yaratilgan. Kashtalar igna va bigizda tikilgan, ularni tikish uchun 6-7 oy vaqt talab etadi. Kashidalarini tikish jarayonida tobadoni, kosagul, panjigul, anor kabi 50 dan ortiq nusxalarda tovus, bodom, qalampir nusxa va lola naqshlaridan keng foydalaniladi. Nurotadagi har bir oilada albatta kashta bor. Qo'l mehnati bilan yaratilgan san'at asari darajasidagi Nurota kashtalarining narxi jahon bozorida ancha baland[5].

Nurota an'anaviy kashtachiligida shox, novda, barg singarilar qo'shimcha unsurlar sifatida kiritilsa, asosiy mohiyatni ochib berish, aynan gullarga yuklatiladi. Guli safsar, guli hafrang, guli lola, chinnigul, mug'chagul, xibcha baxmal kabi gulli naqshlar ishlatiladi. Hunarmandlarning aytishicha, kashtachilikda har millatning o'ziga xos naqshlari mavjud. Aynan o'zbek milliy kashtachiligida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Hanuzgacha kashtachilar

(haqiqiy xalqona usulda kashta tikuvchilar) ip tayyorlash va bo'yashda asriy an'analarga, o'rnatilgan qat'iy qoidalarga to'la amal qiladilar. O'simlik va giyohlardan, shuningdek, bu saxovatli zaminda yetishtiriladigan turli o'simliklar bargi va mevalar po'stloqlaridan tayyorlanadi. Masalan, yong'oq bargi qaynatilib, jigarrang olinsa, o'smadan yashil rang, piyoz po'stlog'idan sarg'ish rang olish mumkin. Shuningdek, shaftoli, gilos, behi, anor bargidan ham foydalaniladi. Shuning uchun ham nurotalik qo'li gul hunarmandlar tomonidan tayyorlangan kashtalar bo'yalmaydi, yarim asrgacha ularning rangi o'chib ketmaydi. Ipak qurtidan olinadigan tolaning barcha turi-yuqori sifatli ipakdan tortib pilla chiqindilarigacha charx yordamida yigirilib, maxsus rangrezlar yordamida turli ranglarga bo'yalgan. Kashtachilikda jundan tayyorlangan iplar "ipi shol" (qog'oz ip) chetdan keltirilgan bershumi farangi jiyyoriy farangi iplari ham qo'llanilgan maktablarda o'ziga xos uslub va ranglar mutanosibligi mavjud. Tabiatdagi sariq, qizil va ko'k ranglar asosiy ranglar bo'lib hisoblanadi.

Shu ranglarni muayyan miqdorda aralashtirilishi natijasida boshqa ranglar kelib chiqadi. Dunyo xalqlarini lol qoldirayotgan Nurota kashtachiligining o'ziga xos yana bir jihati shundaki, har bir kashtada aks etayotgan naqshlar va ramzlarning takrorlanmasligidir. "Ustoz-shogird" an'analari Nurota hunarmandchilik maktabida yanada sayqal topmoqda. Hozirgi kungacha nurotalik qizlar sepida albatta o'z qo'li bilan tikkan so'zanalar o'z xonadoniga sadoqati ramzi sifatida ham qadrli sanalib keladi[6].

O'zbek kashtalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri kishini o'ziga jalb etib, o'zida bir xil elementlarning takrorlanmasligi hamda boshqa kashtachilik namunalarida uchramasligi bilan alohida ma'noga ega. O'rta Osiyo xalqlarida doira Quyoshni, ko'pincha Oyni bildirgan. Asrlar o'tsa hamki, naqshdagi baxt-iqbol, farovonlik, to'kin-sochinlikni ifodalovchi an'anaviy shakllar kashtachilikda hamon qo'llanib kelinmoqda. Masalan, anor - farzand belgisini anglatasa, qalampir - yomon ko'zlardan asraguvchi tumor sifatida anglashiladi, bodom - rizq -ro'z, ochilgan gullar - muhabbat, shoxchali gullar majmuasi -farovon hayot, qushlar - baxt omadni ifodalaydi. Matoga oddiy igna yordamida qadalgan bir qator falsafiy ramzlarni kuzatar ekanmiz, kashta ustasining mehri va yurak sirlaridan ogoh bo'lganday bo'lamiz. Kashtachilikda deyarli barcha naqsh turlari diniy ramzlar sanalgan. Buyrokars, kayma, koshakars, kamalak, bahorgi bulut, ko'knor nusxa naqshlari yovuzlikdan asrovchi ramz sanalsa, anor guli, lola guli naqshlari mehr - muhabbat ramzi sanalgan. Chiroq naqsh turi nurli kelajak ramzi sifatida, Alloh rahmatidan umidvorlik sifatida tasvirlangan. Hilol, qalampirgul, quyosh nusxa naqshlari farzand, ko'payish ma'nosini bildirgan.

Nurota kashtalari mayda gul barglari hamda o'ynoqi naqshlari bilan kishi diqqatini o'ziga tortadi. Undagi tabiiy tasvir bo'lgan anor guli mehr ramzi hisoblangan bo'lsa, atrofidagi naqshinkor yo'l chiziqlari hayot davomiyligini aks ettirgan. Chevarlarning turfa ko'rinishdagi gullarga mos rang tanlab, uning chetini aylana, uchburchak yoki to'rtburchak shaklda ingichka chiziqli jilo berib tikkan kashtalari uni yanada boyitgan. Joylarda "Ustoz shogird" maktablari tashkil qilinib, intiluvchan yoshlarimizga xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bo'yicha mahorat sirlari o'rgatilib ajdodlar izidan borib, milliy qadriyatlarimizga sadoqat va ehtirom ruhida kamol topayotgan iste'dodli ustalar yetishib chiqmoqda[7].

An'anaviy asl ranglarni tiklash maqsad qilib qo'yilgan holatlarga boshqacha misollar keltirish ham mumkin. Nurota gilamlar bilan xuddi shunday holatni kuzatish mumkin. Qadimda mashhur

bo'lgan gilamchilik markazlaridan biri bo'lgan Nurota vohasi gilamdo'zlari XX asr davomida o'zining bejirimligi va nazokatli naqshlari bilan maftun etgan holda, xorijliklar e'tiboriga tushdi. Xalqaro ta'lim dasturi (Rivojlanish va hamkorlik bo'yicha Shveysariya agentligi granti) doirasida tashkil etilgan komissiya a'zolari Nurota an'anaviy kashtachiligida alohida o'ringa ega bo'lgan chevar hamda to'quvchi ayollar mehnati Nurota shahrida dong taratgan "Saodat opa kashtachilik maktabi"da to'qilgan kolleksiyalari bilan tanishdilar va qisqa vaqt davomida markazning avvalgi shuhratini tiklashga ko'mak bermoqdalar. Tabiiy bo'yoqlarning hayotga qaytishi mustaqillik yillarida keyingi ijobiy holat bo'ldi. Shu bilan birga kashtachilikda qo'llanilayotgan yangi avlod bo'lgan sintetik bo'yoqlar ham inkor etilmaydigan holatda yo'lga qo'yildi. Mazkur kashta buyumlari qat'iy ekologik va gigiyenik talablarga javob beradi. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar Yevropa va Amerika soha mutaxassislari tomonidan shunday buyumlarga bo'lgan talablarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham dunyo dizaynerlari o'zbek gilamlari va so'zanalariga yuksak baho berishgan.

Xulosa qilib aytganda, Nurota kashtalari qadimiy merosdan muayyan jihatlarini qabul qilish bilan birga o'zining xususiy badiiy yo'nalishini ham hosil qilgan. Amaliy hunarmandchilikda kashtachilik har bir davrda ijtimoiy ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar

1. Bulatov S. O'zbek halq amaliy bezak san'ati. – Toshkent. "Mehnat", 1991. – B. 17-19
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 26 -iyundagi qarori . Yangi O'zbekiston gazetasi № 118 (118), 2020-yil 27 iyun.
3. Raxmatova L. I., Uralova X. Q. O'zbek amaliy bezak san'ati milliy falsafasi: "Nurota an'anaviy kashtachiligining bugungi kundagi tarovati" misolida. [https://sciencecentrum.pl/wpcontent/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%96%2035_1%20\(web\).pdf](https://sciencecentrum.pl/wpcontent/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%96%2035_1%20(web).pdf). 150- bet.
4. Jabborov I. O'zbeklar. (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati) Toshkent. "Sharq" 2008. B- 49-51.
5. Raxmatova L. I., Uralova X. Q. O'zbek amaliy bezak san'ati milliy falsafasi: "Nurota an'anaviy kashtachiligining bugungi kundagi tarovati" misolida. 150-bet
6. Narzullayeva N. Zardo'zlik san'ati (metodik tavsiya). Navoiy. 2018. B-13
7. Raxmatova L. I., Uralova X. Q. O'zbek amaliy bezak san'ati milliy falsafasi: "Nurota an'anaviy kashtachiligining bugungi kundagi tarovati" misolida. [https://sciencecentrum.pl/wpcontent/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%96%2035_1%20\(web\).pdf](https://sciencecentrum.pl/wpcontent/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%96%2035_1%20(web).pdf) 152-bet.

Kholnazarova Latofat Samievna

PhD, Associate Professor,
of the Department of “History of Uzbekistan”
Tashkent State Technical University named after I. Karimov

*Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Durdona Rasulova*

PURCHASE OF MANUSCRIPTS BY THE POLITICAL AGENT OF THE RUSSIAN EMPIRE

Annotation. This article provides information about the manuscripts of the cultural assets of the country, acquired by political agents of the Russian Empire in the emirate of Bukhara for the Asian Museum, as a result of the loss of political independence of the emirate of Bukhara. It is also mentioned that Mir Solih Mirakbayev, a merchant of ancient antiquaries and manuscripts, sold many rare manuscripts for the Asian Museum.

Keywords: manuscript, foreign buyers, price, political agent, museum, material and cultural property, letter, chancellery.

ПОКУПКА РУКОПИСЕЙ ПОЛИТИЧЕСКИМ АГЕНТОМ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация. В данной статье представлена информация о культурных ценностях края, приобретенных для Азиатского музея политическими агентами Российской империи в Бухарском эмирате в результате утраты Бухарским эмиратом политической независимости. Также было упомянуто, что мир Салих Миракбаев, торговец древними артефактами и рукописями, продал много редких рукописей для Азиатского музея.

Ключевые слова: рукопись, иностранные покупатели, цена, политический агент, музей, материальные и культурные ценности, письмо, канцелярия.

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSIY AGENTI TOMONIDAN QO‘LYOZMA KITOBLARNI SOTIB OLINISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Buxoro amirligining siyosiy mustaqilligining yo‘qotilishi natijasida, o‘lka madaniy boyliklari Rossiya Imperiyasining Buxoro amirligidagi siyosiy agentlari tomonidan Osiyo muzeyi uchun sotib olingan qo‘lyozmalari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, qadimgi asori atiqalar va qo‘lyozmalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi Mir Solih Mirakbayev ko‘plab nodir qo‘lyozmalarni Osiyo muzeyi uchun sotganligi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, xorijiy xaridorlar, narx, siyosiy agent, muzey, moddiy va madaniy boylik, maktub, kanselyariya.

Kirish: O'zbekiston mustaqillik yillarida xalqimizning boy tarixi madaniy boyliklarini o'rganish va targ'ib etish ishlarini yo'lga qo'ydi. Davlatimiz tarixini tiklash va mustamlaka davrdagi muammolarni tahlil etib ularni bartaraf etgan holda madaniy boyliklarimizni xalqimizga qaytarish chora-tadbirlarini ko'rish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish borasidagi qarorlari[1] tufayli o'zbek xalqining turli sabablarga ko'ra olib ketilgan boy merosini targ'ib qilish va tadqiqot doiralarini yanada kengaytirdi. Bu borada nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida g'oyat noyob hisoblangan, YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan qo'lyozmalar fondiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti, shuningdek qadimiy yozma manbalar fondiga ega bo'lgan muassasalar faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident qarori bu borada muhim qadam bo'lib, Islom sivilizatsiya markazi Fanlar akademiyasi Tashqi ishlar vazirligi hamkorligida markaziy Osiyo mintaqasi doirasida qadimiy qo'lyozmalarni chet el fondlaridagi mavjud asarlar nusxalarini ayirboshlash yoki olish hisobidan Institut yozma manbalar fondini boyitib borishni nazarda tutilganligi ham katta ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: adabiyotlarda O'rta Osiyoda mustamlaka tuzumining qaror topishi mintqa hududida, xususan, Buxoro amirligida ulkan moddiy va ma'naviy merosning, ayniqsa, qo'lyozma kitoblarning talon-taroj bo'lishi haqidagi *tarixiy faktlarni qayd etilganligi e'tiborga loyiqdir*. O'zR MDA hujjatlarida Imperatorlik Fanlar Akademiyasi boshqaruv bo'limi va Rossiya Imperiyasining Buxoro xonligidagi siyosiy agentligi tomonidan Osiyo muzeyiga ko'pgina qimmatbaho qo'lyozmalarni arzimagan chaqaga sotib olinganligi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning maqsadi: XX asrning boshlarida Buxoro amirligidan qo'lyozma kitob boyliklarining talon-taroj etilganligini o'rganish bo'lib, unda quyidagi vazifalar belgilandi;

- XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida mavjud bo'lgan qo'lyozma kitoblarni o'zlashtirilishning asosiy xususiyatlarini aniqlash;

- Buxoro amirligida qo'lyozma kitoblarning o'zlashtirish masalalari va ularni holatini tadqiq etish.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotning nazariy asoslarini masalaga umuminsoniy taraqqiyot hamda milliy ma'naviyat va mafkura nuqtai-nazaridan yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda qiyosiy, miqdoriy va kontent analiz usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligi va shaharlaridagi qo'lyozma kitoblarni to'plash va qadimgi asori atiqalar, qo'lyozmalar savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar orqali arzon narxlarda qimmatbaho qo'lyozmalarni sotib olinganligi haqidagi ma'lumotlarni to'plash, o'rganish va tadqiq doirasini kengaytirish.

XIX asrning 50-60 yillarida O'rta Osiyo xonliklariga qarshi ketma-ket uyushtirilgan harbiy harakatlar natijasida Qo'qon xonligiga qarashli ayrim hududlarni zabt etgan Rossiya imperiyasi 1866-1868 yillarda Buxoro amirligiga qarashli Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarini egallab olgach, 1868-yil iyunda Buxoro amiri Muzaffarxon bilan sulh imzoladi va mazkur hududlarda ham o'z hukmronligini o'rnatdi[2].

Amirlikning siyosiy qaramligi mamlakat hududlaridagi boyliklarni talon-taroj qilina boshlanishiga yo'l ochdi. Tarixchi olim Hamid Ziyoyev "Russkiy vestnik" jurnali ma'lumotlariga asoslangan holda qayd etishicha, Rossiya imperiyasi qo'shinlari Jizzaxdagi (1866 y.) shiddatli jangdan so'ng bu yerdagi boyliklarni talaganlar. Jizzaxda turli-tuman boyliklar shu darajada ko'p va qimmatli bo'lganki, bunaqasi hali Rossiya imperiyasi qo'shinlarining qo'liga tushmagan edi[3]. Buxoro amirligi siyosiy mustaqilligining tugatilishi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida O'rta Osiyoda mustamlaka tuzumining qaror topishi mintqa hududida, xususan,

Buxoro amirligida ulkan moddiy va ma'naviy merosning, ayniqsa, qo'lyozma kitoblarning talon-taroj bo'lishiga olib kelgan[4]. Rus sharqshunos olimi V.L. Vyatkinning qayd etishicha, qo'lyozma kitoblar soni yil sayin kamayib borgan, ular xorijiy kutubxonalar, turli xil shaxslar tomonidan arziyas narxda sotib olib ketilgan.

Rossiya imperiyasi Osiyo Muzeyi direktori K.G. Zaleman: “yaqin kelajakda bu qo'lyozmalar xorijiy xaridorlar tomonidan olib ketiladi. Hozir ular o'z agentlari orqali asosan miniatyurali kitoblarni sotib olmoqdalar”[5] deya axborot bergan edi. Shu tariqa mustamlakachilar o'lka moddiy va madaniy boyliklarini va qo'lyozma kitoblar sotib olishni ayrim shaxslar tomonidan emas, balki hokimiyat tizimi orqali ham amalga oshirganlar. Jumladan, Imperatorlik Fanlar Akademiyasi boshqaruv bo'limi boshlig'i K.G. Zeleman Rossiya Imperiyasining Buxoro xonligidagi siyosiy agenti V. Ignatyevga bir necha bor maktub yozib u yerdagi qo'lyozma kitoblar bilan qiziqqan va kitoblardan ro'yxat olib, o'ziga kerakli bo'lgan qo'lyozmalarni sotib olgan va Osiyo Muzeyiga topshirgan[6].

V. Ignatyev qadimgi asori atiqalar va qo'lyozmalar savdosi bilan shug'ullanuvchi Mir Solih Mirakbayevdan ko'plab nodir qo'lyozmalarni Osiyo muzeyi uchun sotib olgan[7]. Imperator Fanlar Akademiyasi ko'rsatmasi bilan Boshqarma kanselyariyasi Osiyo muzeyi uchun sotilgan 11 ta qo'lyozma kitob uchun Mir Solih Mirakbayevga 225 rubl ajratib, Buxoro siyosiy agentligiga yuborilgan[8].

Buxoro amirligi ustidan nazorat olib boruvchi Rossiya imperiyasi siyosiy Agentligi rahbari Vladimir Romanovich nomiga 1900-yilning may oyida yuborilgan maktubda qo'lyozma Viktor Romanovich tomonidan yetkazib berilganligi va qo'lyozma kitob uchun kelishilgan 40 rubl yuborganligi ta'kidlangan. Hujjatda keltirishicha bundan tashqari, Viktor Romanovich Vladimir Romanovichga yana 16 ta qo'lyozma kitoblar ro'yxatini ko'rsatib ulardan ma'lum qismini muzey uchun olmoqchi ekanligi aytilgan[9]. Men ushbu qo'lyozmalarning narxlarini belgilab qo'ydim, ularning narxi yuqori, iloji bo'lsa muzey uchun 288 rubl emas, balki 250 yoki undan kamroq bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Albatta sizga ishonaman sotuvchiga sizning ta'siringiz bor hech bo'lmaganda qo'lyozmalarni ma'lum muddat ushlab turasiz[10]. Ularni zudlik bilan bizga yuborsangiz biz ham o'z vaqtida pullarini yuboramiz[11]. Qo'lyozma kitoblar ro'yxati 1900 - yil 15 - martda jo'natilgan. Imperator Fanlar Akademiyasi ko'rsatmasi bilan Boshqarma kanselyariyasi Osiyo muzeyi uchun sotilgan jami 16 ta kitob[12]:

“Iskandari baxri va gulshani roz”, “Ravzoni ul-axbob”, “Farobiy”, “Tafsiri Sulton Imom xon”, “Tarixi Axmad shayx Afg'on”, “Tarixi Akbar shayx”, “Tarixi olamgiri”, “Jaloti ifroj”, “Ajoyib tabakot” “Narshaxi Mullazoda”, “Kitobad nasixat” va 11 ta daftar turli mazmundagi masalalar.

K.G. Zelemanga siyosiy agent V. Ignatevning maktubi 1900 - yil 24- noyabrda yuborilgan maktubda eski buyumlar va sharq qo'lyozmalari bilan savdo qiluvchi Mir Solih Mirakboyev 19 ta qo'lyozma kitoblarni narxlar bilan olib kelganligini, agarda shu qo'lyozmalarni Osiyo muzeyi uchun xarid qilish istagi bo'lsa, zudlik bilan xabar qilishi va u kitoblarni yetkazib berishi mumkinligi aytilgan. Vakil Mir Solih bilan gaplashib so'ragan qo'lyozmalarini narxi 490 rublda baholanganligi aytiladi.

K.G. Zelemanning 1900 - yil 20-dekabrda siyosiy agent V. Ignatevga yozgan maktubida, avvalo Osiyo muzeyini boyitishda hamkorligi uchun o'z minnatdorchiligini bildirib, yuborilgan ro'yxatdagi 19 ta kitobdan bir nechtasini aniqlanmaganligi qolganlari qadimiyligini ta'kidlab, “Devoni Hofiz” qo'lyozmasidan boshqa barchasini olmoqchiligi aytilgan. Imperiya siyosiy agenti hazrati oliylariga qo'lyozma kitoblar ro'yxati jami 19 ta bo'lib, ba'zi qo'lyozmalar[13] sotib olinmagan. Ular “Bayoz”, “Panj sura”, ikkita surat, xattotlik sandig'i, Mirzo Ulug'bekning “Zich”i qo'lyozmasi va muqovasiz kitob.

O'zR MDA hujjatlarida Mirsolih Mirakboyev tomonidan Osiyo Muzeyi uchun sotilgan ba'zi bir nodir asarlar narxi ko'rsatiladi. Xususan, “Majmuai maktub”ni – 20 tanga (3 r.), Farobiyning

“Risolai imom Farobiy”ni 20 tangaga, Mirzo Ulug‘bek “Zich”ining qo‘lyozma nusxasi 100 tangaga, “Kashkuli Abulfazl” 20 tangaga[14], “Tarixi Ahmad shox”ning 1190 - yilda ko‘chirilgan nusxasi (100 r.), “Tarixi Akbarshayx” 1239 - yilda ko‘chirilgan nusxa (30 r.), “Ravzat-al axbob” va boshqa shu kabi 18 ta kitob sotilganligi qayd etiladi. Boshqa bir hujjatlarda siyosiy agent V.Ignatev tomonidan Mirsolihga tavsiya etilgan narxlar (qo‘lyozma uchun) uni qanoatlantirmagan, chunki kitoblar past narxda baholangan. Rossiyalik vakilning ma‘lumot berishicha “Masnavi Vaxshi” qo‘lyozmasi uchun Konstantinopoldan kelgan bir arman 100 rubl bermoqchi bo‘lganligini ta’kidlaydi. Imperatorlik Fanlar Akademiyasi boshqaruv bo‘limi va Rossiya Imperiyasining Buxoro xonligidagi siyosiy agentligi tomonidan Osiyo muzeyiga ko‘pgina qimmatbaho qo‘lyozmalarni arzimagan chaqaga sotib olishga erishadilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasining siyosiy hukmronligi davrida madaniy merosga talonchilik munosabati, unga katta putur yetkazdi. Ma‘naviy boyliklar talon-taroj qilindi, ming yillar davomida yaratilgan boy moddiy va ma‘naviy meros namunalari hamda qo‘lyozma kitoblar, turli yo‘llar bilan o‘zlashtirilib, tashib ketildi. Shunday sharoitga qaramay, mamlakatda madaniy hayot an‘anaviy tarzda davom etib, xalqimiz asrlar davomida erishgan boy moddiy va madaniy merosini avloddan-avlodga yetkazib kelganligi muhim ahamiyatga ega. Ma‘naviy me‘rosimiz bo‘lgan qo‘lyozma kitoblarni o‘rganish va targ‘ib etish maqsadga muvofiqdir. Shu bois ularni saqlash va mavjud fondlarni boyitib borish O‘zR FA Sharqshunoslik instituti hamda qadimiy qo‘lyozma fondiga ega bo‘lgan muassasalarga qulay imkoniyatlar yaratish o‘zligimizni anglashda va yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyovning 2017-yil maydagi “Qadimiy manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori// Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 25 may №103(6797). Toshkent sh., 2017-yil 24 may, PQ-2995
2. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent, 1998. –267-268 B.
3. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. (XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlari). –Toshkent: Sharq, 2006. – B. 33.
4. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990). – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Kormilisyn A. I. Rukopisnyye koleksii i biblioteki na territorii Uzbekistana epoxi srednevekovya...Tashkent:1993. – S. 49.
6. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 19- varaq.
7. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 17- varaq.
8. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 8^{a, b} - varaq.
9. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 2,2^a - varaq.
10. O‘sha joyda 2a -varaq.
11. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 3- varaq.
12. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 7- varaq.
13. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 19- varaq.
14. O‘zR MDA I-3- F, 1-ro‘yxat, 193- yig‘ma jild, 37- varaq.

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich

Associate Professor of Gulistan State Pedagogical Institute

Orcid: <https://orcid.org/0009-0002-7400-7451>

E-mail: nuriddinsaidkulov89@gmail.com

Published under peer review:

Doctor of Political Science (PhD), Associate Professor

Kurbanov Eldor Ermamatovich

PUBLIC YOUTH POLICY AS THE BASIS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Abstract: this article talks about the importance and perspective of human capital development and the importance of the state policy on youth implemented in the country. The development of human capital in the country begins with raising the knowledge and intellectual potential of young people. Therefore, in this article, it is justified that human capital can be developed by conducting the state policy on youth.

Key words: youth, youth policy, human capital, intelligence, competence, fourth industrial revolution, innovation.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Аннотация: в данной статье говорится о важности и перспективах развития человеческого капитала, а также о значении реализуемой в стране государственной политики в отношении молодежи. Развитие человеческого капитала в стране начинается с повышения знаний и интеллектуального потенциала молодежи. Поэтому в данной статье обосновано, что человеческий капитал можно развивать путем проведения государственной политики в отношении молодежи.

Ключевые слова: молодежь, молодежная политика, человеческий капитал, интеллект, компетентность, четвертая промышленная революция, инновации.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI - INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati va istiqboli hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining muhimligi haqida soʻz boradi. Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish avvalo, yoshlar bilimi va intellektual salohiyatini yuksaltirishdan boshlanadi. Shu bois, ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosatini yuritish orqali inson kapitalini rivojlantirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: yoshlar, yoshlar siyosati, inson kapitali, intellekt, kompetensiya, toʻrtinchi sanoat inqilobi, innovatsiya.

Introduction

At a time when the processes of globalization are taking place around the world, the socio-political, spiritual and economic future of countries cannot be imagined without young people. Therefore, all countries that think about the future must pay special attention to youth policy. The

main subjects of human capital are young people. The more young people there are, the more human capital can be developed in the country by sending them to science and profession. The large number of young people is not a problem, but they should be seen as the main causes of intellectual human capital in the future. Creating conditions for young people to contribute to the development of human capital is an extremely urgent issue. In the effective implementation of this urgent task, it is important that the implementation of the state policy on youth is at the forefront of social reforms.

Literature review.

The role of human capital in ensuring the stability of society, the composition, formation of human capital, and the problems of its effective use K.Kh.Abdurakhmonov, S.S.Gulomov, O.K.Abdurakhmonov, A.A.Artikov, N.K.Zokirova, B.Kh.Umurzakov, Kh.P.Abulkosimov, A.V.Vakhabov, U.V.Gafurov, N.K.Murodova, S.A.Abdullayev, D.M.Karimova, Z.Y.Khudoyberdiyev, D.N. Pakhimova, M.Kh.Saidov, Sh.G.Akramova, E.B.Abdullayev, Sh.Kh. Mahmudov, M.M.Sodirjanov, M.J.Norqabilov, I.I.Toshpulatov, F.S. Kasimov and others are widely studied.

Research Methodology.

The article uses historicity, rationality, survey questionnaire, analysis, synthesis, expert survey, comparative and empirical analysis, deductive and inductive observation methods and systematic approaches.

Analysis and results.

Human capital cannot be imagined without the knowledge and intelligence of young people. To develop human capital, it is necessary to direct young people to education from childhood. However, in some regions of the world, children are still not paid attention to their education, but are treated as labor force using their strength and work. However, they must first get an education and thereby contribute to the development of human capital in the future.

In May 2024, the "Institute of Macroeconomic and Territorial Studies" conducted a survey in order to study how responsibly parents approach their child's future and their participation in the educational process. 3,602 respondents from parents with different backgrounds and backgrounds took part in the survey. The result of the survey showed that 94.6% of parents talk to each other about their child's future, and 13.9% have different opinions. 97.8% of parents say that they talk with their child about his future profession and interests, and 2.2% do not talk about it at all. In addition, according to the results of the survey, 20.7% of young people are doctors, 18.2% are teachers, 15.0% are journalists, 10.5% are economists, 7.8% are IT specialists, 5.2% an entrepreneur, 5.3 percent wanted to be a financier, and 1 percent wanted to be a lawyer [1]. 17.1 thousand out of more than 390 thousand graduates participated in the survey on the choice of profession among the graduates of the scientific-research institute named after Abdulla Avloni. According to the results of the survey, 67 percent of the respondents said that they have clearly chosen who they want to be in the future, and 11 percent said that they want to go to work abroad. 6 percent of respondents planned to start a family. In a question directly related to the fate of graduates, when the graduates who are planning to go abroad for work were asked why they want to leave, 37% of them said that they want to leave because they are interested in studying, but do not have the financial means. [2].

At every stage of human historical development, society has developed in an integral relationship with education. Raising the young generation is one of the oldest activities. Some societies may not be able to mobilize sufficient resources for educational activities and institutions. But all of them implicitly recognize the central role of education in social life. The importance of education is related to many factors. For example, when children take their first steps in life, they do not know how to read, write, count, they are obviously unaware of the moral standards and cultural achievements of the society they live in. Thanks to the efforts of school teachers and family

education, as well as the possibilities of mass media and the Internet in modern times, the young generation is learning to read, write, and count. For several years, he studies the surrounding environment, moral and behavioral norms. People have different levels of knowledge and skills. Therefore, the educational system actually performs the task of social sorting and has a great impact on the future socio-economic status of individuals.

Today, the study of youth problems from the perspective of youth policy is one of the most urgent issues. Before considering the specific aspects of the state policy on youth in the new Uzbekistan, it is necessary to identify the categories related to this topic: "youth policy", "youth problems", "youth interests", "models of youth policy", "youth policy" principles, "object and subject of youth policy" and "mechanisms of youth policy implementation" should be clearly defined, as well as attention should be paid to the analysis of the methods used in the study of state policy related to youth.

Accordingly, the problematic aspect of evaluating the effectiveness of state youth policy is, on the one hand, a clear definition of the concept of the effectiveness of state youth policy, and on the other hand, the level of micro (local youth policy), meso (regional youth policy) and macro (national youth policy) levels. appears in connection with the precise definition of performance indicators [3. - P.21].

Many countries and international organizations are working on the issue of youth in order to comprehensively develop the thinking of more than two billion young people worldwide. "The UN develops the "Youth in Politics Index" to monitor the opening of political space in the countries of the world. This process is the demand of the younger generation" [4]. First of all, who are the youth? What age range is meant by youth? Let's dwell on this. The concept of "youth" and its age characteristics are explained in detail in Article 3 of the Law "On State Policy Regarding Youth".

According to the law, youths (young citizens) are persons who have reached the age of fourteen and are not older than thirty, citizens. In addition to the concept of "youth", the law provides a detailed explanation of such concepts as "state policy on youth", "young family", "young specialist", "youth entrepreneurship". The achievement of this Law is that these concepts were not fully addressed in any previous law.

So, in Uzbekistan, youth means citizens who have reached the age of fourteen and are not older than thirty. So, what is this indicator in other countries? As part of the research, we tried to study the activities of other countries in this field. For example, in the USA from 13-14 to 29-30 years old, in Japan from 13-14 to 29-30 years old, in Bulgaria from 15 to 29 years old, in Russia from 15 to 29 years old, in Germany two different youth categories, that is, young people from 14 to 18 years old , older people are 18 to 27 years old, 15 to 24 years old in France, 15 to 29 years old in Singapore. It can be seen from this that the issue of youth in all countries is one of the issues at the level of state policy. It is more important than ever to support young people in every way, to spend their free time meaningfully.

The concept of youth policy is defined in official UN documents as follows: "youth policy is an integral part of state activities aimed at comprehensive development of youth" [5].

Some experts call youth policy "a system of ideas and views related to youth and their social development" [6], "a complex, advanced and multidisciplinary system of interaction of youth with social institutions" [7. -P.25] is described as.

According to N. Zorayev, one of the local scientists, since the time when the concept of youth policy became one of the official activities of the state policy, this concept began to be institutionalized in social and humanitarian sciences. Since the beginning of the 90s of the last century, the broad, narrow and institutional interpretations of this concept, which have not lost their importance to this day, have been discussed [8. -P. 43]. According to another Uzbek expert, E.

Kadyrov, "Youth policy is aimed at the state's recognition of youth as an important strategic force in the path of democratic development, the full provision and protection of the needs, interests and rights of young people in the modern world. a legal-organizational program, a set of tools, measures and actions, as well as the full performance of its management and social functions in relation to young people at the level required by the democratic political system, international or national legal norms. It is the main task of youth policy to harmonize the interest of the representatives of the young generation with the national interest without opposing the interest of the representatives of other strata" [9. -P.14].

In another source, the state policy regarding youth is understood as the system of measures implemented by the state to create optimal conditions and opportunities for free socialization and effective self-expression of youth in the interests of the country. This policy essentially envisages the development of the state, ensuring its competitiveness in the future and strengthening its national security [10. -P.489].

Conclusion.

Science plays a key role in the development of human capital. Therefore, it is very important to develop fundamental and applied sciences. The President, who has always stressed that the development of our country is significantly dependent on science, scientific and technical progress, and the level of education, said that all this requires highly qualified personnel, new scientific approaches and flexible innovative activities, and sets completely new tasks for science. He often repeats that he is eating. In recent years, a lot of work has been done to reform and improve the science financing system.

References

1. https://imrs.uz/archives/news/report_2024_05. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining 2024-yil may oyi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
2. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/11/sorovnomam- maktab-bitiruvchilarining-11-foizi-chet-elga-ishlashga-ketishni-rejalashtirgan>
3. Айзенкоп, Б.М. Молодежная политика в Российской Федерации: Поиск оптимальных решений / Б.М. Айзенкоп. - М.: Макс Пресс, 2013. - С. 21.
4. <https://news.un.org/en/story/2022/01/1110142>. 2022 йил 20 январь.
5. Молодежь в организации ООН / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью//un.org/ youth.html.
6. Ильинский И. Будущее России и молодежь: к новой концепции молодежной политики //ilinskiy.ru
7. Чирун С. Молодёжная политика в ситуации постмодерна: модели, механизмы, риски. Монография. – М.:Директ Медиа, 2014. – С. 25
8. Жўраев Н. Янгиланиш концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 43
9. Кадилов Э. Ёшларнинг ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини юксалтириш масалалари (академик лицей ва касб-хунар коллежлари мисолида). юрид.ф. док. (DSc) дисс. автореф. 2019. 14 б.
10. “Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш стратегияси: мавжуд вазият ва ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий конференция мақолалар тўплами. Т: “Tafakkur-Bo'stoni”. 2019. 489б.

Durdimurodova Dilnoza

Gulistan State University

Student of Faculty of Psychology and Social Sciences

Published under peer review:

Doctor of Science in History, Associate Professor

Gulchekhra Abdulkhay

THE ISSUE OF WOMEN AND GIRLS IN THE MODERN UZBEKISTAN PRESS

Abstract. Summarizing the materials published in the press at a time when today in Uzbekistan the priority task is to support women and girls in all aspects, improve their skills, ensure their employment, increase their social and political activity in the life of our society. Society and analysis is one of the hot topics. In the article, the author summarized and analyzed the materials published in publications on the participation of women in the construction and management of the state and society, as well as increasing their social and political rights, and gave scientific conclusions.

Key words: press, "Saodat", "Ayol va Zamon", "Saida", women, mass media, socio-political activity, decree, law.

ВОПРОС ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ПРЕССЕ

Аннотация. Обобщая материалы, опубликованные в прессе в то время, когда сегодня в Узбекистане приоритетной задачей становится поддержка женщин и девушек во всех аспектах, повышение их квалификации, обеспечение их трудоустройства, повышение их общественной и политической активности в жизни нашего общества. Общество и анализ – одна из горячих тем. В статье автор обобщил и проанализировал опубликованные в изданиях материалы об участии женщин в строительстве и управлении государством и обществом, а также повышении их социальных и политических прав и дал научные выводы.

Ключевые слова: пресса, «Саодат», «Аёл ва Замон», «Саида», женщины, средства массовой информации, общественно-политическая деятельность, указ, закон.

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON MATBUOTIDA XOTIN-QIZLAR MASALASI

Annotatsiya. Bugungi kunda O‘zbekistonda ayol-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarli qilish, bandligini ta‘minlash, ularning jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifaga aylanib borayotgan bir davrda matbuotda chop etilgan materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish dolzarb mavzulardan biridir. Maqolada muallif nashrlarda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvidagi ishtiroki hamda ijtimoiy-siyosiy huquqlarini oshirish yuzasidan chop etilgan materiallar umumlashtirilgan holda tahlil etgan va ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: matbuot, “Saodat”, “Ayol va zamon”, “Saida”, xotin-qizlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy-siyosiy faollik, farmon, qonun, .

Kirish.

XX asrning soʻngi oʻn yilligiga kelib, dunyoni yetmish yil davomida tahlikaga solib kelgan imperiya parchalandi, insonlar tafakkuri ustidan oʻrnatilgan kommunistik mafkura hukmronligi barham topdi. Bir yarim asr mobaynida mustabid tuzum ostida ezilgan oʻzbek xalqi ozodlikka erishdi. Tarix uchun qisqa muddat ichida yangi Oʻzbekiston davlati tashkil topdi va jahon maydonida munosib oʻrni egalladi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, Oʻzbekiston tarixini oʻrganish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi va uni xolisona talqin etish, bahs va munozaralar asosida tarixiy haqiqatni tiklash vazifasi qoʻyildi. Oʻzbek xalqimizning katta maʼnaviy meros egasi ekanligini Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida toʻxtalib: "...bugungi kunda kutubxonamiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qoʻlyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, sanʼat, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, meʼmorchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk maʼnaviy boyligimizdir"[1:31] – degan edilar. Shunday ekan, xalqning oʻzligini anglashda alohida ahamiyat kasb etgan maʼnaviy meroslar ichida davriy matbuot ham alohida oʻrin tutadi.

Oʻzbekistoning eng yangi davri tarixini oʻrganishda davriy matbuot materiallari katta ahamiyatga ega. Bilamizki, erkin faoliyat sharoitidagina matbuot, umuman ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi fuqarolarni xolis va haqqoniy axborot bilan taʼminlash vazifasini belgilaydi va muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Respublikadagi muxbir jamoalarining axborot toʻplash va tarqatish sohasidagi faoliyatini huquqiy asosda olib borilishi 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida"gi Qonunida asoslab berilgan. Qonun amalda matbuot tizimi ham bundan buyon demokratik yoʻsinda shakllanishini, yaʼni ommaviy axborot vositalarini tashkil etish, jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari ishtirokida amalga oshirilishini anglatar edi. Qonunning qabul qilinishi, oʻsha davr uchun matbuot vositalari faoliyatida muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mavzuga oid tadqiqotlarni davriy tamoyilga koʻra, tahlil qilish mumkin. Muammoga bagʻishlangan davriy matbuotdan "Saodat", "Ayol va zamon", "Saida" jurnallari, "Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ha yot" elektron jurnali va "Gulchehralar" gazetasi tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola davriy, tizimli, tarixiylik va statistik kabi metodlarga tayanib yozilgan. Mazkur mavzuga doir muallifning ilmiy qarashlari, yondashuv va fikrlari keltirilgan.

Tahlil va natijalar

Mustaqillikning ilk yillarida nashr qilingan gazeta va jurnallarning soni qariyb bir necha barobar koʻpaydi. Istiqlolning dastlabki yillarida respublikada jami 384 ta gazeta va jurnallar chop etilgan[2:2]. 1996 yil holatiga koʻra 416 nomda gazeta, 77 nomda jurnallar faoliyat koʻrsatgan boʻlsa,[3:10] qisqa muddat, yaʼni 1997 yilga kelib 467 nomdagi gazeta, 97 nomdagi jurnallar[4:3] nashr etildi. Mazkur nashrlarda orasida xotin-qizlar faoliyatini yorituvchi alohida jurnallar ham mavjud edi. Bular, "Saodat", "Ayol va zamon", "Saida" jurnallari, "Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy

hayot” elektron jurnali va “Gulchehralar” gazetasi bo‘lib, milliy qadriyatlarning targ‘ibotchilari, hamda xotin-qizlarni keng ijtimoiy faoliyatga chorlovchi ommabop jurnallardir.

Bular orasida sal kam yuz yildan beri nashr etib kelinayotgan “Saodat” jurnalini alohida ko‘rsatib o‘tish lozimdir. Mazkur jurnal O‘zbekiston xotin-qizlarining ommabop, ijtimoiy-siyosiy, badiiy jurnal hisonlanadi. Ushbu jurnal Toshkentda bir yilda sakkiz marta nashr qilinadi. “Saodat” jurnali dastlab “Yangiyo‘l” 1925-1934-yillar, “Yorqin turmush” 1936-1950-yillar, O‘zbekiston xotin-qizlari nomlari bilan chop etilgan. 1966-yildan hozirgi nomda nashr qilina boshlandi. Jurnalda o‘zbek ayollarining turmush tarzi, uy tutushi, salomatligi, bola tarbiyasi, madaniy maishiy ehtiyojlari va boshqa masalalar yoritilishi bilan birga jahon adabiyotidan yosh ijodkor qizlarning asarlaridan namunalar, dunyoning mashhur xotin-qizlari hayotidan qiziqarli lavhalar berib boriladi.

Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan xotin-qizlar faoliyatini yorituvchi jurnallarda bugungi kunda qabul qilingan farmon va qarorlar, ayollarni bandlikka jalb etishdagi statistikasi batafsil yoritilib borilmoqda.

Masalan, “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron jurnalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-5325-sonli Farmoni e‘lon qilindi[5]. Mazkur Farmon asosida ta‘lim muassasalarida rahbar ayollarning o‘quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoning[6] mazmun-mohiyati keltirilgan. Bunda, oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining 7 ta ustuvor yo‘nalishi, shuningdek, qo‘mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berilgan.

“Saodat”, “Ayol va zamon”, “Saida” jurnallarida ham xotin-qizlar faoliyatiga daxldor bo‘lgan respublikada qabul qilingan farmon va qarorlar berilib boradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni[7] bilan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Aytish joizki, mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag‘batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish masalalari o‘rin olgan. Shuningdek, farmonda O‘zbekiston Xotin-qizlar davlat qo‘mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi.

“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron jurnalida ayollarni bandlikka jalb etishdagi statistikasi batafsil berilgan. Jumladan, ushbu jurnalning 2022-yil 2-sonida quyidagicha berilgan: “Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi, iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil xizmat qilib kelmoqda.”[8].

O‘tgan yillar mobaynida ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan qariyb 100 ta milliy va xalqaro huquqiy hujjat qabul qilindi va ratifikatsiya qilindi.

“Saodat” jurnalida jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun bir nechta choralarni amalga oshirish zarurligiga ishora qilinadi:

- xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash masalalarini o‘z ichiga olgan dasturlar ishlab chiqish;

- xotin-qizlarning o‘z-o‘zini band etish va tadbirkorlik tashabbusiga ko‘maklashish;

- ish o‘rinlarini yaratish, kasanachilik mehnatini tashkil etish.

- xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini kengaytirish maqsadida davlat darajasida choralarni ko‘rish;

- xalqaro banklar jamg‘armalar va tashkilotlarni xotin-qizlarning ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun kichik imtiyozli kreditlar olish imkoniyatlarini tashkil etishga jalb etish;

- uy bekalari bo‘lgan xotin-qizlarni band qilish bo‘yicha bepul o‘quv kurslarini ochish;

- uy-fermer xo‘jaliklariga soliq solish mexanizmini qayta ko‘rib chiqish;

kichik biznes sohasidagi qishloq xotin-qizlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish;

- xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar berishni davom ettirish;

- xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun jamoat va davlat tashkilotlarini jipslashtirish;

- xotin - qizlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun mahalla miqyosida ishlash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan milliy hunar turlarining yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun xotin-qizlarimizni jalb etish va hokazo [9].

Umuman olganda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixidan ma’lumki, o‘zbek ayoli, o‘zbek onalari nafaqat o‘z eli, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mag‘rur, jasur va dono, mashhur ayollar – To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiylar nomlari nafaqat millat

uchun, balki ilgʻor fikrli dunyo ahli uchun ham ahamiyatli ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda “Ayol va Zamon” gazetasida xotin-qizlarning jamiyatdagi oʻrni, ularning ijtimoiylashuvida madaniy, maʼnaviy va ijtimoiy-siyosiy omillarining taʼsiriga doir fikrlar O.Boʻriyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoymardonov, M.Xolmatova, M.Oʻzbekovlarning matbuotda eʼlon qilinayotgan maqolalarda oʻz aksini topga. Hatto horijlik jurnalistlar va mutahassislar V.Vundt, E.Dyrkeym, P.Jane, U.Jeyms, Ch.Kuli, S.Koll, E.Klapared, J.Mill, B.Shternlar ham bu mavzuda oʻz fikr-mulohazalarini asoslab bermoqdalar [10].

Xulosa va takliflar

Tahlildan koʻrinadiki, yildan yilga Xotin-qizlar huquqlari va ularning faoliyatiga oid materiallar nashri ortib bormoqda. Matbuot bugungi va ertangi kun yosh xotin-qizlarni oʻz haq-huquqlaridan ogoh etish zarur. Chunki, Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Oilalar tinch va farovon boʻlsa, jamiyat, davlat ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat boʻladi. Shunday ekan matbuotning bu xususiyati ijtimoiy hayot voqealarini tasvirlab, uni tahlil etibgina qolmasdan, ijtimoiy hayotga bevosita taʼsir ham qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т: Маънавият., 2008. 31-бет.
2. Ўзбекистон матбуоти. 1997. №3. 2-бет.
3. Ўзбекистон матбуоти. 1996. №3. 10-бет.
4. Ўзбекистон матбуоти. 1997. №4. 3-бет.
5. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron jurnali.
6. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron jurnali.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Oila va xotin-qizlarni tizimli qўllab-quvvatlashga doir ishlarни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон Фармони
8. Mehnat jamoalari va taʼlim muassasalarida xotin-qizlarga qarshi qaratilgan tazyiq va zoʻravonlikning oldini olish. // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot”. 2022-yil. 2-son. 18-20-betlar.
9. Xotin qizlar manfaati mushtarak maqsadimiz . // Saodat . 2023-yil. 9-son.
10. “Ayol va zamon “ gazetasi. 2022.

Kurakhmedov Azamat Erkinovich

Samarkand State Institut of Foreign Languages

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate professor

Published under peer review:

Doctor of Science in Philosophy, Professor

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich

SOCIO-POLITICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF THE JADIDS

Annotation: This article analyzes the development of the Jadid movement in Central Asia, particularly in the Turkestan region, at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. The main goal of the Jadid movement was to introduce the people to modern knowledge and culture, reform the socio-political order, and fight against colonialism. The article highlights the Jadids' particular emphasis on education and upbringing, their desire to create a modern education system, and their focus on implementing new methods. Additionally, their views on political freedom, national identity, social justice, and development are discussed. The Jadids promoted the idea of people determining their own fate, thinking freely, and defending their rights.

Keywords: Jadidism, movement, Central Asia, Turkestan, socio-political, modern, knowledge, culture, colonialism, education, upbringing, science, worldview, new, method, political, freedom, human, rights, national, identity, history, heritage, traditions, justice, equality, population, prosperity, poverty, reforms, renewal, future.

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ ДЖАДИДОВ

Аннотация: Данная статья анализирует развитие джадидского движения в Центральной Азии, в частности, в регионе Туркестан, в конце XIX века и начале XX века. Основная цель джадидского движения заключалась в том, чтобы познакомить народ с современными знаниями и культурой, реформировать социально-политический порядок и бороться с колониализмом. В статье подчеркивается особое внимание джадидов к вопросам образования и воспитания, их стремление создать современную образовательную систему и использование новых методов. Также обсуждаются их взгляды на политическую свободу, национальную идентичность, социальную справедливость и развитие. Джадиды пропагандировали идею определения своего судьбы народом, свободного мышления и защиты своих прав.

Ключевые слова: Джадидизм, движение, Центральная Азия, Туркестан, социально-политический, современный, знания, культура, колониализм, образование, воспитание, наука, мировоззрение, новый, метод, политический, свобода, человек, права, национальный, идентичность, история, наследие, традиции, справедливость, равенство, население, благосостояние, бедность, реформы, обновление, будущее.

JADIDLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA FALSAFIY QARASHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola jadidlar harakatining XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida O'rta Osiyoda, xususan, Turkiston hududida rivojlanishini tahlil qiladi. Jadidlar harakatining asosiy maqsadi xalqni zamonaviy bilim va madaniyat bilan tanishtirish, ijtimoiy-siyosiy tartibni yangilash va mustamlakachilikka qarshi kurashishdir. Maqolada jadidlarning ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor berishi, zamonaviy ta'lim tizimini yaratish istagi va yangi metodlarni qo'llashga qaratilganligi ta'kidlangan. Shuningdek, siyosiy erkinlik, milliy o'zlik, ijtimoiy adolat va taraqqiyotga bo'lgan qarashlari ham muhokama qilinadi. Jadidlar xalqning o'z taqdirini belgilash, erkin fikr yuritish va o'z huquqlarini himoya qilishni targ'ib qilgan.

Kalit so'zlar: Jadidlarchilik, harakat, O'rta Osiyo, Turkiston, ijtimoiy-siyosiy, zamonaviy, bilim, madaniyat, mustamlakachilik, ta'lim, tarbiya, ilm-fan, dunyoqarash, yangi, metod, siyosiy, erkinlik, inson, huquq, milliy, o'zlik, tarix, meros, an'analar, adolat, tenglik, aholi, farovon, kambag'allik, islohot, yangilanish, kelajak.

KIRISH: Jadidlar harakati, XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda rivojlangan yangi avlod intellektual va ijtimoiy harakatidir. Ular o'z g'oyalari orqali jamiyatda ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar qilishni maqsad qilgan. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, zamon va sharoitga muvofiq, ta'lim, millatchilik, ijtimoiy adolat va siyosiy erkinlik kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Jadidlar harakati, O'rta Osiyo, xususan, Turkiston hududida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy harakatdir. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni zamonaviy bilim va madaniyat bilan tanishtirish, ijtimoiy-siyosiy tartibni yangilash, va mustamlakachilikka qarshi kurashish edi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari esa o'z davrining ijtimoiy sharoitlariga, ilmiy yutuqlarga va islomiy g'oyalarga asoslangan.

Muammo shundaki, o'sha davrdagi ta'lim tizimi, ijtimoiy adolat, milliy o'zlik, va iqtisodiy tenglik kabi masalalar ijtimoiy rivojlanishni to'g'ri yo'lga qo'yishda to'sqinlik qilar edi. An'anaviy ta'lim, zamonaviy bilim va metodlar bilan to'ldirilmaganligi sababli, yosh avlodning ilmiy va madaniy darajasi past edi. Mustamlaka rejimlari xalqni erkin fikr va ifoda erkinligidan mahrum etib, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikni kuchaytirdi.

ADABIYOT TAHLILI: Jadidlar, ta'lim islohotlarini va madaniy yangilanishni o'z faoliyatlarining asosiy yo'nalishi sifatida ko'rgan. Ularning o'ziga xos ta'lim tizimi, "jadid maktablari" shaklida namoyon bo'lib, zamonaviy fanlar va usullarni qo'llab-quvvatlagan. Bu borada: Mahmudhoja Behbudiyning Jadidlar milliy ongini rivojlantirish va xalqni uyg'otish maqsadida ishlagan. Ular o'z asarlarida millatparvarlik g'oyalarini tarqatgan. Ismoil Gaspirlaning maqolalari, millat va madaniyat masalalariga bag'ishlangan. Abdurauf Fitratning maqolalari. Ayollar huquqlari va ijtimoiy tenglik masalalarida jadidlar o'z fikrlarini ochiq bildirishgan. Jadidlar siyosiy erkinlik va mustamlakachilikka qarshi kurashni o'z maqsadlari sifatida belgilagan. "Taraqqiyparvarlar" partiyasining xizmatlari beqiyosdir, Bu partiyaga Sa'dulla Xo'jayev, Qo'chqor Aliboyevlar raxbarlik qilganlar. Nazarov. O'zbek falsafasi asosida o'rganish davlat siyosati darjasiga ko'tarilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, nazariyalarni qiyoslash, dala etnografik ishi, tarixiylik, mantiqiylik, ketma-ketlik va tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. 1905-1910 yillarda Turkistonning ijtimoiy-madaniy xayotida jadidchilik xarakati yanada kuchaya bordi. Jadidlar Turkiston va Buxoro xayetidagi qoloqliklarni, bidg'at va xurofotni anidqroq ko'ra boshlab, jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan kuchlarga qarshi kurash maqsadida o'z vazifalarini amalga oshira boshlaydilar. Bu vazifalar jadidlarni isloxatchilik

yo'liga olib keladi - din bilan ilmni birga qo'shib, Turkiston xalqlarini madaniy-ma'rifiy rivojlantirish va ijtimoiy tuzumni islohatlar yuli bilan yangilash goyalarini o'rta tashlab, harakat qila boshladilar. Bunda ular, ayniqsa, feodal psixologiyasining kurinishlariga, dindagi, yashash tarzidagi mahhudlikka qarshi chiqadilar. Jadidlar o'z faoliyatida ma'rifatparvarlik bilan cheklanib qolmasdan, yuqori tarixiy-ijtimoiy davrni vududga keltirdilar.

“XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so'nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo'lib, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma'naviy-g'oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan ma'rifiy ta'limotlar va nazariyalar mavjud edi” [1].

Ularning vazifasi rus jahongiriligini haydash va ular bilan kurashmoq edi. Shu bilan birgalikda mullalarni jaholatli mutaasibligiga qarshi kurash olib borib, Yevropacha turdagi, yangi usuldagi maktablar ochdilar. O'zlarining g'oyalari, maqsadlari va vazifalarini targ'ib etish yo'lida Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona, Andijon shaharlarida gazeta va jurnallar chiqara boshladilar. “1905 yildagi ma'lum “ozodaiklar”dan so'ng dunyo ko'rgan O'rta Osiyoning umr kezarligi “Taraqqiy” gazetasi, “jaded”lar, “islom”chilar oqimining tilaklari, fikrlari, g'oyalarini general-gubernatorning ma'lum sharti orqasida ko'tarib maydonga chiqadi[2. B-33].

Turkiston xalqining farzandlari bilimli, madaniyatli, oqil va qobil ko'rmoq orzusida taraqqiyparvar va ma'rifatparvar - jadidlar jon kuydirganlar. Ular zulmat ichra nur kabi haqiqat, adolat, ma'rifat mash'alesini yuksak kutarganlar. Bu g'oyalarni targ'ib etishda maqola va asarlar yaratganlar.

Jadidchilikning asosiy maqsadi - Vatan, millat, din, lim-fan, ma'orifli, umuman, umuminsoniy qadriyatlarni riojlantirish edi. Jadidchilikning buyuk maqsad va goyalarini amalga oshirish va xalq ommasiga yetkazish borasida, “Andijonda 1905-1915 yillarda “Padar- kush” nomi bilan ma'lum bulgan “Taraqqiyparvarlar” partiyasining xizmatlari beqiyosdir, Bu partiyaga Sa'dulla Xo'jayev, Qo'chqor Aliboyevlar raxbarlik qilganlar. Bu partiyaga o'z goyalarida o'lkada rus mustamlakasini yo'qotish, milliy mustaqillikka erishishni olg'a surdilar. “Jadidlar birinchi bo'lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldi, ozodlik, erk, milliy g'urur va sha'n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to'g'risida jar soldi, ovoza qildi” [3. B-87.]. Jadidlar o'z millatining madaniyati va tarixini saqlashni, milliy ongni oshirishni maqsad qilgan. Ularning g'oyalarida millatparvarlik g'oyalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ularning adabiyot va matbuotdagi faoliyatida namoyon bo'lgan. Ismoil Gaspirali “Turk” gazetasida, millat va madaniyat masalalariga bag'ishlangan maqolalar orqali, xalqni uyg'otish va birlashtirishga intilgan. Jadidlar o'z xalqlarining tarixiy merosini, madaniyatini va an'alarini qadrlashga chaqirgan. Ular milliy o'zlikni anglash va rivojlantirish, jamiyatning ma'naviy va madaniy qiyofasini mustahkamlashga intilganlar. Ushbu harakatlar, jadidlarning fikricha, milliy o'zlikni yo'qotish jamoatning ma'naviy qudratini zaiflashtiradi.

“Jadidchilik nomoyondalari millat obro'sini yuksaltirishni, rivojlentirishni, o'zlarining asosiy maqsadlari deb bildilar. Turkiston xalqining o'zligini tanishi va o'zini ximoya qilish tuyg'usini uyg'otishni, milliy qadriyatlarni saqlash va taraqqiy ettirish, bu yo'lda turli-tuman jamiyat va uyushmalarning vujudga keltirilishini asosiy vazilalar qatorida amalga oshirish uchun jadidlar kurash olib bordilar. Umuman, jadidlar “millat” tushunnasini nazariy jixatdan boyitdilar va bu sohada yangi ob'yektiv jarayonlarni aks ettiradilar. Shu bilan birgalikda “jadidlar “islom”ning ijtimoiy-falsafiy tartibini qayta ko'rib chiqishini nafaqat madaniyat, ilm-fan va ma'rifatni rivojlantirish nuqtai

nazaridan, shu bilan birga mustamlakzchilik kurashini rivojlantirishni asosiy vazifalari” [4. B-107.]deb ham belgiladilar.

Jadidlar o‘z maqsad, g‘oya va vazifalarini belgilashda, ularni amalga oshirish uchun kuryashda, jamiyatning hatto o‘z ma’lumotlari kamchiliklarini mardonavor ko‘rsata oldilar va bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun kurashdilar Maxmudxuja Bexbudiyning “Olimlar va ilm boshqaruvchilariga” nomli maqolasida yozgan ediki, “oxlrgi yarim ming yil biz, musulmonlarf fan va falsafada qoldiq. Qaranglar, boshqa davlat xalqlarida bu davrda qanaqa o‘zgarishlar, bu mamlakatlar xalqlarining dunyoqarashi qanday o‘zgargan. Biz ham ilm-fan va felsafaning yangi cho‘qqilariga yetishishida materializm, atelzm va sotsial, demokratlar bilan muvaffaqiyatli kurashmog‘imiz kerak. Chuaki materialyastlar, ateistlar va sotsial-demokratlar bilan besh yuz yil oldingi falsafa, kalam tartibotlari va dalillari bilan kurash olib borish mumkin emas” [5. B-112.]. Bundan tashqari jadidchilik xarakati xaqida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan olimlar xam turli fikr mulahozalarini bayon etganlar. Shu manoda professor B.Qosimovning jadidchlikka bergan tarifini yodga olish maqsadga muofiq hisoblanadi: “jadidchlik, ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy, harakadir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg‘onish idealogiyasi bo‘lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash ilib bordi...” [6.]. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlariga asoslangan holda, xalqni uyg‘otish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy adolat va siyosiy erkinlikni ta’minlashga qaratilgan. Ularning g‘oyalari, zamonaviy O‘zbekistonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi va milliy identitetni, madaniyatni va demokratiya rivojini qo‘llab-quvvatlaydi. Jadidlar harakati, o‘z asarlari va g‘oyalari orqali, kelajak avlodlarga muhim meros qoldirgan.

Jadidlar ta’limni milliy va zamonaviy g‘oyalar asosida qayta tashkil etish zarurligini ta’kidladilar. Ular yangi maktablar ochish va xalqni ma’rifatlilikka chaqirish orqali ijtimoiy taraqqiyotni maqsad qilganlar. Ular ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlashga intildilar. Jadidlar, o‘z navbatida, mavjud ijtimoiy tabaqalanishga qarshi chiqib, har bir insonning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdilar. Jadidlar o‘z xalqlarining madaniy va tarixiy merosini qadrlashni, milliy shuurni oshirishni maqsad qildilar. Ular o‘z xalqining kelajagi uchun milliy identitetni muhim deb bildilar. Ularning siyosiy qarashlari zamonaviy davlat tizimlarini yaratish va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Jadidlar mustaqillik va o‘z taqdirini belgilash haqidagi g‘oyalarni ilgari surdilar. Jadidlarning g‘oyalari innovatsion fikrlashni, zamonaviy texnologiyalarni va g‘oyalarni qabul qilishni talab qilgan.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar harakati o‘z vaqtida ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatdi va hozirgi kunda ham ularning fikrlari va g‘oyalari milliy rivojlanishda davom etmoqda. Ular o‘z davrlarida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga intilib, xalqni yangi g‘oyalarga yetakladilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini yanada chuqurroq tahlil qilganda, ularning ta’siri va merosi hozirgi zamon uchun ham dolzarb ekanligini ko‘rish mumkin.m Jadidlar ijtimoiy tizimlarni yangilashga intilib, an’anaviy ijtimoiy tartiblarga qarshi chiqdilar. Ularning takliflari va faoliyati natijasida ayollarning ta’lim olishiga, iqtisodiy mustaqillikka erishishiga va ijtimoiy faollikka yo‘l ochildi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy tenglik g‘oyasini ilgari surishga yordam berdi. Jadidlar siyosiy ongni oshirish, hukumatning xalq oldidagi ma’uliyatini ta’kidlash va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga harakat qildilar. Ular hukumatni isloh qilish, xalq ovozini eshitish va erkin saylovlar o‘tkazish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatladilar. Jadidlar madaniyatni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynadilar. Ularning asarlari va g‘oyalari zamonaviy adabiyot va san’atning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Bu davrda jadid adabiyoti o‘zining yangicha yondashuvi bilan tanilgan, yangi mavzular va shakllar bilan boyitildi. Ularning ta’lim sohasidagi islohotlari, ayniqsa, jadid maktablari orqali amalga oshirildi. Bu maktablar, o‘z navbatida, zamonaviy ta’lim uslublarini, naturalistik va empirik yondashuvlarni joriy etdi. Jadidlarning ta’lim usuli nafaqat bilim

berishga, balki o'z-o'zini anglash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan edi. Jadidlar o'z xalqlari orasida milliy birlashuv g'oyalarini ilgari surdilar. Ular xalqlarni birlashtirish va umumiy maqsadlar uchun kurashishga chaqirdilar. Bu g'oya, keyinchalik, mustaqillik uchun kurashda muhim rol o'ynadi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va faoliyati bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning g'oyalari va islohotlari, hozirgi zamon jamiyatining taraqqiyotida, ijtimoiy adolat va erkinlik, madaniyat va ta'limni rivojlantirishda davom etmoqda. Jadidlar merosi, o'z xalqiga nisbatan mas'uliyat hissi va kelajakka umid bilan qarash, har bir avlod uchun o'rnak bo'lib qolmoqda. Bu g'oyalar, o'z navbatida, zamonaviy O'zbekistonning rivojlanishida asosiy rol o'ynashi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazarov. O'zbek falsafasi. –T., 2003.
2. Зиё Саид, ТА Т-1974 й, 33-бет.
3. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2016. – B.87
4. Абдуллаев Р. Туркестанские прогрессисты и национальное движение, Звезда Востока, 1992, 1, стр.107.
5. Газета «Самарканд», Д/ 42, 1913 й, Каранг; И»Цуминов, Изор.дроиз. Т.2, Узоекистан, 1976 И., стр.212.
6. Qosimov B. Jadidchlik va jadid adabiyoti (Davra suhbat) / “Turkiston”, 1997 y. 17-may
7. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан // акад. М.М.Хайруллаев тахрири остида. - Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.224.
8. ЎзР МДА, Ф. И-1. Оп-31. Д-943. Л- 23.
9. Андреев Г. Туземцы и просвещения // Туркестанский голосъ. 1916, 12 ноябрь. №103.
10. Еникеев А. Мусульманская школа в Туркестане и ее прошлом и настоящем виде // Туркестанский учитель. 1917, №7. – С.197.

Khamrakulova Guluzra Dilmuradovna

Senior Lecturer of the Department of Uzbek Language and Literature of Andijan State Pedagogical Institute, doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Published under peer review:

Doctor of Science in Philology, Associate Professor

N.A.Sattarova

POETIC SCOPE OF PROSODIC MEANS

Abstract: In the process of speech, prosodic means are means that form and unite any sentence from the outside. Prosody is a system of pronouncing stressed and unstressed, long and short syllables in speech. So, the pronunciation system is formed by intonation. As is known, intonation as a whole includes melody, speech tempo, speech pitch, pause, timbre and stress.

Key words: Intonation, prosodic instrument, constitutive, distinctive, restrictive, recognizable, accent, syllable, musical accent, speech tempo.

ПОЭТИЧЕСКИЙ ОБЪЕМ ПРОСОДИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Аннотация: В процессе речи просодические средства – это средства, которые извне формируют и объединяют любое предложение. Просодия – это система произнесения ударных и безударных, долгих и кратких слогов в речи. Итак, система произношения формируется интонацией. Как известно, интонация в целом включает в себя мелодию, темп речи, высоту речи, паузу, тембр и ударение.

Ключевые слова: Интонация, просодический инструмент, конститутивный, отличительный, ограничительный, узнаваемый, акцент, слог, музыкальный акцент, темп речи.

PROSODIK VOSITALARNING POETIK KO‘LAMI

Annotatsiya: Nutq jarayonida har qanday jumlani tashqi tomondan shakllantiruvchi, bir butun qiluvchi vosita bu prosodik vositalardir. Prosodiya nutqda urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘g‘inlarni talaffuz qilish sistemasidir. Demak, talaffiz qilish sistemasini intonatsiya hosil qiladi. Bizga ma‘lumki, intonatsiya butunlik sifatida melodika, nutq tempi, nutq balandligi, pauza, tembr va urg‘uni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Intonatsiya, prosodik vosita, konstitutiv, distinktiv, delimitativ, rekognitiv, urg‘u, bo‘g‘in, muzikal urg‘u, nutq tempi.

Kirish. (Intraduction). Intonatsiya tarkibida har bir prosodik vosita o'z o'rniga va xususiyatiga ega. Bu prosodik vositalarning har birini alohida o'rganish intonatsiyaning mohiyatini tushinishga va uning jumla tuzilishidagi maqomini belgilashga yordam beradi.

A.Abduazizov so'zning prosodik xususiyatlari haqida fikr yuritib, so'z tarkibida urg'u boshqa fonologik birliklar kabi quyidagi vazifalarni bajarishini ta'kidlaydi:

1) konstitutiv, ya'ni so'zning material qismlarini fonemalar birikuvini ta'minlovchi, "sementlovchi" vosita vazifasini bajaradi.

2) distinktiv, ya'ni so'z va morfemalarning ma'nosini farqlaydi.

3) delimitativ yoki chegaralash. Urg'u so'zlarning, sintagma va frazalarning chegarasini belgilab beradi.

4) rekognitiv, ya'ni urg'u so'z yoki morfemalarni urg'uning o'rniga qarab tanib olish vazifasini bajaradi [1.87].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review). Intonatsiya kommunikatsiya jarayonida muloqot vaziyati ta'sirida jumla mazmunini o'zgartirishi mumkin. Bunga ko'ra, intonatsiya gaplarning kommunikativ hamda informativ turlarini, mazmuniy tugallanganligi yoki tugallanmaganligini, emotsional bo'yog'ini, kommunikantlarning bir-biriga va bildirilayotgan fikrga munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, ovoz tonining ko'tarilishi gap tarkibidagi qaysi bo'lakka to'g'ri kelishi (logik urg'uning o'rniga) va pauzaning o'rniga qarab gapning tema-rematik munosabati o'zgaradi:

Qadimda odamlar ot aravada yurishgan – qachon yurishgan?

Qadimda odamlar ot aravada yurishgan – nimada yurishgan?

Ko'rinadiki, kommunikativ maqsadning yuzaga chiqishida jumla tarkibiy qismlarining shu jumla tarkibidagi o'rining o'zgarishigina emas, balki ohangning o'zgarishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi nutq jarayonida jumla qurilishida intonatsiyaning roli va mavqeyi alohida e'tiborga loyiq ekanligidan, u tilning boshqa birliklari singari murakkab butunlik sanalib, til sistemasida o'ziga xos mavqega egaligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, ohangning bunday murakkab strukturaga egaligi, tabiiyki, ta'lim jarayonida bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Rus tilshunosligida N.I.Jinkin nutqiy intonatsiyaning xususiyatlarini musiqiy intonatsiyaga qiyoslab o'rganish natijasida nutqiy intonatsiyaning boy va rang-barangligini hamda uning ma'no ifodalash imkoniyatlarining kengligini e'tirof etadi. Uning fikricha, intonatsiyaning o'ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi hamda uning nutq jarayonidagi funksiyasini reallashtiruvchi asosiy komponentlari urg'u va pauzadir. U intonatsiyaning ma'no qirralari boy va rang-barang ekanligini e'tirof etadi va uni asosiy dinamik komponenti (urg'u) va cho'ziqligi (pauza) asosida aniqlash maqsadga muvofiqligini, bu tayanch nuqtalarning o'zgarishi jumla mazmunini o'zgartirishi yoki umuman ma'nosizlikka olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, kommunikatsiya jarayonida intonatsiya orqali so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan subyektiv munosabati yuzaga chiqishi va shu bilan birga, jumla so'zlanayotgan muhit, vaziyat haqida ma'lumot berilishi mumkin. Masalan, *tishi o'tmaydi* iborasining ma'nosi qanday vaziyatda ishlatilishiga, qanday intonatsiya bilan talaffuz qilinishiga qarab aniqlanadi. Bu iboraning to'g'ri ma'nosi ham bo'lib, qattiq narsani tishlaganda, tishi o'tmasligi ifoda etiladi. Jumladan, *bu go'shtga mening tishim o'tmaydi*, deyilganda yo go'shtning qattiqligini bildiradi yoki qarib qolib,

tishning madori ketishidan ham darak beradi. Ammo “tishi o‘tmaydi” iborasining majoziy ma’nosi ham bor. Bir ishning uddasidan chiqishga ko‘zi yetmasa, “bunga mening tishim o‘tmaydi” iborasi ishlatiladi. Bunday munosabatlarning yuzaga chiqishida vaziyat bilan bir qatorda intonatsiyaning ham o‘rni muhimdir.

She’riyatda ham intonatsiya orqali so‘zlanayotgan muhit, vaziyat haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Masalan, “Kirib borayotgan mahalim kuzga” she’rida shoir kuz deb, yil faslini emas, o‘z umrini nazarda tutmoqda. She’rning yakuniga qadar intonatsiya kuchayib boradi va yakunida “Bu balki so‘nggi jur‘at, qasd edi” degan misrada cho‘qqiga ko‘tariladi:

*Kirib borayotgan mahalim kuzga,
Ko‘ngil chak-chak yog‘di, ko‘ngil tinmadi.
Guldastadek xushbo‘y, xushro‘y bir qizga
Yur, baxtli bo‘lamiz, desam ko‘nmadi.*

*Lolazor misoli dog‘ edi bag‘rim,
Necha yil bu dashtda chechak unmade
Shudringdek tovlanib ketdi-da mehrim,
Yur, baxtli bo‘lamiz, desam ko‘nmadi.*

*Men kuzdan bahorga hatlamoqchiydim,
Gullamoqchi edim, yana bo‘lmadi.
Yana binafshani hidlamoqchiydim,
Yur, baxtli bo‘lamiz, desam ko‘nmadi.*

*Daraday huvillar edi quchog‘im,
Ko‘zim va quchog‘im birdek to‘lmadi.
Menga ishonmadi, tushunmadi chog‘im,
Yur, baxtli bo‘lamiz, desam ko‘nmadi.*

*Bu balki eng so‘nggi jur‘at, qasd edi,
Baxt qushi aylanib o‘tdi, qo‘nmadi.
Qaerga bo‘lsa ham ketsak bas edi,
Yur, baxtli bo‘lamiz, desam ko‘nmadi [3.42].*

(“Kirib borayotgan mahalim kuzga”, 42-bet.)

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). B.O‘rinboyev o‘zbek tilining so‘zlashuv nutqini tahlil etar ekan, kommunikatsiya jarayonida intonatsiyaning ahamiyatiga e’tibor qaratadi va uning quyidagi turlarini ajratadi:

1. Grammatik yoki sintaktik-sintagmatik intonatsiya. Bu, odatda, sintaktik bo‘linishning, mazmunning boshqaligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu xil intonatsiya gaplarni sintaktik bo‘laklarga ajratishda va so‘z tarkibida aniq ko‘rinadi. Masalan: *Katta mevali daraxt* (mevasi katta). *Katta mevali*

daraxt (daraxt katta). Yigit qiz izladi (yigit-ega, qiz-to'ldiruvchi). Qiz yigit izladi (qiz-ega, yigit-to'ldiruvchi).

*Qayda jon topsang, abad joning anda,
To'rg'ay dashtda kuylar, bulbul – chamanda.
Men seningman, sen mening ruh-u tanda,
Vatan ko'ngildadir, ko'ngil vatanda [4.31].*

Yuqorida keltirilgan bandning so'nggi misra birinchi jumlasidagi Vatan ko'ngildadir birikmasida Vatan-ega, ko'ngildadir-kesim, misraning ikkinchi jumlasidagi ko'ngil vatanda birikmasida ko'ngil-ega, vatanda-kesim bo'lib kelmoqda.

2. Mantiqiy yoki mantiqiy-ekspressiv intonatsiya. Bu intonatsiya grammatik-fikriy munosabatni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bunda mantiqiy urg'u muhim rol o'ynaydi. Masalan: *U keldi, men ketdim*(sanash: *U keldi va men ketdim*). *U keldi — men ketdim* (sabab: *U kelgani uchun men ketdim*). *U keldi-men ketdim* (Ikki ishning bo'lishida oradagi vaqtning qisqaligi: *U kelishi bilanoq men ketdim*).

3. Emotsional-ekspressiv intonatsiya. Intonatsiya ekspressivlikka boy, mantiqiy kuchga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda so'zlovchi, avvalo, nutqning badiiy go'zalligiga, qolaversa, fikrning o'ta ta'sirchanligiga erishadi [4.133].

A.Ahmedov ham o'zbek tilida gapning kommunikativ turlarini tadqiq etish jarayonida gap mazmuniga intonatsiyaning ta'sir etishiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, ba'zan tasdiq shakldagi gap inkor mazmuni uchun va aksincha, inkor shakldagi gap tasdiq mazmuni uchun qo'llanishi mumkin. Shunda ham bari bir, tildagi muayyan usul va vositalardan foydalaniladi. Masalan, tasdiq formadagi *U bajarib bo'пти* gapi maxsus intonatsiya yordamida *U bajara olmaydi* degan inkor mazmunini, xuddi shuningdek, inkor shakldagi *U bermaydi*-ya gapi *U beradi* degan tasdiq mazmunini anglatadi. Shuningdek, *Men ovozim boricha chaqirdim, qani endi u javob bersa* gapining *u javob bermadi* degan inkor mazmunini anglatishi ham intonatsiya va sintaktik strukturadan bilinib turadi. Biroq bunda asosiy rolni intonatsiya o'ynaydi. Sintaktik struktura esa yordamchi vazifani bajaradi (sintaktik struktura yuqoridagi gapning intonatsiya yordamida inkor mazmunini anglatishga zamin yaratgan) [2.172].

Bularning barchasi nutq jarayonida intonatsiyaning roli va mavqeyi alohida e'tiborga loyiq ekanligidan, u tilning boshqa birliklari singari murakkab butunlik sanalib, til sitemasida o'ziga xos mavqega egaligidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, tartib o'zgarmagan holda mazmunning o'zgarishi, so'zlovchining kommunikativ niyati kabilar intonatsiya yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. (Analysis and result). Intonatsiya gap strukturasi zaruriy komponentlaridan biri bo'lib, u gap tarkibiy qismlarini, N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda, sementlovchi vositadir [5.137-149]. Intonatsiya o'z funksiyasini kommunikatsiya jarayonida bajaradi va kommunikantlarning xohishiga qarab gapning shakliy tuzilishiga ta'sir etmagan holda, uning mazmuniy strukturasi rang-barang ma'no ottenkalarini yuklashi mumkin. Bundan tashqari, intonatsiya murakkab butunlik bo'lib, uni tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro nisbatlanishi turli tillarda turlichadir. Shuning uchun har bir til doirasida uning intonatsion xususiyatlarini o'rganish shu tilning kommunikativ imkoniyatlarini va shu til egalarining mental xususiyatlarini yoritib berishga yo'l ochadi.

Xulosa va natijalar. (Conclusion/Recommendations). Demak, poetik nutq xususiyatlaridan ayrim jihatlarni ochib beruvchi, uning obrazli tarzda namoyon bo'lishini belgilovchi va albatta, so'zlovchining muayyan ma'nodagi munosabatini aks ettiruvchi vositalardan biri ohangdir. Tovush tempi, tembri, gapirish manerasi, so'zlarni talaffuz etish usullari, ovozning nutq tovushi doirasida va muayyan vaqt birligi davomida tovlanishi sifatida baholanayotgan intonatsiya so'zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga bo'lgan ma'lum bir munosabati (murojaat, xitob, kinoya, gina, achinish, shodlanish, taajjub, g'azab)ni anglatuvchi ifodaviylikning asosiy vositasidir. Bu xususiyat poetik fikrni tinglovchiga jozibali, serjilo hamda ta'sirchan yetib borishiga xizmat qiladi.

Istalangan nutq o'ziga xos intonatsion butunlikka ega bo'lib, nutqning sintaktik tuzilishi, so'zlarning gapdagi o'rni, ulardan ayrimlarini pauza bilan sekin yoki tez talaffuz etilishi turli xildagi intonatsiyani hosil qiladi. Bu esa nutq asosida yotgan mazmun (erkalash, xitob, achchiqlanish va h.k.)ni to'g'ri anglashda, nutqning emotsional ta'sirchanligini to'g'ri belgilashda muhim sanaladi.

Fordalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.87.
2. Аҳмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 172.
3. Mirzo Iqbol. Ko'ngildagi gap. <https://n.ziyouz.com/> – В. 42. (murojaat sanasi: 17.04.2023.)
4. Мирзо Иқбол. Кўзларингга термулсайдим. – Тошкент: Sharq, 2020. – Б. 207.
5. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 133 .
6. Жинкин Н.И. Взаимоотношение компонентов интонации в речи и в музыке. / Н.И. Жинкин / Предисл. И коммент. С.И. Гиндина // Проблемы структурной лингвистики. – Москва: Наука, 1984. – С. 137-149.
7. G.D.Hamrakulova. Expression of the pragmatic content through consonants in Iqbol Mirza's poems // Journal of multidisciplinary studies // Volume 2, Issue 8, 2023. <https://scholarsdigest.org/index.php/sdjms/index>.
8. G.Hamraqulova. Fonopoetikaning lingvopoetik tadqiqotlar tizimidagi o'rni va ahamiyati//O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2023, [1/12]. <http://journals.nuu.uz>
9. Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976. – 288 с;
10. Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Высшая школа, 1979. – 255 с;
11. Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С. – Петербургского университета, 1991. – 346 с.

Ikromitdin Ostonaqulov

University of Science and Technology

Associate Professor in the Department of Social Sciences

Doctor of Sciences in History (DSc), Professor

**THE INFLUENCE OF A CREATIVE PERSONALITY ON AN ASPIRING CREATOR
(ON THE EXAMPLE OF ABDULLI ORIPOV'S POETRY)**

Annotation. The article examines issues such as the social significance of the poetry of Abdulla Oripov, the largest figure in Uzbek literature of the twentieth century, the nature of his famous works that have become the property of the people, as well as the need to look at the poet's work in a new way in modern literary criticism, highlighted on the basis of the researcher's personal observations.

Key words: literary studies, literary process, literary source studies, Husaynkhan Mushkin, Abdulla Oripov, national thought, memories, people's love, life-giving poems.

**ВЛИЯНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ НА НАЧИНАЮЩЕГО ТВОРЦА
(НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ АБДУЛЛИ ОРИПОВА)**

Аннотация. В статье рассматриваются такие вопросы, как социальная значимость поэзии Абдуллы Орипова, крупнейшего деятеля узбекской литературы XX века, характер его знаменитых произведений, ставших достоянием народа, а также необходимость взгляда на творчество поэта по-новому в современном литературоведении, освещено на основе личных наблюдений исследователя.

Ключевые слова: литературоведение, литературный процесс, литературное источниковедение, Хусейнхан Мушкин, Абдулла Орипов, национальная мисл, воспоминания, народная любовь, животворящие стихи.

**IJODKOR SHAXSINING BOSHLOVCHI IJODKORGA TA'SIRI
(ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adabiyotining XX asrdagi buyuk siymosi Abdulla Oripov she'riyatining ijtimoiy ahamiyati, xalq mulkiga aylanib ulgurgan mashhur asarlari mohiyati, zamonaviy adabiyotshunoslikda shoir ijodiga yangicha qarashning lozimligi kabi masalalar tadqiqotchining shaxsiy kuzatuvlari asosida yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: adabiyotshunoslik, adabiy jarayon, adabiy manbashunoslik, Husaynxon Mushkin, Abdulla Oripov, milliy tafakkur, xotiralar, xalq muhabbati, hayotbaxsh she'rlar.

Kirish (Introduction)

Ijodkor shaxsining shakllanishida muqaddam yashab o'tgan ijodkor ijodi va shaxsiy hayoti katta rol o'ynaydi. Ta'sirlanish har kimda har turda kechadi. Shoir shoirga havas qilib shoir bo'lib

etishmog'i mumkin. Shu bilan birga shoirlikka havasmand ijodkor keyinchalik adabiyotshunos bo'lib yetishib chiqmog'i ham mumkin. Ko'pincha adabiyotshunos adabiy jarayon haqida ilmiy tadqiqot olib borishdan ko'ra jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan ijodkorlar merosini yuzaga chiqarishga ixlos qiladi. Adabiy manbashunos uchun avval merosi xalqqa yetib bormagan marhum ijodkorlar merosini tadqiq etish va nashr qilish bilan shug'ullanish zamonaviy adabiy jarayon bilan faol tanishib borishga kam vaqt qoldiradi. Matnshunoslik "tayyor oshga bakovullik" emas, balki zulmoniy bir ish, savobli yumush, imdod kutib yotgan marhum ijodkorlar ruhini shod etish, ularning hali noma'lum merosini xalqqa havola etish, eski yozuvimizda bitilgan asarlarni o'qiy olmaydigan, ammo ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishga chapdast tadqiqotchilarni asl manbalar bilan ta'minlashdir.

2016 yili O'zbekistonning ikki ulug' shoiri - Erkin Vohidov, Abdulla Oripov vafot etdi. Shoir Haziniy yozganidek, «Olurg'a qobz ul arvoh tikilsa joningga, nafasni muddati bitsa, demas ul yoshu qari».[1] Ikki shoirning ijodi haqida mushohada qilib qarasam har ikki shoir ijodi haqida yozishga harakat qilganmaganligim ma'lum bo'ldi. Holbuki, ushbu shoirlar ijodi haqida tizimli kuzatishga ega edim. Bugun ularning biri Abdulla Oripov ijodi va mening adabiyotshunos bo'lib shakllanishimga uning bilvosita ta'siri haqida fikrlarimni bayon etmoqchiman.

Mavzuga doir manbalar tahlili (Sources on the subject are available)

Adabiyotshunoslikda Abdulla Oripov ijodi xususida O.Sharofiddinov [2], M.Qo'shchonov va S.Meli [3], N. Karimov [4], A.Erkayev [5] kabi olimlar fundamental asarlar yozishgan. Ularda o'zbek adabiyotining XX asrdagi buyuk siymosi Abdulla Oripov she'riyatining ijtimoiy ahamiyati, xalq mulkiga aylanib ulgurgan mashhur asarlari mohiyati, zamonaviy adabiyotga ta'siri kabi masalalar keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlari shoir ijodi bilan tanish bo'lgan muxlislarga o'ziga xos bir saboq vazifasini o'tab kelmoqda. Abdulla aka to'g'risida uni yaqindan bilgan, birga ishlagan, shogirdi bo'lgan insonlar xotiralar yozishgan. Men esa o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisi, she'riyat muxlisi sifatida o'z tuyg'ularimni zohir aylamakka haqliman. Negaki, talabalik yillarimdan boshlab Abdulla Oripov ijodini muntazam kuzatib keldim, matbuotda e'lon qilingan har bir she'rini o'qib bordim. Har bir yangi kitobini topib, qayta qayta o'qish odatiy mashg'ulotimga aylangan edi. Shoirning rus tiliga tarjima qilingan she'riy to'plamlarini ham qiziqish bilan mutoala qilib, asliyat bilan solishtirib chiqardim. Bugina emas, men shoirning publitsistik va adabiy maqolalari bilan ham doimiy tanishib borib, adabiyotshunoslar asarlaridan topa olmagan nozik ma'nolarni ilg'ab zavqlanar edim. She'riy mashqlar qilish uchun shoirning mahorat sirlarini bilib olgim kelardi.

Asosiy natijalar va tahlillar (Results and analyses)

Farg'ona davlat universitetida (1979 yili mazkur oliy o'quv yurtini bitirganman) bizlarga saboq bergan Azim Rahimov, Muhammadjon Madg'oziyev, Yo'ldoshxo'ja Solijonov, Iqbol Nazarov, Mirodil Mirzayev kabi ustozlarimiz, Yo'ldosh Sulaymon, Oxunjon Hakimov, Enaxon Siddiqova, Bahodir Iso singari shoirlar A.Oripov, E.Vohidov, Rauf Parpi singari so'z ustalari ijodiga bo'lgan mehrimiz va ixlosimizni shakllantirgan zotlar edilar. Shoir hayotiga doir ayrim ma'lumotlarni esa Abdulla akaning do'sti professor Begali Qosimovning qaynsinglisi kursdoshim Nargizxon Isoqovadan so'rab bilib olar edim.

Mening bir hayotiy tamoyilim bor. Agar bir odamning biror fazilati menga avval juda ma'qul bo'lgan bo'lsa, keyinchalik odamlar u haqda har turli gaplarni aytsa ham, u haqdagi muhabbatimni aslo o'zgartirmayman!

Men bir umr shoir she'rlari va maqolalarini ehtirom bilan o'qidim, ulardan hayot sabog'ini oldim, shu saboqlar tufayli bir umr Abdulla Oripov men uchun ulug' shoir, mutafakkir, avliyo zot bo'lib qoldi. Odam sifatida Abdulla aka ham siz bilan biz qatori, sohibi vujud, ammo uning "mantiqi

roz aylagan jon qushi” - ruhoniyyati butunlay boshqa sifatdagi xilqat. Biz uchun unga bir umr she’r yozdirgan Ruhoniyyati aziz, muqaddas. Yodingizga tushdimi:

Vujud deganlari asli nimadir,
Dayr dengizida suzgan kemadir.
Bir kun bir qoyaga urilgay kema,
Ruhim, sen vujudning g’amini yema.

Sen misli kamalak, uchqur va o’lmas,
Kamalakni esa parchalab bo’lmas.[5]

U har doimo zukko shoir, xassos adabiyotshunos, mohir muharrir, otashin publitsist, jurnalist, zahmatkash tarjimon sifatida mening pinhoniyligim ustozim edi. Ozod Sharafuddinov, Matyoqub Qo’shjonov, Baxtiyor Nazarov kabi olimlarimizning shoir ijodi tahliliga bag’ishlangan maqolalarini o’qib she’riyatning botiniy tilsimlarini, badiiyatining ma’naviy qudratini yanada teranroq anglar edim. Insoniyat ma’naviy tarbiyasi uchun kuyunib she’r bituvchi, qaramlik iskanjasida yashovchi o’zbek xalqining dardu hasrati, tashvishu quvonchlari bilan nafas oluvchi bu ulug’ inson baxtimizga uzoq umr ko’rishini, Xudo doimo uni yomon ko’zlardan omon saqlashini tilab duo qilib so’rab yurar edim.

Omadli odam ekanman, sevimli shoirimizni bir necha bor yaqindan ko’rganman. Ilk bor Abdulla akani 1977 yili Shahrisabzning Miroqi qishlog’ida joylashgan dam olish uyida bo’lib o’tgan yosh ijodkorlar respublika seminarida ko’rdim. O’sha seminarida Ozod Sharafiddinov, Odil Yoqubov, Rahmat Fayziy, Erkin Vohidov, Ibrohim G’afurov, Muhammad Ali, Normurod Narzullayev, Xayriddin Sultonov kabi atoqli adiblar qatorida Abdulla Oripov ham ishtirok etgandi. Bu uchrashuvlar biz yoshlarning havaskorligimiz evaziga berilgan katta ehson, mukofot edi. Ko’zlarimga ishonmayman, nahotki, men yoddan o’qib yuradigan “Onajon”, “Munojot”ni tinglab”, “Muhabbat”, “Men nechun sevaman O’zbekistonni”, “O’ylarim” kabi she’rlar muallifini shundoq yaqindan ko’rib turgan bo’lsam!

Keyinchalik ustozimiz yozuvchi Yo’ldosh Sulaymon Abdulla aka bilan juda qadrdon ekanligini bilib, faxrlanib yurdik. Abdulla aka qachon Farg’onaga borsalar uning uyida mehmon bo’lar, Yo’ldosh aka ijodiy uchrashuvlarda unga hamroh bo’lar edi. 2011 yili g’azalnavis shoir Husaynixon Abuxayrxon o’g’li Mushkin (1904-1976) asarlarini (arab alfavitidagi o’zbek yozuvidan tabdil qilib) nashrga tayyorladik. Nashriyotdagilar Yozuvchilar uyushmasidan taqriz olib kelishni buyurishdi. Qo’lyozmani O’zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidga topshirdik. U kishi Mushkin g’azallarini miriqib o’qib, so’ng Abdulla akaga ham tanishib chiqishga beribdilar. Xullas, nashriyotga tavsiya xati A.Oripov nomidan tayyorlanib, olib ketish uchun bizni uyushmaga chaqirishdi. Abdulla aka g’oyat mamnun bo’lib, ko’zlari chaqnab savobli ish qilayotganimiz bilan bizlarni tabrikladi. Ma’lum bo’lishicha, Mushkin merosi mavjudligini Abdulla aka oldindan bilar, ammo hech kim shu paytgacha e’tibor bermay kelishidan taajjublanib yurar ekan. Shuning uchun bizning ishimiz unga kutilmagan xushxabar bo’lib tuyulgan. Shunda men “Zar qadrini zargar bilir” maqoliga yana bir bor iqror bo’ldim. [7]

2012 yili Toshkent islom universitetida Til bayrami munosabati bilan katta anjuman o’tkazildi. Ko’pgina taniqli adiblar, san’atkorlar ishtirokidagi mazkur fayzli anjumanda Abdulla Oripov o’zining Imom Buxoriyga bag’ishlangan katta manzumasini o’qib berdi. Universitet o’qituvchilari va talabalari she’r yakunlangach, uzoq vaqt shoirni olqishladilar. Bu mening shoir bilan oxirgi marta yuzma yuz diydorlashuvim bo’lib qoldi.

Shoir bir she’rida “Taqdir erkalatdi bizni har qalay” deb yozgan edi. O’zbek adabiyoti namoyandalari hayoti, ijodi va taqdiri bilan yaxshi tanish bo’lgan kishi bu misra nima sababdan yozilganligini chuqur his etadi. Axir taqdir erkalatmagan qanchadan qancha daho shoirlar, mutafakkir

olimlar o'tgan dunyoda. Mashrab, Hozir, Nodira, Furqat, Zavqiy hayotini eslang. Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va Usmon Nosir qismati yodingizga tushgandir. O'tgan asrning 40-50 yillarida juvonmarg bo'lishiga bir bahya qolgan, ko'p yillarga ozodlikdan mahrum etilgan Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Sherali Toshmatov, Shuhrat, Shukrullo va Said Ahmad kabi o'zbek ijodkorlari taqdiri qanday kechganligi ularning o'z xotira kitoblarida dard bilan bitilganligi yodingizdami?

Adabiyot olamiga millatparvarlik ruhi bilan to'yinib, gurkirab kirib kelgan shoir g'ayriinsoniy muttasib va itqaysar totalitar tuzim sharoitida baxtiqaro ijodkorlar safidan o'rin olib qolsam kerak, degan hadik bilan nafas olgani aniq. Yo'qsa u "taqdir erkalatdi bizni har qalay" demagan bo'lar edi.

Ha, chindan ham Erkin Vohidov bilan Abdulla Oripovni xalqimiz baxtiga Xudo o'zi asradi, taqdir erkalatdi. Abdulla Oripov urush yillari (1941 yili tavallud topgan) dunyoga kelib, go'dakligi og'ir vaqtlarga to'g'ri kelgan bo'lsa ham, har qalay sog'u salomat voyaga yetib, o'rta maktabni bitirdi. "Uchqur xayol sohibi yigit yashar edi chekka qishloqda". Yuragida porloq umidlar uyg'onib, Toshkentga o'qishga keldi. Taqdir erkalatib talabalik baxtiga erishib, respublikamizning Bosh Universitetida o'zbek adabiyotshunosligining taniqli vakillari Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Gulom Karimov kabi ulkan olimlar sabog'ini oldi. Yangi ruhdagi hayotbaxsh she'rlari bilan ustozlar nazariga tushib, ularning oq fotihasini olib, elimizga tanildi. G'afur Gulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir kabi adabiyotimiz darg'alari suhbat va muruvvatiga sazovor bo'ldi. Abdulla Qahhorning Do'rmondagi dala hovlisidan yarmini o'z otdoshiga xatlab berishlari haqidagi vasiyati ham uy-joysiz darvish uchun taqdirning bir erkalatishi bo'lgan edi.

Sho'ro davridagi O'zbekistonni chorak asr davomida boshqarib kelgan taniqli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov (1917-1983) ham Abdulla Oripov ijodining katta muxlisi bo'lganligini zamondoshlari ko'p eslaydilar. Zahmatkash muharrir, adabiyotshunos olim rahmatli Asqarali Sharopov bizga bir voqeani aytib bergan edilar: Kunlardan bir kuni Sh.Rashidov Abdulla Oripovga Ibn Sino haqida doston yozishni maslahat beradi. Mehnat ta'tiliga chiqqan shoir Chexoslavakiyaning kurort shahri Karlova Variga yo'l oladi. U yerda g'oyat ilhom bilan "Hakim va Ajal" dostonini yozib, Toshkentga qaytib, Sharof Rashidov qabuliga kirib, dostonni boshdan-oyoq o'qib beradi. Ko'p o'tmay bu doston "Sovet O'zbekistoni" gazetasida bir sahifa bo'lib bosilib chiqadi. Bu ham shoir ijodining taqdir tomonidan bir erkalatilishi edi.

Parvardigor marhamati bilan taqdir uni yana erkalatishda davom etdi. U jahon adabiyotining durdona asarlaridan biri Dantening "Ilohiy komediya"sini o'zbek tiliga tarjima qilib, milliy falsafiy merosimiz xazinasini yana bir manba bilan boyitdi. Abdulla Oripov Rasul Hamzatov, Chingiz Aytmatov, Dovid Kugultinov, Qaysin Quliyev kabi mashhur adiblar tomonidan e'tirof etilgan shuhratli ijodkor edi.

Sho'ro davrida o'zbek ziyolilari uchun adolat yo'lida kurashish ayni o'zbek xalqi manfaati uchun kurashish ekanligini chuqur anglagan shoir xalqimizni o'z tarixini teran o'rganishga, buyuk bobolarimiz merosini o'zlashtirishga, jahon tamadduni yutuqlaridan bahramand bo'lishga, ma'naviy qashshoqlikdan halos bo'lishga chorlovchi sermazmun asarlar yaratdi. Bu asarlar yangi avlodning qalb ko'zini ochib, uning yorug' kelajakka bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirdi. Mustaqillikdan so'ng Abdulla Oripov ijodida umidsizlik, mung, iztirob va g'azabiyot o'rnini ko'tarinki ruh, shijoat va donishmandlik egalladi. Bu haqda shoirning jiyanlari faylasuf olim Abdurahim Erkayev alohida xotira-kitob bitib, ijodkor she'riyatini teran tahlil qilib chiqdi.

Ozodlik va erkinlikdan masrur va beorom qalb egasi Milliy istiqlol mafkurasining poydevorini qurish jabhasida fidoyi ziyolilar bilan yelkama yelka ijodiy mehnat qildi. Mustaqillikni asrash yo'lida to'g'ri fikrli, har tomonlama o'ylaydigan insonlar safida turdi. U umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, millatparvar va bag'rikeng shoirligicha qoldi, aslo millatchi yoki mutasib bo'lmadi! O'tkinchi shamol kabi paydo bo'lgan har turli ko'knorixayol odamlarning xavriqma fikrlariga qo'shilmadi. Islom ota Abdulla Oripovning ijodiy mehnati xalqimiz uchun juda katta

ahamiyatga ega ekanligini chuqur his etib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatladi. Abdulla Oripov yaratgan she'riy matnning O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi uchun munosib ko'rilishi ham taqdirning o'ziga xos bir erkalatishi edi. Bu madhiya shoirning o'z xalqiga, uning ma'naviy dahosiga, jonajon Vataniga bo'lgan adoqsiz muhabbati mevasi edi.

Xulosalar va tavsiyalar (Conclusions and recommendations)

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Oliy Kengash deputati, senator sifatida o'z bilimi, hayotiy tajribasini ona-xalqining baxt-saodati uchun safarbar etib, tinimsiz ijod qilgan fidoyi shoirni Hukumatimiz "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni bilan taqdirladi. Yurtimizning matonatli farzandi Abdulla Oripov "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ham Abdulla Oripovning qadrdon muxlisi bo'lib, shoirning oxirgi kunlarigacha u kishini ziyorat qilib turganlari g'oyat ibratlidir.

Bugun xalqimiz kitob javonida, yuzlab davlat kutubxonalarimizda shoirning ko'pjildlik asarlar to'plami o'rin olib turibdi. Hofizlar tomonidan kuyga solingan mazmundor qo'shiqlari efir to'lqinlarida muntazam jaranglab turibdi. Bularning barchasi shoirning omadi, baxt-saodati, odamlar tomonidan e'zozlanishi ifodasidir. O'z adabiy taqdirini mushohada qilgan ijodkor millionlab muxlislariga qarata "Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq" deb bejiz yozmagan.[8]

2016 yili "Favvara film" studiyasi shoirning so'ngi yillarda yozilgan she'rlari hamda hayotiy mulohazalari asosida 3 qismli film yaratdi. Bu filmda shoir tomonidan o'qilgan mazmundor she'rlar muxlislar uchun noyob esdalik bo'lib qoldi.

O'zbek adabiyotining takrorlanmas siymosi Abdulla Oripov o'zining usluban xalqona va mazmunan xalqchil asarlari bilan Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, CHO'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Chustiy, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf kabi ulug' va sevimli siymolari safida doimo yashab qoladi. O'zbek xalqi jahonda mavjud ekan, uning foni umri adog'iga yetgan bo'lsa ham, adabiy hayoti erkanlashda, e'zozlanishda davom etaveradi. Shunday ulug' inson bilan bir vaqtda yashaganimiz uchun bizlar ham barala ayta olamiz:

"Taqrir erkalatdi bizni har qalay",
Abdulla Orifga bo'ldik zamondosh.

Foydalanilgan adabiyotlar (Used literature)

- [1] Haziniy. Devon. "Ma'naviyat" nashriyoti. T.: 2000.
- [2]. Sharafiddinov O. She'riyat – qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
- [3]. Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma'naviyat“, 2000.
- [4]. [4].Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
- [5]. Erkayev A. [http:// kh-davron.uz/page](http://kh-davron.uz/page).
- [6]. Abdulla Oripov. Ruhim. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 1971.
- [7] Bu haqda qarang: Husaynixon Mushkin. Mehriqiyo. "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2011.
- [8] Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. "Sharq". 2006.

Durdona Bakhronovna Rasulova

Associate professor at the State museum of history of Uzbekistan,

Academy of Sciences of Republic of Uzbekistan, PhD in history

E-mail: durdonarasulova099@gmail.com

Published under peer review:

Doctor of Sciences in History (DSc), Professor,

Farmonov Rakhmon Farmonovich

STUDY OF SOURCES RELATING TO CENTRAL ASIA IN EUROPE

Abstract. This article provides information on the authors, editions, and preservation of French sources, and focuses on periods that provide a brief overview of the culture and history of the Central Asian region. In France, classical orientalist studies and scientific and practical expeditions to study Central Asia were conducted, the results of which were widely published in French. These sources have not only scientific and spiritual value, but are also of great importance in the study of the history of our country.

Key words: Central Asia, France, works, periodicals, scientists, researchers, tourists.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОЧНИКОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЕВРОПЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация об авторах, изданиях и сохранности французских источников, а также основное внимание уделяется периодам, дающим краткий обзор культуры и истории Центральноазиатского региона. Во Франции проводились классические востоковедческие исследования, а также научно-практические экспедиции по изучению Средней Азии, результаты которых широко публиковались на французском языке. Эти источники имеют не только научную и духовную ценность, но и имеют большое значение в изучении истории нашей страны.

Ключевые слова: Центральная Азия, Франция, работы, периодика, ученые, исследователи, туристы.

ЕВРОПАДА МАРКАЗИЙ ОСИЁГА ОИД МАНБАЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Аннотация. Мазкур мақолада француз манбаларининг муаллифлари, нашрлари ва сақланиш ҳолати ҳақида маълумотлар берилади ва Марказий Осиё ҳудудининг маданияти ва тарихи ҳақида қисқача маълумот берувчи даврларга алоҳида тўхталиб ўтилади. Францияда Марказий Осиёни ўрганиш бўйича классик шарқшунослик тадқиқотлари, шунингдек, илмий ва амалий экспедициялар ўтказилмоқда, уларнинг натижалари француз тилида кенг ёритилган. Бу манбалар нафақат илмий ва маънавий қадриятга эга, балки юртимиз тарихи ўрганилишида муҳим аҳамиятга эга экани аниқланган.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, Франция, асарлар, даврий нашрлар, олимлар, тадқиқотчилар, сайёҳлар.

Кириш (Introduction)

Шарқ мамлакатлари халқлари дунё тамаддуни ривожига катта ҳисса қўшган бўлиб, уларнинг тарихи, маданияти, тили ва этнографиясини ўрганиш европаликлар учун алоҳида азалий эҳтиёж бўлиб келган. Европа олимлари ва тадқиқотчилари Шарқ мамлакатлари, айниқса Марказий Осиё минтақаси халқларининг ҳаётидаги ўзига хос экзотик хусусиятларни, қизиқарли географиясини, эътиборга молик бўлган юқори даражадаги маданиятини, бетакрор табиатини, бой ўтмиши ҳамда қадимий савдо-алоқа йўлларини ўрганишга кизиққанлар. Модомики, француз, инглиз, немис ва бошқа халқларнинг ҳар бири Марказий Осиё минтақасини ўрганишга катта қизиқиш билан интилар экан, демак улар ўзига хос муайян эҳтиёжлардан келиб чиқиб ёндашган (дипломатик, маданий алоқалар, миссионерлик, коалиция тузиш учун ҳамкорлик ва бошқа масалалар). Бундай алоқаларнинг мақсади ҳам, кўлами ҳам даврлар оша ўзгариб борган. Масалан, XI–XII асрларда мўғулларга қарши кураш учун иттифоқчи қидирган бўлсалар, XIV–XV асрларда Усмонли турклар хавфига қарши кураш учун ҳамкорликка даъват қилинган.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review)

XVIII–XIX асрларда бутун дунёда кузатилгани каби, Францияда ҳам географик билимлар ривожлана борди. Ўрта асрларда асосан шарқ тилларни ўрганишга нисбатан шаклланган катта қизиқиш ўрнини эндиликда бошқа мақсад эгаллай бошлади, яъни эгалланган билимлар эвазига Шарқ манбаларини ўрганиш, таржима ва табдил қилиш, қайта нашр этиш (манбанинг асл нашр ҳолатидаги тилида) асосида минтақа ҳақида янги маълумотлар йиғиш назарда тутилган эди. Демак, лингвистик тадқиқотлар ўрнини – географик фанлар эгаллай бошлади. Буни Европадаги колонияларнинг ортиб бориши ҳамда тадқиқотларда асосан саёҳатчилик йўналишининг устуворлиги билан ҳам изоҳлаш мумкин.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Билишнинг аниқ усуллари йиғиндисига таянган ҳолда илмий таҳлиллар ўтказилиб, анализ ва синтез, индукция ва дедукция, тизимли ёндашув, таҳлилнинг мантикий усуллари ҳамда натижани илмий ўрганиш услубларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Французлар дунё географияси ҳақидаги билимларини кенгайтириш мақсадида араб, форс, турк ва бошқа шарқ тилларидаги географияга оид манбаларни тадқиқ эта бошладилар. Француз шарқшунослари дастлаб географик билимлар асосчиси бўлган Ибн Хордадбех (820–912), Ибн Ҳавқал (... – 922), Идрисий (1100–1175), Абулфеда (1273–1331), каби географларнинг фундаментал асарларини француз таржима қилишган бўлса, кейинчалик эса рус, инглиз, немис, венгер сайёҳларининг асарлари ҳам ўрганилиб, илмий муомалага киритилган.

1836–1840 йилларда Парижда “Идрисий Географияси”¹, Абулфеданинг “География”² асари 1848–1883 йилларда Парижда француз тилида нашр этилган. Абулфеданинг география асарида Бартелеми д’Эрбело XVII асрдаёқ ўзининг “Шарқ кутубхонаси” номли асарини ёзишда манба сифатида фойдаланган. Бу даврда ушбу манба китобхонларга француз тилида етказиб берилган эди.

¹ Edrisi. Géographi d’Edrisi. Traduite par Pierre Jaubert. T.1-2. – Paris, 1836-1840.

² Aboulféda. Géographie. Traduite de l’arabe par M.M. Reinaud et Stanislav Guyard, et accompagnée de notes et d’éclaircissements. – Paris, Imprimerie Nationale, 1848-1883, 2 tomes en 3 vol. – 1091 p.

Г.Вамберининг “Марказий Осиёда сохта дарвишнинг саёҳати” деб номланган асари 1882 йил Парижда француз тилида чоп этилди. “Ибн Баттутанинг саёҳати”³ номли асар Дефримери томонидан француз тилига таржима қилинди. 1835 йил Парижда Александр Бернснинг “Ҳинд дарёсининг куйи оқими, Лахор, Қобул, Балх ва Бухорога саёҳат”⁴ номли асари француз тилига таржима қилинди. 1904 йил Парижда венгриялик сайёҳ С.Хединнинг “Нотаниш Осиё. Осиё қумлари ичида”⁵ деб номланган асари таржимон Шарль Работ (*Charles Rabot*) томонидан француз тилига ўгирилган ҳолда чоп этилди.

Демак, ушбу давр француз манбашунослигида табиат, иқлим, тоғ тизмалари, геология соҳаларини ўрганишга эътибор кучли эди. Йирик колонияларга эга бўлиш учун ижтимоий йўналишдан кўра табиий соҳаларни ўрганиш эҳтиёжи ошиб, бойликларнинг табиий қиймати ҳам таҳлил қилинган. Демак, бадий асарлар билан бир қаторда географик, этнографик ва илмий асарларни ўрганиш зарурияти ҳам пайдо бўлган.

Парижда араб ва европалик сайёҳлар асарларидан ташқари рус олимлари ҳамда тадқиқотчиларининг ҳам асарлари катта қизиқиш билан ўрганилган. Масалан, Николай Муравьевнинг “1819–1820 йилларда Туркманлар ва Хивага саёҳати”⁶ номли асари 1823 йилда Парижда француз тилида чоп этилган (Лекоант, Эдрие ва Клапрот).

Таниқли рус геологи Ж.Мушкетов минтақа вулканик ҳолатини⁷, геологисини чуқур ўрганган. Унинг олиб борилган тадқиқотлари натижалари акс этган “Туркистон ўлкасининг бой минераллари”⁸ асари 1878 йилда Парижда француз тилида нашр этилган. Мазкур манба жами 32 саҳифадан иборат бўлиб, унда Туркистон ўлкасининг геологик харитаси ҳам илова қилинган. “Туркистон ўлкасининг бой минераллари” номли асарда минтақадаги олтин, қумуш, кўрғошин, мис, темир, марганец, мышьяк, фируза, графит, тошқўмир, нефть, туз, гил – каби табиий жинслар ҳақида батафсил маълумот берилган.

Минтақада мавжуд бўлган йўлларни ўрганиш ва таҳлил қилиш учун А.Хорошхин⁹ ва Радлоф¹⁰ материалларининг француз тилидаги таржималаридан фойдаланилган. Шунингдек, алоҳида ҳудудлар ва хонликлар тарихи ҳам ижтимоий-иқтисодий нуқтаи назардан тадқиқ этилган¹¹.

Рус олими А.Войековнинг “Туркистон”¹² номли асари минтақа иқлими, табиати, геологияси ва минералогияси жуда бой материалларга эга бўлган. Унинг алоҳида боблари тарих, география ва этнография масалаларига бағишланган эди. Шуни инобатга олган ҳолда, ушбу манба француз тилида нашр этилган.

Россия ва Франция ўртасидаги илиқ дипломатик муносабат ҳамда дўстлик алоқалари Россияда ҳам француз тилидаги нашрлар пайдо бўлишига олиб келди. Шу даврда рус

³ Ibn Battuta. Voyages Ibn Battuta. –Paris, 1854.

⁴ Burnes A. Voyages de l’embouchure de l’Indus à Laxor, Caboul, Balkh et à Boukhara. T. 1-3. – Paris, 1835.

⁵ Hedin S. L’Asie inconnue. Dans la sables de l’Asie. Traduit du suédois, par Charles Rabot. – Paris, F.Juven. 1904, – Iv, 393 p.

⁶ Mouraviev, N.M. Voyages en Turcomanie et à Khiva, fait en 1819 et 1820. Traduite du russe par M.G.Lecointe de Laveau, revu M.M. J.B.Eyriès et J. Klaproth. – Paris, L.Tenré, 1823. – VI, 398 p.

⁷ Mouchkétov J. Les volcans de l’Asie Centrale. – St. Petersburg, Academie de scientifique. 1876, 49-61 p. [Mélanges phys. et chim. Tires du Bull. de sciences se St. Petersburg. Tom X].

⁸ Mouchkétov J. Les richesses minerales du Turkestan Russe. – Paris, Imprimerie Arnous de Riviere, 1878. – 32 p.

⁹ Khorochkine A.P. Itinéraires de l’Asie Centrale. [Dans le livre: Reçuel d’itinéraires et de voyages dans l’Asie Centrale et l’Extrême Orient]. – Paris, 1878, pp. 165-243.

¹⁰ Radloff. Itinéraire de la vallée moyen Zerafchan. [Dans le livre: Reçuel d’itinéraires et de voyages dans l’Asie Centrale et l’Extrême Orient]. – Paris, 1878, pp. 261-356.

¹¹ Nalivkine V.P. Histoire du Khanat Khokand. Traduit par Dozon Aug. – Paris, 1889.

¹² Woeikof A.I. Le Turkestan russe. – Paris, A.Colin. 1914. – XII, 360 p.

жамиятининг вакиллари ичида француз тилини ўрганиш, бу тилда гаплашиш ўзига хос аристократик мавқега эга эди. Шу каби масалалар билан боғлиқ ҳолда Россияда ҳам француз тилида чоп этилган асарлар сони кўпайиб борган.

Бу даврда яратилган муҳим манбалардан бири “Туркистон каталоги”¹³ эди. Мазкур каталог 1873 йилда Санкт-Петербургда нашр этилган, унда топографик қайдлар ҳам берилган.

“Catalogue de la section du Turkestan” номли рисоланинг нашр этилиши ҳақида ўша давр матбуотида қуйидаги маълумотлар учрайди: *“Камтарона ном билан каталог деб номланган мазкур нашр Вена Молия вазирлиги томонидан Бутунжаҳон кўргазма намойиши учун чоп этилди. Унда Туркистон ўлкасининг географик тавсифи тўлиқ келтирилиб, хариталар ҳам илова қилинган. Кўргазманинг Туркистон бўлимида ўлка маданиятига оид намойиш этилган турли хилдаги предметларни тавсифлаш мақсадида тузилиб, унинг учун асосан Маев ва Буняковскийларнинг материалларидан кенг фойдаланилган. Афсуски, китобда руслар истилосининг тарихий очерклари ўз аксини топмаган”*¹⁴.

Демак, ушбу каталог Туркистон ўлкаси предметларининг кўргазмада тақдим этилиши учун тузилган махсус лойиҳа бўлган. Унда ҳудудлар кесимида тўлиқ тафсилот келтирилган. Масалан, унинг тавсифида қуйидаги қисмлар мавжуд: Туркистон топографияси ҳақидаги қайдлар, Еттисув провинцияси, Сирдарё провинцияси, Орол денгизи.

“Туркистон топографияси ҳақидаги қайдлар” – деб номланган қисм каталог учун кириш вазифасини бажариб, унда Туркистон генерал-губернаторлигининг ташкил топиши, ва унинг таркиби ҳақидаги маълумотлар берилади. Масалан, *“Туркистон генерал-губернаторлиги 1867 йилда ташкил топган ва иккита провинцияга бўлинади: Еттисув ва Сирдарё. Курогота дарёси икки провинцияга ҳам қарайди. Сирдарё провинцияси 7 та округга бўлинади: Казалинск, Перовск, Чимкент, Кураминск (Тошкент билан бирга), Авлие-Ота, Хўжанд ва Жиззах.*

*Еттисув провинцияси эса бир неча округларга бўлинади: Тўқмоқ, Иссиқ-Кўл, Верний, Копал ва Сергиопол. Зарафшон округи эса Самарқанд, Каттақўрғон ва Нагорний каби уездларга бўлинади”*¹⁵.

Бундан ташқари, ҳудуди ва аҳолиси ҳақида ҳам маълумотлар берилган. Россия империяси билан чегарадош ҳудудлари 15 000 кв. км, аҳолиси эса қарийб 1, 565,000 ўтроқ ва кўчманчи аҳолини ташкил этади. Улар ичида Зарафшон округида аҳоли жуда зич жойлашганлиги таъкидланган. Марказий Осиёнинг суғориш тизимида тўхталиб, Амударё (l’Oxus) ва Сирдарё (l’Iaxarte) каби икки йирик дарё таърифланган. Бу дарёлар бўйида қадимий цивилизациялар пайдо бўлган. Сирдарё ҳавзасида – Қўқон, Наманган, Андижон, Хўжанд, Тошкент, Чимкент, Перовск, Казалинск ва бошқа қадимий антик шаҳарлар жойлашган. Амударё бўйи ва унинг ҳавзаларида – Хива, Бухоро, Қарши, Китоб, Самарқанд, Ҳисор Балх, Бадахшон ва хонликларнинг бошқа ҳудудлари жойлашган.

*“Орол ҳавзаси ҳақида гап кетганда унинг ҳудуди шимолдан жанубга қараб узунлиги 400 версть, кенлиги эса 200- 270 верстни ташкил этади, умумий ҳудуди 1100 минг географик. Баландлиги океандан 48 қадам баландликда жойлашган”*¹⁶.

¹³ Catalogue de la section du Turkestan. Précède d’une notice topographique. Publié par la commission Impériale Russe. – St-Petersbourg. Imprimerie Trenké & Fusnot (Journal de St-Petersbourg) Maximilianovsky pér., 15. 1873, 48 p. Exposition universelle de Vienne en 1873.

¹⁴ По поводу брошюры: “Catalogue de la section du Turkestan”. Санкт-Петербургские ведомости, 1873, №245.

¹⁵ Catalogue de la section du Turkestan. Précède d’une notice topographique. Publié par la commission Impériale Russe. – St-Petersbourg. Imprimerie Trenké & Fusnot (Journal de St-Petersbourg) Maximilianovsky pér., 15. 1873, – 1 p.

Рисоланинг охирида Туркистон аҳолисига алоҳида урғу берилиб, “Туркистонда умумий аҳоли 1,565, 000 ни ташкил этиши, шундан, Еттисувда 550 000 аҳоли, Сирдарёда 850 000 аҳоли, Зарафшон ҳудудида 165 000” аҳоли истиқомат қилиши қайд этилган.

Бундан ташқари маҳаллий аҳолининг таркибий қисми таҳлил қилиниб, Самарқанд ва Тошкент шаҳарларида маҳаллий аҳолидан ташқари татарлар, форслар, исроилликлар (яхудийлар), ҳиндлар ва афғонлар ҳам кўплиги изоҳланади.

Туркистон ўлкасининг тарихи, маданияти ва иқлимига оид француз тилида нашр этилган шундай адабиётлар кўп сонли бўлиб¹⁷, Борис Пазухин¹⁸ ва Барб Духовскийларнинг¹⁹ Туркистондаги саёҳати ва ташриф тафсилотлари ҳам шулар жумласидандир.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)

Демак, француз тадқиқотчилари Марказий Осиё ҳудудларига келиб тадқиқот ўтказишдан олдин, минтақа ҳақида ёзилган барча асарлар ва манбаларни чуқур ўрганишган. Минтақанинг маршрутлари, тоғ ва рельеф йўналишлари анча таниш бўлгандан кейин, XIX асрнинг 70–80 йилларида минтақага ташриф буюриб, тадқиқотлар олиб боришган. Хусусан, Э. Ужвальви каби илмий экспедиция (1878–1880) раҳбарлари Туркистонда тадқиқотлар олиб боришдан олдин ўлкамизнинг табиати, иқлими, тарихи ҳақида ўзининг она тилида (француз тилида) нашр этилган араб, форс, турк, рус, венгер, инглиз ва немис сайёҳларининг манбалари билан танишиб чиққан ва улар Парижда катта қизиқиш билан ўрганилган. Бу минтақамизда хорижий олимлар тадқиқотларини амалий жиҳатдан тўғри шакллантириш учун катта ёрдам берган. Шунинг эҳтиёжлар асосида Марказий Осиё тарихи, маданияти, географияси ва этнографиясига оид манбалар француз тилига таржима қилиниб, минтақа хусусидаги билимларни оширишга озми-кўпми ўз таъсирини кўрсатган.

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, Марказий Осиё минтақаси жаҳон манбашунослигида XIX–XX аср бошларида ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ ўрганилган бўлиб, ушбу даврда яратилган ва таржима қилинган асарлар умумжаҳон моддий ва маънавий меросига айланган. Бундай манбалар бугунги кунда ҳам “Марказий Осиё” минтақаси нодир гавҳардек тадқиқ қилинмоқда ва янги-янги маълумотлар билан бойиб бормоқда.

¹⁶ Catalogue de la section du Turkestan. Précède d’une notice topographique. Publié par la commission Impériale Russe. – St-Petersbourg. Imprimerie Trenké & Fusnot (Journal de St-Petersbourg) Maximilianovsky pér., 15. 1873, – 42 p.

¹⁷ Charmoy, F.B. Sur l’utilité des langues orientales pour l’étude de l’Histoire de Russie. – St. Petersburg, 1834. – 43 p.; Simakoff N.E. L’art de l’Asie Centrale. Recueil de l’art decorative de l’Asie Centrale. – St. Petersburg, Société d’encouragement beaux arts. –1883. – 950 p.; Woeikof A. La variabilité interdiurne de la pression atmosphérique principalement en Asie. – St. Petersburg, 1906. – 40 p.

¹⁸ Tcharikow N. Un voyage dans l’Ouzbekistan en 1671 /Entrepris par Boris Pazoukhine. – St. Petersburg, 1880.

¹⁹ Doukhovskoy B. Mon séjour au Turkestan. – St. Petersburg, 1912. – 55p. [Societe M.O. Wolff]

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (References)

- [1].Aboulféda. Géographie. Traduite de l'arabe par M.M. Reinaud et Stanislav Guyard, et accompagnée de notes et d'éclaircissements. – Paris, Imprimerie Nationale , 1848-1883, 2 tomes en 3 vol. – 1091 p.
- [2].Burnes A. Voyages de l'embouchure de l'Indus à Laxor, Caboul, Balkh et à Boukhara. T. 1-3. – Paris, 1835.
- [3].Catalogue de la section du Turkestan. Précède d'une notice topographique. Publié par la commission Impériale Russe. – St-Petersbourg. Imprimerie Trenké & Fusnot (Journal de St-Petersbourg) Maximilianovsky pér., 15. 1873, 48 p. Exposition universelle de Vienne en 1873.
- [4].Charmoy, F.B. Sur l'utilité des langues orientales pour l'étude de l'Histoire de Russie. – St. Petersburg, 1834. – 43 p.; Simakoff N.E. L'art de l'Asie Centrale. Recueil de l'art decorative de l'Asie Centrale. – St. Petersburg, Société d'encouragement beaux arts. –1883. – 950 p.; Woeikof A. La variabilité interdiurne de la pression atmosphérique principalement en Asie. – St. Petersburg, 1906. – 40 p.
- [5].Doukhovskoy B. Mon séjour au Turkestan. – St. Petersburg, 1912. – 55p. [Societe M.O. Wolff].
- [6].Edrisi. Géographi d'Edrisi. Traduite par Pierre Jaubert. T.1-2. – Paris, 1836-1840.
- [7].Hedin S. L'Asie inconnu. Dans la sables de l'Asie. Traduit du suédois, par Charles Rabot. – Paris, F.Juven. 1904, – Iv, 393 p.
- [8].Ibn Battuta. Voyages Ibn Battuta. –Paris, 1854.
- [9].Khorochkine A.P. Itinéraires de l'Asie Centrale. [Dans le livre: Reçuel d'itinéraires et de voyages dans l'Asie Centrale et l'Extrême Orient]. – Paris, 1878, pp. 165-243.
- [10]. MouchkétoV J. Les richesses minerales du Turkestan Russe. – Paris, Imprimerie Arnous de Riviere, 1878. – 32 p.
- [11]. MouchkétoV J. Les volcans de l'Asie Centrale. – St. Petersburg, Academie de scientifique. 1876, 49-61 p. [Mélanges phys. et chim. Tires du Bull. de sciences se St. Petersburg. Tom X].
- [12]. Mouraviev, N.M. Voyages en Turcomanie et à Khiva, fait en 1819 et 1820. Traduite du russe par M.G.Lecoinge de Laveau, revu M.M. J.B.Eyriès et J. Klaproth. – Paris, L.Tenré, 1823. – VI, 398 p.
- [13]. Nalivkine V.P. Histoire du Khanat Khokand. Traduit par Dozon Aug. – Paris, 1889.
- [14]. Radloff. Itinéraire de la vallée moyen Zerafchan. [Dans le livre: Reçuel d'itinéraires et de voyages dans l'Asie Centrale et l'Extrême Orient]. – Paris, 1878, pp. 261-356.
- [15]. Tcharikow N. Un voyage dans l'Ouzbekistan en 1671 /Entrepris par Boris Pazoukhine. – St. Petersburg, 1880.
- [16]. Woeikof A.I. Le Turkestan russe. – Paris, A.Colin. 1914. – XII, 360 p.
- [17]. По поводу брошюры: “Catalogue de la section du Turkestan”. Санкт-Петербургские ведомости, 1873, №245.